

TO‘LQINLAR (HIKOYA)

Said Ahmad

Qishloq yo‘liga burilganimda adir orqasidan qovun tilimidek oppoq oy ko‘tarildi. Gullab yotgan o‘riklar xira pardaga burkandi. Yo‘l chetidan yangi nish urgan sarimsoq hidi keldi. Kovakni tark etgan ko‘klam elchisi qurilladi. To‘nkarilib qolgan tilla qo‘ng‘iz juda yaqinda dizillab-dizillab jim bo‘ldi.

Ko‘klam nafasi gurkirab turgan mana shu yo‘llardan yurmaganimga o‘n sakkiz yil bo‘lgan. Bu orada qancha suvlar oqib ketdi... Qancha voqealar bo‘lib o‘tdi...

Yigitlar frontda jon olib, jon berayotgan og‘ir kunlar edi. Dala ishlari ayollarga qolib ketgan, hammasi tajang, hammasi asabiy edi. Ularning intizor ko‘zlari front yo‘lida, qo‘llari mehnatda, frontchilarni zoriqtirmaslik, dushmanni tezroq yakson qilish uchun tinimsiz ishlar edilar. Stalingrad ostonalaridagi janglarda dushmanning uchta tankini yondirgan qahramon O‘sarboy Omonboev oilasi haqida ocherk yozish uchun xuddi shu yo‘ldan yurib qishloqqa kelgan edim.

Qishloq ancha fayzsiz bo‘lib qolgan, yo‘llar o‘ydim-chuqur, ish hayvonlarining tinkasi qurigan, yemga yolchimagan sigirlar sutdan qolgan edi. Ayollar durustgina kiyinishmas, pardozi-andoz ko‘ngillariga sig‘masdi. Kimning qanaqaligi bilinib qolgan o‘sha paytlarda urushga chap berib bormay qolgan erkak zoti ko‘zlariga balo bo‘lib ko‘rinardi.

O‘sarboyning xotini Jo‘raxon eri frontga ketgan ayollardan brigada tuzib, yuqori hosil olishda butun oblastga ovoza bo‘lgan yigirma besh yoshlardagi qora qosh, lo‘ppi yuz, ko‘krakdor, polvon ayol edi. O‘sarboy qahramon unvoni olgan kunning ertasigayoq kelganimda bir voqeaning ustidan chiqqan edim. Jo‘raxonning brigadasi ishlayotgan katta yo‘l chetidagi terakka qizil etik kiygan xotinchalik bir yigit belidan hali kudungi buzilmagan sakkiztepki atlas bilan bog‘lab qo‘yilgan edi. Uning atrofini o‘rab olgan xotinlar goh xiring-hiring kulishar, goh uni qarg‘ashardi. Birov yigitning yuziga upa suradi, birov qoshiga o‘sma qo‘yadi.

Jo‘raxon ikki qo‘lini beliga qo‘yib unga do‘q urardi.

— Shunaqami? Urug‘likka qolganmisiz? Bu xotinlarning erlari frontda o‘q tagida yuribdi-ya, shularga ko‘z olaytirdingmi? Ha, nomard! Hoy, Zebi, labiga qizil surt! Ishdan qaytishda shu ahvolda guzarga olib chiqamiz. Xaloyiq ko‘rsin. Basharasiga tupursin. Qani, ish-ishingga jo‘na hammang!

Xotinlar yigitni shu ahvolda qoldirib, chopiqqa tushib ketishdi.

Shiyponga chiqayotganimizda Jo‘raxondan bu yigitning gunohini surishtirdim.

— Zebiga aylanishib qopti. Shunday suqsurday eri borki, ko‘rganning ko‘zi tegadi. Tirnog‘iga arzimaydi bu hebbim. Tushlikda Norin bo‘yiga kel, sakkiztepki atlas sovg‘a qilaman debdi. Ushlab oldik.

Jo‘raxon bu gaplarni shunday g‘azab bilan aytardiki, ko‘zlari chaqnab, peshonalari, tirishib ketardi.

— O‘ziniyam shundog‘ do‘pposladikki, qo‘yib bersam xotinlar o‘ldirib qo‘yishadigan, zo‘rg‘a ajratib oldim. Eri omon-eson qaytib kelguncha birontasining ham sha‘niga yomon gap yuqtirmayman. Issiqmi, sovuqmi hammamiz birga baham ko‘ramiz, qaysi birining eridan xat-

xabar uzoqsa, baravariga yupatamiz. Birga yig'laymiz, birga kulamiz. Shuning uchun ham ishning og'irligi uncha bilinmay ketadi. Axir bu bechoralarga ham qiyin, avji o'ynab-kuladigan payti...

To kolxoz mehmonxonasiga yetib borgunimcha mana shu voqea esimga tushdi. Hozir Jo'raxon ancha qarib qolgandir? O'sarboy urushdan eson-omon qaytib keldimikin?

Mehmonxona qorovuli hali suv quyilmagan hovuz oldida samovarga tarasha solayotgan edi. U yoshi yetmishlarga borib qolgan dilkash chol ekan, alla-pallagacha u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdik. Gap orasida O'sarboyni surishtirdim.

— Omon-eson keldi. Hozir partkomimiz shu. Juda rejali, yaxshi bola. Bechora ish bilan ovunadi. Bo'lmasa allaqachon g'am yeb qo'yar edi uni. Shu vaqtgacha uylanmadi. Qandoq qilib ham uylanadi...

Cholning gaplariga tushunolmadim. U nima degani? Yo Jo'raxon uning kelishini kutmay, turmush qilib ketganmi, shundoq yigitning yuziga oyoq tirab-a?! Nahotki butun kolxoz ayollarini ko'z qorachig'idek asragan dono xotin unga bevafoqlik qilgan bo'lsa? Ishonmayman!
— Nima bo'ldi? Jo'raxon...

Nima deyishimni bilmay g'o'ldiradim. Chol boshini sarak-sarak qilib uh tortdi:
— Boyoqish Jo'raxon O'sarboy kelmasdan olti oy burun qazo qilgan edi...

Ikkovimiz ancha vaqtgacha jimib qoldik. Gullab yotgan shaftoli shoxiga osilgan elektr lampasiga o'zini urayotgan yorqanotlar dasturxon ustiga to'kiladi. Hovuz chetidan aylanib o'tgan tsement ariqda to'lib oqayotgan bo'tana suv qirg'oqqa shaloplab uriladi. Chol choynakni etagiga o'rab, bag'riga bosganicha hamon jim edi. Ko'nglim allanechuk bo'lib ketdi. Jo'raxon haqida undan boshqa gap so'ramadim. So'rashga jur'at qilolmadim ham.

— Shunaqa, o'g'lim. Jo'raxon tenggi yo'q asl xotin edi. Xotin kishining qo'lidan shuncha ish kelishiga ana o'shanda ishonganmiz.

TUYNUK (HIKOYA)

Said Ahmad

Badalbek yangi ichkuyov bo'lganidan hali qo'ni-qo'shnilarini tanimaydi. Bugun dam olish kuni, Badalbek nima qilishini bilmay hovlida aylanib yuribdi. Ko'chaga chiqay desa, qayoqqa boradi? Bitta yarimta o'rtog'ini boshlab kelay desa, hali qayin onasining fe'lini bilmaydi. U qo'lini orqasiga qilib aylanib yurarkan devor tepasidan bir g'isht qiya bo'lib tushib ketay-tushib ketay deb turganini ko'rib qoldi. Darrov shotini sudrab kelib devorga tiradi. Shotining bir pog'onasiga oyoq qo'yishi bilan kallasiga: qo'shnining xotini kishidan qochadigan bo'lsa, andeshalik ish bo'lasmikin, degan o'y keldi.

U po'sht, deb devor tepasiga chiqdi-yu, qo'shni hovliga qaramay osilib qolgan g'ishtni oldi. Bir mahal:

— Hormang, qo'shni, — degan ovozni eshitib beixtiyor hovliga qaradi.

Mo'ylovdor bir yigit deraza moylayotgan ekan, qo'lidagi cho'tkasini bankaga tashlab devor tagiga keldi.

— Qani, bir tanishib qo'yaylik, pochcha, — dedi u ham shotichasini sudrab kelib devorga tirmashar ekan.

Ularning har ikkovi ham devordan bel bo'yi baravar ko'tarilib qo'l olib ko'rishishdi.

— Buni qaranga, qo'shni, yo'g'-e, pochcha, bitta shisha konyak qachondan beri egasini topolmay javonimning bir chekkasini xira qilib yotgandi. Egasi o'zingiz ekan-ku. Hozir olib chiqaman.

Qo'shni Badalbekning hay-haylashiga qaramay shotidan tushib uyga yugurdi. Birpasda shimining bir cho'ntagida shisha, bir cho'ntagida piyola bilan lapanglab chiqdi.

— Shoshmang, — dedi Badalbek ham bo'sh kelmay, — singlingiz antiqa varaqi qilgan edi, konyakka varaqidan boshqa zakuska o'taversin.

Badalbek bir taxsimcha qilib varaqi olib chiqdi.

Ikki qo'shni devorga bag'rilarini berib bir piyoladan otib gapga tushib ketishdi. Ikkinchi piyoladan keyin devorga minib olib, xotirjam uchinchi piyolani ichishdi.

Badalbekning qaynanasi qizini chaqirib, eringga ayt, yangi kuyov qo'ni-qo'shnilar oldida uyat emasmi, deb qoldi. Ichkuyovga go'rni bir nima deb bo'ladimi? Dunyoda ichkuyovdan nozik narsa yo'g'-a!

— Menga qarang, qo'shni,— dedi mo'ylov. — Asli bizga devorning keragi yo'q ekan.

Bu gap Badalbekka ham yog'dek yoqib tushdi.

— Mana shu gapingizga borman-da. Qo'shni oshi uzatadigan kichkinagina tuynuk ochib qo'ysak bo'larkan.

— Iya, iya, kichkina emas, durustroq, rasmana bir lagan osh o'tadigan tuynuk bo'lishi kerak.

Ikkovi maslahatlashib hozirning o'zida tuynuk ochadigan bo'lishdi. Qo'shni u tamondan, Badalbek bu tomondan tesha urib ishga tushib ketishdi. Konyak zo'r kelib birpasda tuynuk ochildi. Ammo mo'ljal to'g'ri bo'lmagan ekan, yonma-yon ikkita tuynuk ochilib qoldi. Qo'shni hazilga olib: bittasi zakuska uzatishga, deb hiringlab kuldi.

Tuynukning chetlarini somonli loy bilan chiroyli qilib suvab qo'yishdi. Tuynuk-ku chiroyli chiqdi-ya, ammo Badalbekning kuyovlik sarpolari rasvo bo'ldi. Xotini g'iring deyolmadi, ichkuyovga go'rni bir nima deb bo'ladimi!

Konyak konyakligini qildi-yu, Badalbek ayvonda uxlab qoldi. Bir narsa taraqlab uyg'otib yubordi. Boshini ko'tarib qarasa kimdir tunuka tomni taraqlatib yuribdi. Badalbek jahl bilan hovliga tushdi. Bir bola tomda kaptar quvib yuribdi.

— Hoy, qanaqa yaramas bolasan, tush tomdan. He axloqsiz!

Tuynukdan qo'shning mo'ylovi ko'rindi.

— Pochcha, undoq demasinlar, bizzi erkatoya.

Badalbek indamay uyga kirib ketdi. Kechga yaqin qo'shning so'kingani eshitildi.

— Hu egangga o'xshamay o'!

Badalbek hayron bo'lib turgan edi, baraq mushuk tuynukdan jon holatda sakrab o'tib uning oyog'iga suykaldi.

— Hoy, qo'shni, unaqa demasinlar, mushuk hayvon, bilmagan-da!

Uch-to'rt kungacha ikkala qo'shni ne-ne umidlar bilan ochilgan qo'sh tuynukka yaqin kelolmay yurishdi. Ichkuyovchilik emasmi, Badalbek sal narsaga zarda qiladigan, sal narsaga arazlaydigan qiliq chiqazdi. Qaynonasi uning bu fe'lidan kuyinib nasihat qilgan edi Badalbek bobillab berdi. Xotin oraga tushib ishni katta qilib yubordi. Butun oila a'zolari uch kungacha bir-birlariga to'rsayib yurishdi. Ro'zg'orchilik emasmi, yana boyagi-boyagi bo'lib ketishdi. Bular-ku unutib yuboriladi, ammo uydagi gap tuynukdan chiqib ketgan ekan og'izdan og'izga, quloqdan quloqqa o'rmlab o'tib moshdek gap tarvuzdek bo'lib uyga qaytib keldi. Badalbek qo'shnikiga emas ko'chaga tuynuk ochganini bilib qoldi. Qo'shni tushmagur bularnikidan tiq etib tovush chiqsa tuynuk tagiga kelib o'tirib olar ekan.

To'yga kelolmagan og'aynilaridan uch-to'rttasi Badalbekni tabriklash uchun sovg'aga magnitofon ko'tarib kelib qolishdi. Hovliga suv sepib, supaga joy qildirib, o'rtoqlarining oldiga dasturxon yozdi. Yigitlar magnitofonni qo'yib yuborishdi. Devor orqasidan qo'shning yo'talganini Badalboy eshitmadi. Qo'shni qattiqroq yo'taldi. Badalbek yana eshitmadi. Oxiri qo'shni tuynukdan bosh chiqarib soat so'radi. Ammo Badalbek qo'shning mehmonlar oldiga chiqqisi kelayotganidan bexabar bilagiga qarab: chorakam olti, deb qo'yaqoldi. Qo'shni birpasdan keyin yana tuynukdan bosh suqib, avtoruchkaning siyohi bormi, deb so'radi. Badalbek yo'q, dedi.

Mehmonlar o'yin-kulgi qilib o'tirishipti. Badalbek yelib yugurib xizmat qilib turibdi. Qo'shni eshikdan kirib mehmonlar bilan birma bir ko'rishib, telefon qilmoqchi edim, deb ayvonga o'tib ketdi. Ancha vaqtgacha kim bilandir cho'zilib gaplashdi. Hech kim uni dasturxonga taklif qilmaganidan, zarda bilan trubkani joyiga tashladiyu olifta yurish qilib chiqib ketdi. U chiqib ketganidan sal o'tmay devordan tutun yopirildi. Mehmonlar o'tirgan supa devor tagida bo'lganidan tutun buralib-buralib ularning ustiga yopirilardi. Birov yo'talib, birov ko'z yoshini artib nima bo'ldi, degandek Badalbekka qaradi. Badalbek bo'lsa jahl bilan tuynukka boshini suqdi. Qarasa qo'shni devor tagida katta samovarga ho'l o'tin tashlayapti.

— Hoy, qo'shni, insof kerak, samovarni sal narroqqa oling.

Qo'shni uning betiga qaramay to'ng'illadi.

— Endi o'z uyimda ham choy qaynatib icholmayman-mi?!

Badalbekning qaynonasi qo‘shnining fe‘lini bilarkan shekilli, ayvonga joy qilib mehmonlarni o‘sha yoqqa taklif qildi. Magnitofon yana sayrab ketdi. Bir mahal tuynukdan qo‘shnining xotini bosh suqdi.

— Hoy, insof degan narsa bormi? Bolamni uxlatolmayapman-ku. Anavi savilning ovozi o‘chirsanglar-chi. Qanaqa betamiz ichkuyov ekan, bu!

Badalbekning zardasi qaynab shartta o‘rnidan turdi-yu, tuynuk og‘ziga samovar patnisni mixlab keldi. Qo‘shni ham daranglatib bir baloni qoqib tashladi. Ertasiga ikkala qo‘shni loyga qorishib bir-birining betiga qaramay tuynukni suvab qo‘yishdi.

Ana shundan keyin qo‘shnilar tinchib ketishdi. Yaqinda Badalbek eshigining oldidagi tol ni sug‘arayotganida mahalla komissiyasining muovini bir gap aytib qoldi. Qo‘shni unga, sizga atab Yerevandan bir shisha antiqa konyak oldirib kelgan edim, manavi turqi sovuq qo‘shni ichib qo‘ydi, konyak ham qulog‘ini ushlagancha uvol ketdi deganmish. Badalbek ham bo‘sh kelmadi. — Yaxshi ham sizga buyurmagani, konyak emas, ichiga qant kuydirib solingan o‘zimizning jaydari araq edi,—dedi.

Ikki qo‘shni yuz ko‘rmas bo‘lib ketishardi-yu ko‘pchilik bo‘lib, yana tuynukni ochib qo‘yishdi. Qo‘shni singlisini kuyovga chiqazayotgan edi, mahalla aktivlari o‘rtaga tushib Badalbekning hovlisiga qozon qurishdi. O‘sha tuynuk boshqatdan ochilib undan palov ham o‘tdi. Mastava ham. To‘y o‘tib hali tuynuk bekilgani yo‘q. Ishqilib ko‘z tegmasin, oxiri baxayr bo‘lsin, shu tuynuk bahona oling qo‘shnim, bering, qo‘shnim, bo‘lib turibdi.

Ha aytgancha qo‘shni uch-to‘rt kishi bo‘lib ot so‘yib qazi qildirayotgan ekan, Badalbekka, siz ham sherik bo‘ling, deb katta boshini kichik qilib atayin chiqibdi, Badalbek ham odam, bir gap aytdi. — Telefonga qiynalyapsiz, ikkovimizniki bir nomer bo‘la qolsin.

Qo‘shni sevinganidash bitta konyagim bor, olib chiqaymi, deb qoldi.

Badalbek yo‘q deyolmadi.

O‘sha kuni ikki qo‘shni bir-birini yalashdi, yulqashdi. Biri akamsan, dedi, biri ukamsan, dedi. Oxiri shu bo‘ldiki, bunaqa ahil qo‘shnilarga devordagi tuynuk torlik qilayotgani ma‘lum bo‘ldi.

Hikoyamni nima bilan tugatay? Ular shu xilda ahil bo‘lib ketishdi desamu, ketidan bir ishkali chiqib qolsa nima qilaman?

O‘liptimi, ishkali chiqmas.

* * *

Ushbu hikoya bitib nashriyotga olib ketayotganimda yangi gap eshitib qoldim.

Ikki qo‘shni qalin og‘ayni bo‘lib, og‘iz-burun o‘pishib ketishihti. O‘rtadagi devorni buzib qoq kesagini toklarining tagiga solishibdi. Hozir o‘sha devor o‘rnida taroqqa o‘xshagan chiroyli panjara qo‘ndirishihti.

QORAKO‘Z MAJNUN (HIKOYA)

Said Ahmad

Qur'oni karimdan:

*«Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa
va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning
(qilgan savobli) amallari
xabata (bekor) bo‘lur,
ular do‘zax
ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar».*
Baqara surasi, 217-oyat.

Hadisi sharifdan:

*«Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri
bu ashobi kahfning vafodor iti dir».*
Al-jome al-Kabir

Saodat aya bomdod namozini o‘kib, joynamoz poyida uzoq o‘tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o‘tgan eri usta Turobga atab Qur'on tilovat qildi. O‘ris shaharlarida daydib qolib ketgan o‘g‘li Bo‘rixonga xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaganing yo‘lini och, deb Allohga iltijo qildi.

Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. U qo‘l cho‘zib, joynamozning bir burchini qayirib o‘rnidan turdi.

Sentyabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog‘imi, qoshiqmi shundoqqina ko‘rinib turibdi. Qirg‘oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so‘ramay qo‘ygan palla.

Qo‘shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib-yolborishlari eshilib turibdi. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib, kulib qo‘ydi.

Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo‘lgandi. Sochlari taqimini o‘pardi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo‘llari sochining uchigacha yetmasdi.

Yarmini qismlab turib, buyog‘ini tarardi. Opasi 6u sochlarni qirqta qilib o‘rganda, yana shunchasi ortib qolardi.

— E, soching qursin! — derdi opasi. — Qo‘llarim tolib ketdi, sochingni o‘rdirishga odam yollash kerak.

Ko‘chada amirkon mahsikovushni g‘irchillatib, sochlarini selkillatib yurganda qaragan ham qarardi, qaramagan ham. Yosh qizaloqlar orqasidan kelib, sochlarini ko‘ziga surtib qochishardi.

Mana, yillar o‘tib soch ham oqardi, siyraklashdi-yu, baribir o‘sha uzunligicha qoldi. Uchiga biror narsa taqmasa, hurpayib, bo‘yni, yelkalarini tutib ketadi. Shuning uchun ham u sochining uchiga o‘g‘ri tutar sandiqning kalitini osib ko‘yadi. Sandiqni ochayotganda kalitni yechib olmaydi. Sochi

uzun bo‘lganidan tizzalasa kalit bemalol qulfga yetadi. Endi yangi uylarga sandiq urf bo‘lmay qoldi. Hamma uyni po‘rim javonlar bosib ketdi.

Bundan tashqari, qulfni daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.

Kampirning sochlari hamon yoshligidagidek. Faqat yarmidan ko‘pi oqarib ketgan. Orqasiga tashlab qo‘yadigan, uchi birlashtirilgan ikki o‘rim sochini uchiga erining frontdan olib kelgan og‘irgina medalini osib qo‘ygan. Tayyor ilgagi ham bor, sochni pastga tortib turadi.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg‘aya boshlagan. Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg‘alari skeletdek bo‘lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi.

Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita — biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor. Xuddi kimdir ataylab bo‘yab qo‘yganga o‘xshab ko‘rinadi. Tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora. Bir ko‘zining tepasida to‘mtoq qoshi ham bor. U kampirning oyoq tovushidan bir ko‘zini erinibgina ochdi-yu, chala yarim kerishib, yana uyquga ketdi.

— Ha-a, joningni huzurini bilmay o‘l-a! Supurginiyam harom qilding.

— Qo‘y, urishma, opasi, Qorako‘z hali bola-da!

— Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o‘lgurga men nega opa bo‘larkanman?! — dedi Qumrixon nolib.

— Agar Qorako‘zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo‘y, ukalaringnikiga ketib qolaman.

— Voy, oyijon-ey, it o‘lsin, odamdan aziz bo‘lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo‘ying-e!

— Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo‘q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo‘ni-qo‘shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos.

— Oyijon, qo‘ying endi... — dedi Qumri norozi bo‘lib.

Itning bir qulog‘ida, bo‘ynida, oyoqlarida qon qotib qolgan edi.

— Ahmoq! — dedi kampir. — Qayoqlarda sanqib yurganding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo‘lmay ketkur! Ahvolingni qara, xotin talashib rosa ta‘ziringni yebsan-ku! E o‘lmasin-a, shilinmagan joying qolmapti... Endi o‘zingdan ko‘r. Majnun, yaralaringga dori surtaman. Illo, dod demaysan!

Qumrixon itning bo‘ynidan bosib turdi, kampir yaralariga yod surta boshladi. It g‘ingshiydi, ingillaydi. Qumrixonning qo‘llarini tishlamoqchi bo‘ladi.

— Ana, bo‘ldi. Endi ovqatingni beramiz.

Bir oydan beri o‘g‘li surunkasiga kampirning tushiga kiradi. Na yotishida, na turishida halovat bor. O‘g‘lini o‘ylagani o‘ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko‘rmay o‘lib ketaman-mi, deb kuyib-yonadi.

O‘g‘li Bo‘rixon oltmish yettinchi yili armiyaga ketgan. Harbiy xizmati tugadi hamki uyga qaytmadi. O‘sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo‘lib, qolib ketdi. Ba‘zi-ba‘zida undan «Ya zdorov» degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o‘n besh yildirki, adresni unutib qo‘yganmi, ishqilib, shu o‘rischagina xat ham kelmay qo‘ygan.

Kampir qo'ni-qo'shnilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o'tiraverib qon bo'lib ketadi. Ba'zan kiyimboshlarini apil-tapil tugib — O'g'illari yo qizlaridan birinikiga otlanib qoladi.

Baribir borgan joyida ham halovat topmaydi. Qizi Kumrixonni o'ylab qaytib keladi. Qumrixonning baxti chopmadi. Ikki bor turmush qildi, farzand ko'rmadi, qaytib keldi. Biron joyda ishlab ovunay desa, hayhotdek hovliga, munkillab qolgan onasiga kim qaraydi. Aka-ukalari, singillari: «Opa, qo'y, ishlama, tirikchiliging bizning bo'yimizda, onamga qara», deb qo'yishmadi.

Kampirning o'g'illari, biznikida turing, oyi, deb xudoning zorini qilishsa ham, otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman, deb ko'nmadi.

Kampir juda dono xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to'ladi, albatta, ular quruq kelishmaydi, shu bahona Kumrining ham kuni o'tadi, deya qadrdon uyidan jilmasdi. Onalar shunaqa — baxti chopmagan bolasi bilan birga bo'ladi.

O'tgan yili o'tli-shudli, har ish qo'ldan keladigan nevarasi Anvarjon, tog'amni topib kelaman, deb chiqib ketdi. Shu ketgancha yigirma kun deganda daragini topib keldi.

Bu gapdan xabar topgan qo'shni xotinlar kampirni qutlagani kirdilar.
— Buvijon, tashvishlanmang, tog'amning ishlari «besh». Ro'zg'ori but, tirikchilikdan kami yo'q. Uchta 6olasi bor. O'zi o'zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o'rischa gaplashdi. Bitta sog'in echkisi, to'rtta qanor qopdek cho'chqasi, o'ntacha cho'chqachalari bor ekan. Qish zabtiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo'chka-bo'chka samogon-arog yasab, qishi bilan ichisharkan. Kishlokdagilar tog'amni «Bo'rixon» demay, «dyadya Borya» deb chaqirishar ekan.

Bu gaplarni eshitib, kampir yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Bolasi tushmagur-ey, qo'shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o'tiribdi-ya! Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi.

Qachongacha chilla o'tiraman, deb kampir bugun qizinikiga otlanib qoldi. Kampirning niyatini sezgan Qorako'z ostonaga borib o'tirib oldi. Yaqin bir oydan beri hech qayoqqa bormagan Qorako'z o'zida yo'q shod edi. Boshini bir tomonga egib irg'ishlar, tezroq chiqmaysizmi, degandek, har xil ovoz chiqarib g'ingshirdi.

Kampir shoshilmasdi. Usma ekilgan bir bo'yra yer oldida cho'nqayib, o'smalarning sersuv, bo'liq barglarini tagidan kertib uzardi. Oxiri kafti o'smaga to'lgach, rayhonning gul otmagan shoxlaridan sindirib olib, o'smaga qo'shib dastro'moliga o'radi. U qiz nevaralariga, kelinu qizlariga albatta o'sma olib borardi. Nihoyat, kampir

tugunni qo'ltiqlab chiqdi. Korako'z o'tirgan joyidan bir sapchib ko'cha tomon otildi. Kampir uning ketidan 6orarkan, xoy, muncha shoshasan, sekinroq, deb javrardi.

Korako'z uning gapiga tushungandek, ko'cha o'rtasida to'xtab orqasiga qaraydi. Kampir yetib kelguncha yayrab qulog'ini qashlaydi. Bir qulog'ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik qiladi. Orqa oyog'ida turib bir-ikki aylanadi. Kampir yetib kelishi bilan yana uynoqlab yugurib ketadi. Yo'lda uchragan mushuklarni tiraqaylatib quvib, nim qizil tilini osiltirgancha hansirab qaytib keladi. Daraxtlardagi musichalarga irg'ishlab akillaydi. Arikdan shapillatib suv ichadi.

Ba'zan yo'l chetiga chiqib, paxsa devor tagini ho'l qilib kaytadi. Velosiped minib o'tgan bolalarga ergashib uzoqlarga ketib qoladi.

Kampir uning qiliqlariga andarmon bo'lib yo'l yurganini sezmaydi. Qorako'z donlab yurgan tovuqlarni qaqag'latib, to'rt tarafga to'zg'itib yuboradi. Yo'lda uchragan itlar bilan iskashib, quvlashmachoq o'ynaydi. Ko'cha betidagi uy ostonasida tinmay akillayotgan kalamushdek kuchukni tuprokka korishtirib bulg'aladi. Ariq bo'yidan qo'porib tashlangan tungak soyasida yotgan bo'ribosar itga xam zo'rlik qilmoqchi bo'lgandi, ta'zirini yedi. Bo'ribosar uning gardanidan tishlab, uloqtirib tashladi. Yo'l o'rtasiga borib tushdi, tuproqqa qorishdi.

Kampir boshini sarak-sarak kildi.

— Hoy, jinni, senga kim qo'yibdi otang tengi it bilan olishishni!

Korako'z unga karay olmadi. Yo'lning 6u yog'iga ma'yus alpozda, yugurmay, ohista ketdi. Baribir Qorako'z itda, itligini qiladi. Bir qora itning dumini hidlab, ochiq turgan eshikdan kirib ketdi. Bir ozdan keyin uning vangillagani eshitildi. Eshikdan chiqayotganda ichkaridan otilgan eski tufli qoq beliga tushdi.

Katta yo'lga chiqishdi. Bu yo'lning o'ng yog'i Chirchiqqa, chap yog'i Toshkentga olib boradi. Oldinlab ketgan Qorako'z, qayoqqa yuraylik, degandek, kampirga qaradi.

— Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o'ynab turasan.

Qorako'z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko'cha boshiga kelganda albatta kampir shu gaplarni takrorlaydi.

Olisdan baland imoratlarning qorasi ko'rindi. Qorako'zning sabri chidamadi. Ildamlab ketdi. Kampir unga yetolmay xalloslab koldi. Qorako'z yugurib emas, g'ildirab ketayotganga o'xshaydi. Bir zumda ko'rshtmay ketdi.

Uchinchi qavatning boloxonasida o'ynayotgan bolalar Korako'zni ko'rib, buvim kelyapti, deb qiyqirishdi. Tapir-tupur qilib zining ikki poyasini bitta qilib, pastga yugurib tushishdi. Bittasi Korako'zga konfet, bittasi sergo'sht suyak berdi. Birpasda xovli bolalarga to'lib ketdi. Qorako'zning boshini, orqasini silashdi. U erkalanib turib berdi. Boloxonada Dilbarxon ko'rindi. Onangiz kelyapti, degan xushxabar olib kelgan Qorako'zga mehr bilan bokdi. Unga qand tashladi.

Nihoyat, hansirab kampir yetib keldi. Bolalarga qurt, yong'oq, turshak ulashdi. Korako'z ham umidvor bo'lib qo'liga qaradi.

— Senga yo'q, bevafo! Meni yo'lga tashlab ketgansan. Orqangdan halloslab yugurib, tilim og'zimga sig'may qoldi.

Qorako'z gunohkorona bosh egib turdi. Kampir konfet tashladi. Qorako'z ilib oldiyu quvonchdan hovlini shamoldek aylanib chikdi. Kampir kizi bilan kechgacha ezilib gaplashdi. O'g'lini eslab ko'z yosh xam qilib oldi. Kumrining betoleligidan, men bir balo bo'lib ketsam, u sho'rlik nima bo'ladi, deb afsus-nadomatlar qildi. Gap orasida Qorako'z esiga tushib, ovqat-povqat berdingmi, deb so'rab qo'yardi. Kampir asr namozini o'qib, ketishga shoshildi.

— Endi ketay, shom namozini uyginamda o'qirman.

— Ovqat qilyapman, oyijon, yeb keting. Bir kechagina yotib ketsangiz nima bo'ladi. Uyingizni bo'ri yeb ketarmidi!

Kampir tugunni qo'ltiq lab pastga tushdi. Hovlida bolalar bilan yayrayotgan Qorako'zning ketgisi kelmaydi. Bolalar tuflab uloqtirgan kaltakni o'tlar orasidan topib keladi.

Kampir yo'lga tushdi. Qorako'z erkanib, irg'ishlab goh undan o'zib, goh orqada qolib qulog'ini qashlaydi.

Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini tarqatadigan, ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi.

U uyiga yaqinlashganda eshigi oldida u yoqdan-bu yoqqa shoshib yurayotgan odamlarni ko'rib, yuragi xapqirib ketdi. Kadamini tezlatdi. Eshik oldida turganlar unga, qulluq bo'lsin, sevinib qoldingizmi, qariganingizda dilingizga yorug'lik tushgani muborak bo'lsin, deyishardi.

Kampir xajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini «Hoji badal» uchun berib yuborgan edi. Haj kabul bo'ldi, degan xushxabar kelgan bo'lsa kerak, o'zingga shukr, Allohim, deb ostona hatladi.

Shoxiga katta lampochka osilgan tut tagidagi supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish edam o'tirardi. Uning ko'zlari... bundan o'ttiz ikki yil oldingi Bo'rixonning ko'zlari edi. Kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, uchib bordimi, bilmaydi. Bag'rida o'g'lini ko'rdi. Undan aroq va sham yoqilgan uynig hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi. G'oyibining hozir bo'lganidan mast-alast edi. Karaxt edi, baxtiyor edi. O'g'lining boshlariga, yelkalariga ko'z yoshlari to'kilardi.

O'g'li uning bag'ridan chiqishga urinar, ammo kampirning qoq suyak, chayir qo'llari uni bo'shatmasdi.

— Nu zachem, zachem plachesh, mama, vot i priexal, xvatit, xvatit, — derdi o'g'li.

Ona bu gaplarni eshitmasdi. Eshitganda ham bari-bir tushunmasdi.

Kampir hushini yig'ib, bolasini bag'ridan bo'shatdi. Serrayib turgan Kumriga:

— Nega baqrayib turibsan, Rahmon qassobni chaqir, bolamning oyog'i tagiga og'ildagi qo'yni so'ysin! Qo'shnisidikida telefon bor, aka-ukalaringga, singillaringga, akam keldi, deb xabar qil! — dedi.

Qorako'z kampirning oyog'i tagiga o'tirib olgan. Bu notanish odamga g'ashlik qilib tinmay irillardi.

— Qayoqlarda yurganding? — dedi kampir o'g'liga. O'g'li onasi nima deyayotganini tushunmay yelka qisdi. Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo'lib ketibsan.

Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo'pti. Basharasiga ham o'sha tomonlarning nuqsi urib, o'zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo'lib qo'ya qopti.

Rahmon qassob allaqayoqqa ketib qolgan ekan, topib kelishdi. Ko'cha tomonda qo'sh mashinaning gurillagani, o'g'il-qizlarining ovozlari eshitildi.

Abdumalik qo'y yetaklab kirdi. Qizlari, kuyovlari karton qutilarda, xaltalarda meva-cheva, olma-uzum ko'tarib kirishdi. Bir zumda hovli gavjum bo'lib qoldi.

Bo'rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanishmadi.

Bo'rixon begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi. To'g'ri, nima deyishni bilardi. Ammo til bilmasa nima qilsin? o'ylab-o'ylab, «Salyam!» dedi. Jigarlari kulishni ham, yig'lashni ham bilmay hayron turib qolishdi.

Qassob og'ildan kattakon, boquvdagi qo'yni sudrab chiqdi. Bo'rixonning oyog'i tagiga yotqizib, ukam, qani bir fotiha bering, dedi. E, darvoqe, o'zbekcha bilmasligingizni esimdan chiqaribman, qani, omin denglar, kampir enamizning umrlari uzun bo'lsin, g'oyiblari hozir bo'lgani rost chiqsin, omin!

Qassob shunday deb qo'yning bo'g'ziga pichoq tortdi.

— Nu zachem, zachem? — dedi Bo'rixon. — ved barana jalko, vse ravno ya stolko myaso ne yem! U nas baranina ne yedyat.

To yarim kechagacha kampirning hovlisi to'yxonaga aylanib ketdi. Tarqash paytida Abdumalik akasini mehmonga taklif qildi.

Hovli jimib qoldi. Qumri ona-bolaga supaga joy solib berdi. Kampir bolasiga tikilib mijja qokmadi. Bo'rixon to'ygunicha ichgan edi. Og'zidan gup-gup aroq hidi kelib turibdi. Kampir ro'molining uchi bilan burnini berkitgancha o'tiribdi. Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb o'ylardi kampir. Qarib ketibdi, sochlari to'kilib, boshining yarmi yalang'ochlanib qopti. Ko'p ichadigan odamlardagina bo'ladigan zaxil bir befayzlik zohir edi uning yuzlarida. Ko'zlarining tagi salqigan, tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan. U otasi o'tgan uyda, tuqqan onasiga, jigarlarga begona bo'lib beparvo yotibdi.

Saodat kampir uni chaqaloqligida xuddi shu supada beshikka belab tebratardi. Uch yoshga kirguncha shu supada bag'rida olib yotgan edi. Bo'rixon do'mboqqina bola bo'lgandi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumoru ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi. Sultonimga atab unga kokil qo'ygandi. Olti yoshga to'lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kesdirishgan, qo'y so'yib xudoyi qilishgan edi.

Bo'rixon u yonboshidan bu yonboshiga ag'darildi. Shunda... shunda uning ustidagi oq choyshab sirg'alib yelkalari, ko'ksi ochilib qoldi. Kampir badanidan chayon o'rmalagandek seskandi. O'zini orqaga tashladi.

Bo'rixonning bo'ynidagi zanjir uchida but yaltiradi. Kampirning ko'zlari tindi. Bir dam uni shuur tark qildi. Telbadek sapchib o'rnidan turdiyu ayvon tomonga chekindi...

Bo'rixon armiya xizmatini o'tagandan keyin ham uyga qaytmadi. O'rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiqu beqaror bo'lib qoldi. Qallig'ining otasi, boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi. Qiz Bo'rixonni xristian diniga kirishga undadi. Ishq-muhabbatdan ko'zini parda bosgan Bo'rixon hech ikkilanmay rozi bo'ldi. Uni cherkovda cho'qintirishdi. Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o'qidi.

Ana shundan keyin Bo'rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni cherkovga borib cho'qinadigan bo'ldi. Qaynotasi o'lgandan so'ng uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchisi qilib qo'yishdi. Nimaiki ish bo'lsa, barini u bajaradigan bo'ldi. Piligi so'xta bo'lgan shamlarning uchini qaychilaydi, yonib tamom bo'lganlarini almashtiradi.

1970 yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi...

Oh, otaginasi tirik bo'lganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya! Kampir ayvon tomon tisarilib borar ekan, ana shunday o'ylardi. U ayvonga yetolmay hushidan ketib yiqildi. Qorako'z uning atrofida ulib aylanardi. Qumri yotgan uyning eshigini timdalab, uni uyg'otmoqchi bo'ldi. Qumri uyqusini buzgan itni qarg'ay-qarg'ay hovliga chikdi. Qorako'z uning etagidan tortib, kampir yotgan joyga sudradi. Qumri onasining behush yotganini ko'rib qo'rqib ketdi. Qarib, mushtdekkina bo'lib qolgan onasini dast ko'tarib ayvonga olib chikdi. Boshi ostiga yostiqlik qo'yib, suv ichirdi. Yelkalarini uqaladi. Kampir ko'zini ochdi. Hali tong yorishmay turib, Abdumalik mashinada kelib akasini olib ketdi. Unga Toshkentning mustaqillikdan keyingi manzarasini ko'rsatmoqchi, Chorsu bozoridan uning bolalariga sovg'a-salomlar olib bermoqchi edi.

Bo'rixon uchun o'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bo'lmadimi baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayok unutilib ketgan Shumer tili qatori tumanlar orasida kolib ketgandi.

Ertalab kampir xech narsa bo'lmagandek o'rnidan turdi. Qumri qarasa, onasining kolgan kora sochlari xam bir kechada oqarib, ajinlari ko'payib ketibdi.

Qumri onasining nega bunaqa bo'layotganini bilib turardi. Boya akasi tong yorishmay xovli etagidagi yong'oq tagida devorga karab cho'qinayotganini ko'rib hayronu lol qolgandi. Ayollar umuman titimsak xalq bo'ladi. Akasi Abdumalik bilan hovlidan chiqib ketgach, ichkari uyda turgan chemodanini titkiladi. Shunda sariq baxmalga o'ralgan bir narsaga ko'zi tushdi. Ushlab ko'rdi. Qutichaga solingan narsa to'pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. O'xristianlarning muqaddas kitobi Ynjil edi. Uni ushlagan qo'llari kuyayotgandek shoshib yana baxmalga o'rab qo'ydi.

Kampir bomdod namozini o'qiyotib, har sajdaga bosh qo'yganida joynamozga ko'z yoshlari tomardi. U joynamoz burchagini qayirib, eriga atab Qur'on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag'ishlab shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijolar qildi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga xam olmadi.

Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: «Bo'ri bolalayapti», degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon dsb ism qo'ygandi. Oradan ellik bir yil o'tib, 6u bolani men emas, bo'ri tukqan ekan, degan xayolga bordi.

— Oyi, kiyinasizmi? Abdumalikning mashinasi hozir kelib qoladi. O'g'lingiz tayinlab ketgan.

— O'zing boraver, men shu yerda qolaman, — dedi kampir.

— Axir, akam, kechqurun poezdga chikadi. Xayrlashmaysizmi?

— O'zi kelgan, o'zi ketaveradi. Mashina kelsa, chemodanini tashlab qo'y. Bu uyga endi qaytib kelmasin, — dedi kampir kat'iy qilib.

— Oyijon-ey, juda qahringiz qattiqda! Bugun ketadi, qaytib ko'ramizmi-yo'qmi, bolam-bo'tam, deb kuzatib qo'ya qolsangiz nima qiladi-ya! — dedi zorlanib Qumri.

— Bu bolani men emas, bo'ri tukqan... Bir marta dadam qani, deb so'ramadi-ya! Qandoq ota edi-ya rahmatli.

Ko'chadan mashina ovozi keldi. Qorako'z o'qdek otilib chiqib ketdi. Bir ozdan keyin kampirning nevarasi Abdunabining atrofida gir aylanib kirib keldi.

— Iya, xali ham kiyinmay o‘tiribsizmi? Uyimiz qarindosh-urug‘larga to‘lib ketdi. Dadamning o‘rtoqlari xam kelishgan. Qani, bo‘la qolinglar!

— Men bormayman, — dedi kampir. — Qumri boradi. Chemodan o‘lgurni ola ketinglar.

— Iya, qiziq bo‘ldi-ku! Amakim bugun ketadilar-ku!

Kampir indamay uyga kirib ketdi, keyin derazadan boshini chiqarib:

— Sen boraver, bolam. Men bilan o‘tirib qon bo‘lib ketding. Jigarlaring bilan birpas yozilib kelasan, — dedi Qumriga.

Mashina ketdi. Kampir hayhotdek hovlida bir o‘zi qoldi. Uning ko‘ksiga allaqaydan kelib tushgan bir parcha muz kechadan beri erimay, vujud-vujudini qaqshatardi.

U uyga kirib tugun ko‘tarib chiqdi. Undan Bo‘rixonning go‘dakligida, bolaligida kiygan kiyimlarini olib qaradi.

Ilgari kampir ba‘zi-ba‘zida 6u kiyimlarni hidlab yig‘lardi. Endi ko‘ksidagi muz uni yig‘lashga qo‘ymadi. U hovli o‘rtasiga xazon to‘plab gugurt chaqdi. Gurillab yonayotgan gulxanga Bo‘rixonning kiyimlarini birma-bir tashlay boshladi. Gulxanda Bo‘rixonning bolaligi yonardi. Qorako‘z gulxan atrofida aylanar, goh alanga taftiga chidolmay nari ketardi. Bir bo‘xcha kiyim zum o‘tmay yonib kulga aylandi. Shamol kuyindilarni hovlining to‘rt tarafiga uchirib ketdi.

Qumrining ko‘ngli bir nimani sezdimi, ko‘cha boshiga yetmay mashinadan tushib qoldi. Uyga kelganda, onasi kaftini iyagiga tirab, qimirlamay o‘tiribdi. Qorako‘z uning xayollariga sherik bo‘lgandek, u ham old oyoqlariga dahanini qo‘ygancha ko‘zlarini yumib, qimirlamay yotibdi. Qumri u yoq-bu yoqqa qaradi. Hovlidan kuygan latta xidi kelyapti. Qo‘shnilardan birortasi eski-tuskilarni yondiryapti shekilli, deb o‘yladi. Hovlining supradek joyi qorayib qolganini ko‘rib hayron bo‘ldi. Yaqin bo-rib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko‘ylagiga qadaladigan o‘n-o‘n beshta qovjiragan tugma sochilib yotibdi. Qumri nima bo‘lganini bildi. Ichidan zil ketdi.

— Oyi, — dedi u, — nima ovqat qilib beray? Ertalab ham hech narsa tatimadingiz. Bunaqada toliqib qolasiz-ku.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

— Ishtaham yo‘q, bolam. Ichim to‘la muz. Tanamga asta tarqalyapti.

Qumri ko‘rkib ketdi.

— Ko‘p kuyinmang endi, bo‘lar ish bo‘ldi. Xudoning irodasi bu.

— E, qizim-a, bola tug‘magansan-da, bilmaysan!

Kampir qiziga hech qachon «tug‘magansan» deb aytmagan. Aytsa, ta‘na qilayotgandek bo‘lardi. Qizining shundoq ham dardi ichida. Bu gapni begona aytsa chidash mumkindir. Ammo o‘z onang aytsa, yuragingni kimga ochasan? Qumri onasining gapini malol olmadi.

— Farzand dog‘i yomon bo‘ladi, bolam.

— Axir akam tirik-ku, shukr qilmaysizmi? Kampir uning gapini cho‘rt kesdi:

— U yo‘q endi!

Kampir so‘zini oxiriga yetkaza olmay yonboshiga behush yiqildi. Qorako‘z bezovtalanib sapchib turib ketdi. Kumri onasini ko‘tarib, ko‘rpacha ustiga yotqizdi.

Eshik taqilladi. Qorako‘z darvoza tomon yugurdi. Qumri onasi bilan ovora edi. Hovliga mahalla machitining imom-xatibi bilan mutavallisi kirdi. Kampirning ahvolini ko‘rib, bir-biriga qarab

olishdi.

— Qizim, — dedi mutavalli, — bemavrid kelib qopmiz. Onaxondan suyunchi olmoqchi edik.

Ular ayvon oldiga kelishdi. So‘nggi nafasini olayotgan kampirga:

— Onajon, kecha muborak haj safaridan qaytdik.

Sizning hajingiz qabul bo‘ldi, — deyishdi.

Imom-xatib Saodat ayaning «Hoji badal» bo‘lgani to‘g‘risidagi hujjatni uzatdi. Kampir qo‘lini ko‘tara olmadi. Ko‘zini arang ochib, o‘zingga shukur, Allohim, deya oldi, xolos. U qiziga bir nima demoqchi bo‘lgan edi, tili kalimaga kelmadi.

Kumri uning nima demoqchiligini bildi. Yugurib uyga kirdiyu ikkita ohorli to‘n ko‘tarib chikdi.

— Oyim shu kunga atab saqlab yurgan edilar.

U shunday deb ikkovining yelkasiga to‘n tashladi.

Kampir ikki kun shu alpozda yotib, sal o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Tilga kirdi.

Aslini olganda, uning umri tugagan edi. Bu xushxabar uning tugab borayotgan umriga umr ulagan edi. Bu hol shamning o‘chish oldidan bir lop etishiga o‘xshardi.

— Ukalarिंगni, singillaringni chaqir! Vasiyat qilib

qo‘yay. Sen qo‘rqma, qizim. O‘lim haq. Bu jon degani Allohning tandagi omonati. Undan qochib qutulib bo‘lmaydi. Puf etadi-yu, chiqadi-ketadi.

Kampirning bolalari yetib kelishdi. Qumri onasining orqasiga yostiq qo‘yib berdi. Qator o‘tirgan bolalariga, nevaralariga qarar ekan, kampir mamnunlik bilan:

— Xudoga shukr, tobutim oldida boradigan hassakashlarim ko‘p ekan, — dedi. — Eshitinglar, bolalarim. Abdumalik, endi bularga sen ota o‘rnida otalik kilasan. Qumri, qizim, endi sen mening o‘rnimga qolasan. Abdunabini shu hovlida uylantiringlar. Yilimni kutib o‘tirmay to‘y qilaveringlar. Shundoq qilsalaring, arvohim shod bo‘ladi. Abdunabi kelin bilan Qumrining oldida qolsin. Shu uy uniki. Onam go‘rida tinch yotsin, desanglar Qumrini aslo yolg‘izlatib qo‘ymanglar.

Kampirning lablari quruqshadi. Qumri piyoladagi suvga paxta botirib og‘ziga tomizdi.

— Shoshib turibman, bolalarim. Meni otalaring oldiga olib ketishga kelishyapti. Endi buyog‘ini eshitinglar. Hamma tadorigimni ko‘rib qo‘yganman. Yilim o‘tguncha bo‘ladigan marosimlarga yetarli pulni Qumriga berib qo‘yganman. Qizim, qulog‘imdagi ziragimni, mahsi-kovushimni g‘assolga bergin. — U endigi aytmoqchi bo‘lgan gapidan iymandi shekilli, jilmaydi. — Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o‘sma...

Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi.

Hovliga tumonat yig‘ildi. Unga «Hoji ona» deb janoza o‘qishdi. Tobutni ko‘tarishayotganda Qorako‘zni qabristonga bormasin, yomon bo‘ladi, deb qo‘shnining hujrasiga qamab ketishdi.

Kampirning qirqi o‘tgandan keyingina hovlidan odam oyog‘i tovsildi. Egasi ketib fayzi yo‘qolgan hovlida Qumri va Qorako‘z mung‘ayib qolishdi.

Bir kun Qorako‘zning mijjalarida yosh ko‘rib Qum-rining yuraklari ezilib ketdi. Qorako‘zga qo‘shilib u ham yig‘ladi. Asta qo‘l yuborib, uning boshlaridan siladi. Oldin bu itni jinidan ham yomon ko‘rardi. Necha marta kosov bilan urgan. Oyog‘i ostida o‘ralashganda tepib yuborgan. Qorako‘z ham uni unchalik suymasdi.

Ana endi ikki munglig‘ bir-biriga qarab yum-yum yosh to‘kishyapti.

Korako‘z endi kechalari daydib ketmay qo‘ydi. Har kuni xali tong yorishmay turib (kampir bomdodga turganda) uyg‘onib ketardi.

Kampirshshg bolalaridan nkkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Kibrayda yashaydi. U tong otgandan to kun botguncha xammasining uyiga borardi. Kampirni topolmay, xorib-charchab qaytib keladi.

Bugun xam tong sahardan Korako‘z chikib ketdi. Pildiragancha Chirchiq tomonga yo‘l oldi. Kimyogarlal shaharchasida kampirning kenja qizi turadi. O‘g‘li magnitofon jinnisi. Hammaning ovozi tasmaga yozib yuradi. Shu yil bahorda buvisining ovozi xam bildirmay yozibdi. O‘shanda kampir supada o‘tirib, allaqayoqlarda daydib kelgan Qorako‘zga tanbeh berayotgan edi.

Korako‘z Kimyogarlal shaharchasining eng chekkadagi «dom»ga yetib kelganda kampirning nevarasi shisha bankada sut olib kelayotgan edi. Qorako‘z unga dumini likillatib yaltoqlandi. Unga ergashib uchinchi qavatga chiqdi. Uyga kirmay qaytib tushdi. Bir ozdan keyin kampirning ovozi eshitila boshladi. Qorako‘zning kulog‘i ding bo‘ldi. Yaqin ikki oydan beri yo‘qotgan qadrdon kishisining ovozi eshitib yig‘layotgandek g‘ingshidi. Qorako‘z uchinchi qavatga otilib chikdi. Eshikni timdalab vovulladi. Yana qaytib tushdi. Boloxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi...

Magnitofondan kampirning ovozi kelardi.

«Qorako‘zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o‘tirasanmi-yo‘qmi? Qorning xam ochgandir? Tentakkina. Gapimga quloq sol, nega beozor musichani quvasan?...»

Qorako‘z akillar, yerni timdalab orqasiga tuproq otardi. Shu hovlida kecha to‘y bo‘lgandi. Shirakayf yigitlar mikrofonni baland qo‘yib, hech kimni uxlatmagan edi. Uyquga to‘ymagan odamlarga tong mahali akillayotgan itning bu qilig‘i malol kelardi. Quturgan bu it qayoqdan paydo bo‘ldi, uni yo‘qotish kerak, deb o‘ylashardi.

Qorako‘z odamlarni jonidan bezor qilib, tinmay vovullar, u yokdan-bu yoqqa yugurib, akillagani akillagan edi.

— Daydi itlarni tutadiganlarni chaqirish kerak, — dedi birinchi qavat boloxonasiga choyshab yopinib chiqqan kasalmand bir kishi.

— Quturgan bu, bolalarni tishlab olmasin-da! Uni otib tashlash kerak! Hoy, kimning miltig‘i bor?

— deb asabiy qichqirdi uchinchi qavatdan bittasi.

Kampirning ovozi hamon eshilib turibdi. Qorako‘z akillashini qo‘ymaydi.

Shu payt to‘rtinchi qavatdan kimdir varanglatib o‘q uzdi. Qorako‘z vangillab yonboshiga ag‘darildi. Orqa oyog‘ini bir-ikki silkitib jimib qoldi.

Magnitofon tasmasi hamon aylanardi.

«... Qorako‘z o‘lmagur, Majnuningina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma’shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko‘rsatasan? Laylingni bir olib kel, ko‘ray...»

PAYPOQ (HIKOYA)

Said Ahmad

Orifjon shu trestga ishga o‘tgandan beri xotinidan tinmay gap eshitadi. Trest boshlig‘i serulfat odam ekan. Har kuni ishdan keyin Orifjonni mashinaga o‘tqazib, shahardan tashqariga opchiqib ketadi. Soya-salqin choyxonalarda oshxo‘rlik qilishib, qosh qorayganda javob beradi.

Albatta, bu xil o‘tirishlarda hadeb boshliqqa sarf qildiraverish insofdan emas. Xotinining kunlik beradigan obed puli o‘zidan ortmaydi, tekin yeyaverishga Orifjonning yuzi chidamaydi.

Orifjon xotiniga bildirmay yordam kassasidan uncha-muncha pul oladigan bo‘ldi. Ikki marta maosh ustidan avans ham oldi. Har kuni, o‘ldim deganda, o‘n besh so‘m sarf bo‘laversa, pul chidaydimi?

Boshliq-ku, Orifjonni unchalik xarj qilishga qo‘ymaydi. Ora-sira uyiga chaqirib ziyofat ham qilib qo‘yadi. Shundoq bo‘lgandan keyin Orifjon ham uni uyiga chaqirmasa, uyat bo‘ladi-da!

Boshliq birinchi kelganda juda mamnun bo‘lib ketdi. Bir haftagacha: «Bay-bay-bay-, kelinning mantisi, hali ham mazasi og‘zimda turibdi-ya» deb, tamshanib yurdi.

U hadeb shundoq deb turganda Orifjon indamasa odamgarchilikka kirmaydi, albatta:

– Yana tashkil qilamiz, – devordi.

Shu gapni deyishga dedi-ku, qandoq qilib xotiniga aytishini bilmay, bir-ikki kun chaynalib yurdi. Oxiri xotini ochilib-sochilib turganda aytdi. Xotinining tepa sochi tikka bo‘lib ketdi.

– Qandoq sulloh odam u? Yeydiganini yeb ketdi! Yana nima deydi?

Orifjon xotinini bosib qo‘ydi:

– Undoq dema, xotin! Xo‘jayin narsa. Aytganini qilmasak bo‘lmaydi. Yaqinda maoshi ikki baravar ko‘p ishga o‘tkazmoqchi. Sen mantini boplayvergin, buyogiga xudo xohlasa oshig‘imiz olchi bo‘lib ketadi.

Xotini undoq desa, mundoq dedi, mundoq desa, undoq dedi, xullas, bir gal mantiga ko‘ndirdi. Ammo bitta shart bilan. Ziyofat xarjini Orifjonning o‘zi topib kelishi kerak. Ro‘zg‘orga ajratilgan mablag‘ga tegish yo‘q.

Obbo! Yordam kassasidan qarz bo‘lsa, moyana ustidan ikki marta avans olgan bo‘lsa, bu yog‘ini qaydan topadi?

Orifjon o‘ylab-o‘ylab, birovdan qarz ko‘taradigan bo‘ldi. O‘tgan moyanadan o‘n to‘rt so‘m, yordam kassasidan olgan puldan sakkiz so‘m, avans puldan yetti so‘mi bor. Hammasi bo‘lib yigirma to‘qqiz so‘mni paypog‘iga yashirib qo‘ygan. Toleiga Orifjonning oyog‘i andek islanib turadi. Ikki kun paypog‘ini yangilamasa, uyga pashsha to‘lib ketadi.

Ana, shuning uchun ham er-xotin kir yuvish ishlarini o‘zlari bo‘lib olishgan. Orifjon paypoqni o‘zi yuvadi, boshqa kirlar xotinining bo‘ynida. Paypoqqa xotin qo‘l urmaydi. Pul yashirishga paypoqdan yaxshi joy yo‘q.

Orifjon xotindan yashirib, paypoqda saqlab yurgan pullarini shu ziyofatga ishlatmoqchi edi, yangi gap chiqib qoldi. Yigirma oltinchi kuni boshliqning tug‘ilgan kuni emish. Idorada hamma uch so‘m-uch so‘mdan qilib pul yig‘ishyapti. Soat taqdim qilishar emish. Orifjondan pul olishmadi.

– Siz boshliqqa qadrdon odamsiz, o‘zingiz kattaroq sovg‘a qilasiz.

Endi nima bo‘ladi? Orifjon paypoqdagi pulga sovg‘a oladigan bo‘lsa, ziyofat uchun birovdan qarz ko‘tarishi kerak. Shunday qildi. Bir oshnasidan ikki hafta muhlat bilan yigirma besh so‘m qarz ko‘tardi. Ikkita konyakdayoq pulining rangi o‘chib ketdi. Shu puldan ham uch so‘m qayirib, paypoqqa urdi. Go‘sht-yog‘ ro‘zg‘ordan chiqdi.

Boshliq yolg‘iz kelmadi. Ikki oshnasini ergashtirib keldi. Orifjon bilan bo‘lib to‘rt kishiga ikkita konyak nima bo‘ladi? Jiyanini chiqarib, magazindan yana bir shisha uch yulduzligidan oldirib keldi.

Ammo kelin mantini yana boplabdi. Boshliq har gal mantini og‘ziga solayotganda kelinning pazandaligini maqtab, Orifjonning qo‘li ochiqligini ta‘riflab turdi.

Yarim kechada mehmonlar tarqashdi. Ular ketishayotganda Orifjon eshikkacha kuzatib chiqdi.

– Juda erta ketyapsizlar-da, bir siqimgina osh qilmoqchi edik. Kelingiz oshni qiyvoradi-da.

Boshliq mashinaga o‘tirar ekan, samimiy minnatdorchilik bildirdi:

– Oshni kelasi gal yeymiz. Xo‘pmi? Xafa bo‘lmang, albatta kelamiz.

Orifjon ham o‘zini tutolmadi. Boshliq shundoq deb turgandan keyin aniqroq bir gap aytish kerak.

– Bitta osh ekan-ku, kabobiga ham tayyormiz. Ammo qachonligini aytib aniq va‘da berib ketasizlar.

Boshliq orqa kabinada o‘tirgan oshnalariga qaradi:

– Kelasi oddixga vaqtlaring qalay? Mening vaqtim bor.

Oshnalar, ixtiyor sizda deyishdi. Shundan keyin mashina gurillab jo‘nab ketdi. Mashina ketdi-yu, shu ketishida yana bitta ziyofatning va‘dasini ham olib ketdi. Orifjon peshanasiga bittani urdi.

– Laqma bo‘lmay o‘l! U gapirganda sen tinch tursang o‘larmiding? Bu yog‘ini xotinga qandoq tushuntirasan?!

U o‘ziga, hay mayli, kelasi oddixgacha nima gapu nima so‘z, bu yog‘i keyin ma‘lum bo‘ladi, deb uyga kirib ketdi.

Mehmon kelgan uy, albatta, ivirsimay iloji yo‘q. Hovlining hamma yog‘ida papiros qoldiqlari, qog‘oz parchalari. U yoqda kir sochiq, bu yoqda yuviqsiz idish-tovoq. Orifjon o‘zini mastlikka

solib, darrov yota qoldi. Ertalab ishga ketayotganida karavotning tagiga qarasa, xotini yangi paypoq qo'yibdi.

– Xotin, paypog'im qani?

– Paygyug'ingiz qursin, bijg'ib ketibdi, otash kurakka qisib, ko'chadagi axlatga opchiqib tashladim.

Orifjonning darmoni qurib, o'zini yostiqqa tashladi. Birdan hovliqib, ich ko'ylakda ko'chaga yugurdi.

Axlat mashinasi endi joyidan qo'zg'algan ekan. Qarasa, qo'shnisi ham ich ko'ylakda mashina ketidan chopib ketyapti. Yetolmadi. Mashinaga yetib bo'ladimi? Orifjon hafsalasi pir bo'lib, ostonaga o'tirib qoldi. Qo'shnisi halloslab qaytib keldi. Orifjon sir boy bermay, bo'shashgancha qo'shnisidan so'radi:

– Nima gap, tong saharlab mashina quzib yuribsiz?

Qo'shni peshanasiga shatillatib bir tushirdi.

– Meni xudo urib qoldi! Birovga aytmangu, paypoqqa ikki yuz ellik yashirgan edim, bolalar axlatga tashlavorishibdi.

Orifjonning ichida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Xayriyat, buniki atigi o'ttiz ikki so'm edi, qo'shnisinikiga urvoq ham bo'lmaydi.

KELINLAR QO'ZG'OLONI (KOMEDIYA)

Said Ahmad

Uch Pardali Hazil

QATNASHUVCHILAR

Farmon bibi . Oila boshi, 75 yoshda.

Bashorat. O'rinboyning xotini, tikuvchi.

Bo'ston. Mahkamning xotini.

Lutfi. Askarning xotini.

Sotti. Komilning xotini.

Muhayyo. Ma'murning xotini.

Mehri. Hakimning xotini.

Nigora. To'xtaning xotini.

Begona xotin..

O'rinboy. Ekonomist.

Mahkam. Buxgalter.

Asqar. Militsiya polkovnig

Komil. O'qituvchi.

Ma'mur. Artist.

Hakim. Vrach.

To'xta. Kenja o'g'il.

Usta Boqi. Yamoqchi.
Muxbir.

BIRINCHI PARDA

Poyafzal remont qiladigan ustaning budkasi. Tepasida «Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish shahar kombinatining filiali № 1» degan yozuv.

Usta Boqi. (budka oldini supurib). Oh, tonggi konsertdan zo'ri bo'lmaydi-da. (Qopga ko'zi tushib.) Obbo, kampiri tushmagur-e! Bularni o'n besh martalab remont qilganman. Yana opchiqibdi. Balo, balo, bu kampir. (Sahna pardasini ko'rsatib.) Mamlakatimizning territoriyasi xuddi shu yerga kelganda tugaydi. U yog'i boshqa mamlakat. Mana shu parda chegara. U yog'i xotin poshshoning yurti. Bu poshsholikning o'z qonuni, o'z urf-odatlar bor. Ajablanmang. To'g'ri gapni aytyapman. Poshsho xotinning yetti o'g'li, yetti kelini, qirq bir nevarasi bor. Jami bo'lib bu uyda ellik olti kishi turadi. Kampir Gorispolkomga borib, janjal qilaverib, oxiri shu do'konni ochtirdi. Har kuni bu uydin bir qop jag'i ayrilgan, poshnasi ko'chgan, yirtilgan etik deysizmi, tufli deysizmi, tapochka deysizmi, chiqaveradi. Kechgacha yamaganim-yamagan. Narigi mahalla u yoqda tursin, yonimdagi qo'shnilar ham biror nimasini menga yamatolmaydi. Kampirning eski-tuskisidan bo'shamayman. Bugun o'n kun bo'ldi, shu xotin kenja o'g'lini uylantirdi. To'y-tomoshaning shovqin, karnay-sarnay tovushlari chegaraning bu tomoniga ham eshitilib turdi. Ishonmayapsiz-a? Yo'q, ishonang. Xotin poshshoning yurtini bir ko'rasizmi? Ko'rsatay-a? (Sahna chetiga kichkiradi.) Hoy, kim bor? Chegarani ochinglar. Ochinglar deya bman!

Asta-sekin parda ochila boshlaydi. Katta hovli.

Nigora ichki kiyimda, yelkasida g'ildirak xala-xo'p bilan chiqadi.

Nigora. To'y bilan bo'lib, o'n kundan beri zaryadka qilolmadim. Bellarim qotib, lanj bo'lib ketyapman.

G'ildirakni belidan aylantirib saxnaning u boshidan bu boshiga borib kelaveradi. Shu payt qo'lida obdasta ushlagan 6aynona — **Farmon bibi** chiqadi Kelinini shu alpozda ko'rib, ko'lidagi obdastani tashlab yuboradi.

Farmon. Bu nima, ajinami? Hoy, to'xta! To'xta, deyman!

Nigora. Hozir, hozir, oyijon. Yana besh minut zaryadka qilay.

Farmon (erga o'tirib oladi). Voydod! Uyimga ajina keldi. Uyimdan farishta qochdi. Qanaqa baloga giriftor bo'ldim.

Eshiklar ochilib, o'g'illari, kelinlari yugurib chiqib boshlaydilar.

Hakim. Boshlandi. Nima gap? Tinchlikmi? O'g'ri tushiptimi?

Farmon (o'tirib olganicha). Anavuni qaranglar, anavuni!

Belida g'ildirak aylanayotgan Nigoraga karab hamma hayron turib qoladi.

Eri qani, eri o'lgur qani? Chaqiringlar.

O‘rinboy. To‘xtavoy, hoy To‘xtavoy. Turmaysanmi, uka. Hovli qiyomat bo‘lib ketdi-ku.

Farmon. G‘aflat bosib yotmay o‘l! Xotining qo‘yningdan chiqib ketsa bilmasang, hovlida qiyomat qo‘psa bilmasang.

Ko‘zlarini uqalab To‘xtavoy chiqib keladi. Kelinlar orasida shivir-shivir gap. Ermak qilib kulishadi.

Sotti. Kelin uxlatmagan-da.

Lutfi. Qo‘ysangiz-chi, ovsin!

Bo‘ston. Bu desangiz...

Mehri. Og‘zidan so‘lagi oqyapti. Qazi yedirib turish kerak. Jenъshenъ degan doridan opkelib beraman. Bo‘lmasa yiqilib qoladi.

Farmon. Bo‘ldi, ko‘p valdiramalaring. (To‘xtaga.) Bu yoqqa kel. (To‘xta bir xotiniga, bir kelin ayalariga harab onasi tomon yura boshlaydi.) Men senga kim bo‘laman?

To‘xta. Oyim bo‘lasiz.

Farmon. Xo‘sh, menga ayt-chi, senga ona kerakmi, xotin kerakmi?

To‘xta (o‘ylab qoladi. Komil unga ikkita barmog‘ini ko‘rsatadi). Ikkovingiz ham keraksiz.

Farmon. Senga oq sut bergan onangdan xotin aziz bo‘pti-da. Yo‘q, bunaqasi ketmaydi. Xotiningni hozir oyisinikiga eltib qo‘yasan.

To‘xta. Nimaga, oyijon?

Farmon. Nimaga-nimagasi yo‘q. Qo‘yasan, vassalom.

To‘xta. Uylanganimga bir hafta bo‘lgani yo‘g‘-a, oyijon. Akalar, bir narsa denglar.

O‘rinboy. Bir-birining diydoriga hali to‘ygani yo‘g‘-a, yana ozroq qo‘yib bering. Balki bir-biringlar bilan til topishib ketisharsizlar.

Farmon (elkasiga g‘ildirak tashlab maykachan turgan Nigorani ko‘rsatib). Shu sharmanda bilan til topishamanmi? Ahvolini qara!

Mehri dorga yoyilgan dasturxonlardan birini Nigoraning yelkasiga tashlab ko‘yadi.

Asqar. Hali yosh-da, oyi. Bir-ikki oy o‘tsin, qolipingizga solib olasiz.

Komil. Oyijon, bu kelinchak hali minilmagan toydek narsa, o‘zingiz egarlab, og‘ziga no‘xta solib olasiz.

Sotti (o‘zicha to‘ng‘illab). Minilmagan emish. Tavba!

Farmon. Hoy bola, menga qara, xotiningni yana shu alpozda ko‘rsam, mendan xafa bo‘lmaysan. E, boringlar-e. Bet-qo‘llaringni yuvlaring. Tahoratim ham ushalib ketdi.

Lutfi. O‘zingiz chaqirdingiz-ku, oyijon.

Farmon. Senlarni emas, erkaklarni chaqirganman. Jo‘nalaring!

Sotti. Hozir issiq suv chapishtirib beraman. Tahoratingizni yangilab olasiz, oyijon.

Bo‘ston (chiqib ketarkan). Patxalim o‘lgur. Shu desangiz...

Bashorat. Suykalmay joning chiqsin! (Hali ham yelkasida dasturxon bilan turgan Nigoraga.)
Mana shu Sottixon ovsiningizga ehtiyot bo‘ling. Aslo sir ayta ko‘rmang, darrov sotadi.
Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga.

Muhayyo. Shpion bu o‘lgur, shpion!

Mehri. Bu shpion o‘lgur hammamizni nervniy qilib qo‘ygan.

Chiqib ketishadi. Sahnada To‘xta bilan Nigora.

To‘xta. Nigoraxon, men sizga nima degan edim? Oyim sal qattiqroqlar demaganmidim. Shu o‘lgur gimnastikani uyda qilsangiz bo‘lmasmidi?

Nigora. Bunchalik ekanliklarini qayerdan bilibman?

To‘xta. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring. Axir qaynona oldiga kelin degan yalang‘och chiqadimi?

Nigora. Nega yalang‘och bo‘larkanman? Mana bular nima? (Mayka-trusiklarini ko‘rsatadi.) Axir televizorda ham shunaqa chiqaman-ku.

To‘xta. Televizor boshqa, oyim boshqa.

Nigora. Menga qarang, To‘xta aka. Men sizga tegayotganimda oyingizning shunaqaliklarini bilib tekkanman. Bu kampir seni yeb qo‘yadi, deyishdi, myasorubkadan o‘tqazvoradi, deyishdi, seni eshak qilib ustingga minib oladi, deyishdi. Seni ignaning teshigidan o‘tqazvoradi, deyishdi. Burningdan ip o‘tqazib, tuyaga o‘xshatib yetaklab yuradi, deyishdi.

To‘xta. Bilar ekansiz-ku!

Nigora. Bu gaplarning hammasiga bitta qilib javob berganman.

To‘xta. Nima deb javob bergansiz?

Nigora. Parvo qilmanglar, bunaqa kampirlarning yigirmatasini choynak-piyolaga o‘xshatib tokchaga terib qo‘yaman, deganman.

To‘xta. Voy-bo‘, hali shunaqamisiz?

Nigora. Shunaqaligimni bila turib, nega qo‘rqmay sovchi qo‘ydingiz?

To‘xta. Axir men sizni sevaman.

Nigora. Kelin ayalarimning ahvolini ko‘rib, yana bitta bo‘shashgan kelin kelmasin, sal zo‘rrog‘idan bo‘lsin, deb qidirib yurgan edim, deb aytgan edingiz-ku. Juda oyingiz bop kelinman. Suyunavering. Endi uyimizda revolyutsiya qilsak bo‘ladi. (Yig‘laydi.)

To‘xta. Yig‘lamang. Ammo-lekin bilasizmi, oyimning unvonlari qanaqa?

Nigora. Bilaman, shaharda u kishini General kampir deb atashar ekan.

To‘xta. Yo‘q, shaharda shunaqa deyishadi. Ammo mahallada u kishini Marshal kampir deyishadi-ya.

Nigora. Nima, siz meni sira ham qo‘rqmaydi, deb o‘ylaysizmi? Agar yetti kelin ko‘lni qo‘lga berib, bir jang qilsak, Marshal kampirning boshiga qurshovda qolgan feldmarshal Paulyusning kunini solishimiz hech gapmas.

To‘xta. Bas. Kirib kiyinaylik. Chiqib qolsalar nonushtani ham tatitmaydilar.

Ikkovi chikib ketishadi. Orqadan poylab **Sotti** kiradi.

Sotti. Nima deydi? Qurshov? Paulyus? Tushunolmay qoldim-da. Pamyatim o‘lgur, ayniyapti.

Birin-ketin kelinlar chiqib hovlini yig‘ishtira boshlaydilar. Biri dordan kirlarni oladi, biri chorpoyaga joy qiladi, biri hovlini supura boshlaydi. Ichkaridan **Farmon bibi** ning ovozi.

Farmon. Kelinlaru, hoy kelinlar. Hoy, tandirga kim o‘t qalagan? Nonni yopmaysanlarmi?

Bo‘ston. Voy o‘lay. (Shoshib chiqib ketarkan.) Shu desangiz...

Lutfi. Butun fikru-xayolim Nigoraxonda. Bechoraga yomon bo‘ldi. Oyim endi unga kun bermaydilar.

Mehri. Bitta yo‘li, A, B, V, G, D vitaminlaridan yeb turishi kerak, bo‘lmasa holdan toyib qoladi.

Muhayyo. Ovsiningiz xiylacha bor. Ayamga osonlikcha jilovini tutqazib qo‘ymaydi.

Lutfi. Shundoq deysizu, o‘zimdan qiyos. Kelganimda tipratikonga o‘xshab hurpayib, duch kelganga ignamni sanchirdim.

Bashorat. Esingizdami?

Lutfi. Bo‘lmasam-chi. Oyimning qo‘liga tushdimu yelkamni kim silasa, mushukdek mudraydigan bo‘lib qoldim.

Muhayyo. Oyim tipratikonni teskarisiga silab uxlatadiganlardan.

Bashorat. Zo‘rdan zo‘r chiqsa, zo‘r bo‘ynini qisar.

Lutfi. Samolyotni ayting, o‘rgilay, samolyotni. Osmoni falakni guldiratib kelayotgan samolyot uyimiz tepasiga kelganda pildirpis qilib, ovozini chiqazmay o‘tadi.

Muhayyo. Mulla akangiz-chi, bedanaga ishqiboz. Shundoq sayroqi bedanalarni topib keladilar.

Shoʻrlıklar oyimni koʻrishi bilan soqov boʻladi qoladi.

Lutfi. Qoʻshnimizning xoʻrozi.

Mehri. Xoʻroz! Zoʻr xoʻroz-da.

Lutfi. Oʻlgur ham anchadan beri qichqirmay qoʻydi.

Muhayyo. Oyimdan qoʻrqadi. Qoʻrqadi, oʻrgilay.

Sotti. Nonushta tayyor!

Birin-ketin erkaklar chiqib kela boshlaydilar.

Maʼmur. Uyquga toʻymay oʻlib ketarkanmiz-da. Bor, sochiqni olib kel!

Muxayyo. Xoʻp boʻladi.

Oʻrinboy. Joyni yana chorpoyaga (supaga) qildilaringmi? Yangi dazmollangan shim bilan qandoq oʻtiramiz?

Mahkam. Hali ham boʻlsa joyni manavi stolga olinglar.

Komil. Shunaqa qilinglar, baraka topgurlar.

Mehri. Mumkinmi? Oyim stulda oʻtirolmaydilar, nerv sistemalari koʻtarmaydi.

Asqar. Bir amallab koʻndiramiz. Gʻijim shim bilan ishga borib boʻladimi?

Maʼmur. Menga baribir.

Komil. Sen xalturachi-otarchilarga toʻylarda chorpoyaga shunaqa joy qilishadi. Oʻrganib qolgansan-da. Sotti, joyni bu yoqqa ol.

Sotti. Yoʻq. Kim aytdi sizlarga, kallayi-sahardan posbon boʻlib olinglar deb. Chorpoyaga oʻtirasizlar.

Asqar (Oʻrinboyga). Aka, Mingboyevni bilasiz-a, shu qanaqa odam?

Oʻrinboy. Qaysi Mingboyev? Baza direktorimi? Nima edi?

Asqar. Oʻzim, shunday.

Oʻrinboy. Bir gapni boshlagandan keyin bu yogʻini ham ayt-da.

Asqar. Shunchaki soʻradim-da.

Oʻrinboy. Militsiya shunchaki soʻramaydi. Iching toʻla sir, uka.

Asqar (Maʼmurga). Avvalgi kuni kimning toʻyiga borganding? Kim toʻyga aytsa ketaverasanmi? Bir kun emas, bir kun bizga gap tekkizasan. Oʻsha toʻy qilgan Mingboyev kecha qamaldi.

Komil. Ishi bojamga oshirilibti. Bazani ham bojam reviziya qilyapti. Mingboyev juda ustasi farang odam ekan.

Ma'mur. Hunarimiz shu bo'lgandan keyin kim to'yga aytsa ketaveramiz-da. Bizga taka bo'lsin, yuz gramm suti bo'lsin.

Asqar. Sen bilan qanaqa gaplashsa bo'ladi, uka? Qanaqa?

Mahkam. Nodonsan, uka, nodonsan. (Qo'lidagi cho't toshlarini turtib). Birinchidan, qonun bor, ikkinchidan, odamgarchilik bor, uchinchidan, insof degan narsa bor. Ana shular oldida pul bir tiyin. Bildingmi?

Komil. Akamni qara. O'ttiz yildan beri buxgalterlik qiladilar, qo'llaridan eng kamida yigirma million so'm pul o'tgan.

Mahkam. O'n-o'n besh milliard desang-chi.

Komil. Ellikdan ortiq reviziya ko'rganlar. Hamma vaqt hisob-kitob to'ppa-to'g'ri chiqqan. Bu nimadan? To'g'rilikdan. Insofdan. Ko'zingga qara, bola.

Hakim. Hammanglardan o'ziming hunarim durust ekan. Pul tutmayman.

Ma'mur. Voh, pul tutmayman emish. Do'xtirlik ham ish bo'ptimi? Har o'n besh kunda moyana poylab o'tirasiz.

Asqar. Senga qanday qilib bas kelib bo'ladi, yaxshisi seni oyimga aytish kerak.

Ma'mur. Yo'q, yo'q, oyimga aytmang.

Komil. Oyimga o'xshab...

Shu payt **Farmon bibi**, unga ergashib **Sotti** kiradi. Kampir **Komil** ning «Oyimga o'xshab...» degan so'zini ilg'ab qoladi.

Sotti. Oyimlar...

Ma'mur. Yaxshi yotib turdingizmi, oyi?

Farmon. Ha, nima? Oyisiga o'xshasa yomon bo'ptimi? Sen yetimchalarning boshini ikki qilgan kim? Agar oyingga o'xshagan xotin shaharda bitta bo'lsa, oying. Ikkita bo'lsa ham shu oying. Beva boshim bilan topgan-tutganlaringni mahkam ushlab, shuncha uy qurdim. Maza qilib o'tiribsanlar. Ro'zg'oring but. Bu nimadan? Oyingning saranjomligidan. Birovga muhtoj qilmadim. Qo'ni-qo'shnilaridan bir kaft tuz, bitta piyoz so'ramadim. Xumchang to'la moy, qop-qop unu, guruch. Ha, oyingga o'xshasa yomon bo'ptimi? Hamma xotinlar oyingga o'xshasa jon-jon deydi. Bu gap seni gapingmas. Seni xotining Mehrini gapi.

Sotti. To'g'ri. Iye, oyi, bu kishini xotinlari menman-ku.

Farmon. Iye, sen buni xotini eding-a, yo'q, yo'q, bundan bu gap chiqmaydi, yanglishtirib yuboribman. Otang rahmatlik erkaklikni o'rniga qo'yardi. Rahmatlikni hamma Azim sher deb

atardi. Yursa yer titrardi. Yo‘talsa, daraxtdagi qushlar parr etib uchib ketardi. Aksa ursa, osmonda momaqaldiraq bo‘lib, chaqmoq chaqardi. Rahmatlik xotin kishini gapini gap demasdi. (Ko‘ziga yosh olib.) Shundoq odam tuproqda yotibdi. (Birdan o‘ziga kelib). Kenja kelin qani? Nega ko‘rinmaydi?

Asqar. Shuncha gap bekorga ketdi-ya.

Sotti. Yangi kelin-kuyov misoli Layli-Majnun. Bir-birini yalab o‘tirishgandir-da.

Farmon. Yalashmay bor bo‘lishsin. Hozir kun qisqa, kechasi uzun.

Mehri. O‘zlari nimjonroq edilar-da. Kaloriyali ovqatni kam yeydilar. Yo jenshenь...

Farmon (ensasi qotib). Chaqir.

Sotti yugurib chiqib ketadi.

Shu kelinim baraka topgur ko‘p mo‘min-qobil chiqdi-da.

Bo‘ston bir savat issiq non olib chiqadi.

Bo‘ston. Mana oyijon, shu desangiz...

Farmon. Ichkariga opkirib qo‘y. Mana, yumshoqqina buxanka nonlar, mana shularni yenglar.

Hakim. Hay, mayli, mayli.

Mahkam. Issig‘idan yeylik-da, oyijon.

Farmon. Sovigani teshib chiqmas. Bu nonlar nevaralarimga, pioner lageriga olib boraman. O‘zingni bolang yeydi. Aytganday, Asqarjon bolam, ishga borganu mashinangni g‘ir etib qaytarib yubor. Birrov Oqtoshga borib kelaman.

Asqar. Idoraning mashinasi, mumkinmas. Yonida qizil chizig‘i bor. Gap bo‘ladi. Qonunga sig‘maydigan ishni qilmaylik-da.

Farmon. Bolangni ko‘rib kelaman-a. Chizig‘i borligi uchun aytyapman-da.

Komil. Asqar to‘g‘ri aytyapti. O‘zimizning mashinamiz bor-ku. O‘shanda boring. Mana keliningiz Sottixon o‘zi mashinani haydab borib, o‘zi haydab olib kelib qo‘yadi.

Farmon. Yap-yangi mashinada-ya? Esing bormi? Oqtoshning o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarida mashina rasvo bo‘ladi. Har biri sakson so‘mli g‘ildirak yedirilib adoyi-tamom bo‘ladi-ku.

O‘rinboy. Choydan ber. Hukumatniki yedirilmaydimi?

Farmon. Hukumatnikini joni qattiq. Yubormaysanmi? Otaginang shundoq Azim sher bo‘lib bir gapimni ikki qilgan emas.

Mahkam (Asqarni turtib). Xo‘p deb qo‘ya qol. Bo‘lmasa qutulmaysan.

Asqar. Bo‘pti. Ammo-lekin boshqa taraflarga borib yurmang.

Sotti Nigora bilan To‘xtavoyni boshlab chiqadi.

Sotti. Layli-Majnun. (Nigoraga). Engashib salom qiling.

Nigora. Salom!

Farmon (g‘azab bilan). Qaysi go‘rda tarbiya ko‘rgansiz? Ota-onangiz axloq, odob degan narsalarni o‘rgatmaganmi? (Yuzini teskari o‘giradi.)

Sotti. Egilib salom bering!

Erkaklarning hammasi hang-mang bo‘lib qarab turishipti. Lutfi Bo‘stonning qulog‘iga shivirlaydi.

Lutfi. Hozir bir ishkal bo‘ladi.

Bo‘ston. Shu desangiz, hech balo bo‘lmaydi. Kenja ovsin bo‘sh kelmaydiganga o‘xshaydi.

Lutfi. Shundoq qilsin. Bizlarga ham shu bahona yo‘l ochiladi.

Bashorat. Kichkina demang bizni, ko‘tarib uraman sizni, deganlari shu ekan-da.

Farmon. Hoy, bola, o‘laman-qolaman, shuni olmasam o‘zimni o‘ldiraman, deb topgan xotining shumi? Yo‘qot buningni? Agar qo‘yvormas ekansan, otaginagni arvohini o‘rtaga solaman.

To‘xta. Oyi, hozir xotin qo‘yish taqiqlangan.

Farmon. Sen qo‘ymasang, men qo‘yaman.

To‘xta. ZAGSdan sizmi yo men o‘tganmanmi? Meni qo‘yadigan xotinim yo‘q.

Farmon (o‘rnidan turib ketadi.) Ko‘rdinglarmi, buniyam burnidan ip o‘tkazib olgan. (Birpasda hammayoq to‘s-to‘polon bo‘lib ketadi. Mahkam onasini joyiga o‘tqazadi).

Mahkam. Axir, onajon, nima qilasiz yoshlarning ishiga aralashib, bilganicha yashayvermaydimi?

Farmon. Bu uy ham bir hukumat. Ha, bir mamlakat. O‘z poshshosi, o‘z qonuni bor.

Lutfi (Sottini ko‘rsatib). O‘z shpioni ham bor.

Sotti. Eshitdingizmi? Eshitdingizmi? Eriga tvorog qilib bersam ham yoqmayman.

Farmon. Voy, sen o‘lgurning ham tiling chiqib qopti-ku. Manavini kelganiga o‘n kun bo‘lmay boshqa kelinlarimni ham yo‘ldan urdi. Voydod, voydod...

Sotti. Voy, oyimni o‘ldirib qo‘yasizlar...

A s k a r. O‘zingizni bosib oling. Ho, Hakimjon, uspakayushiy doringdan ber. (Hakim sakvoyajdan tabletka olib onasining kaftiga qo‘yadi. Kampir dorini yutadi.)

Komil. (Nigorani yetaklab chetga olib chiqadi). Jon singlim, ikki-uch kun kampirning aytganlarini qilib turing. Keyin bu yog‘ini bir balo qilarmiz. Bunaqada bo‘lmaydi. Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas, deb bekor aytmagan ekanlar. Bir hafta, bir hafta. Nima desalar shuni qiling.

Nigora. Ikki kun.

Komil. Savdolashmang, o‘n kun. Bo‘ptimi?

Hakim. Keling, keling...

Nigora (o‘ylanib). Mayli, uch kun.

Komil. Mana bo‘ldi, oyijon. O‘zinglar gaplashishni bilmaysizlar. Kelin hali yosh. Unga ro‘zg‘or tutish, yangi uyda yangicha muomala qilishni o‘rgatishimiz kerak. Mana, o‘zim o‘rgatdim, tushuntirdim. (Nigoraga imo qiladi.)

Sotti. Shu o‘g‘lingiz boshqacha-da.

Nigora (**Farmon bibining** oldiga kelib, egilib salom beradi). Meni kechiring, oyijon, yoshlik qilibman. (Hamma barobar chapak chalib yuboradi.)

Ma‘mur. Qaynona-kelin bhay, bhay. Shu xursandchilikka yuz grammdan choy otaylik.

Mahkam. Mir, mir.

Ma‘mur. Kampir erib ketdilar, yuz gramm choy tutinglar.

Xakim. Oyim shunaqalar, bir pov etib yonadilaru darrov o‘chadilar.

Asqar. Nima balo, Hakim, haligi doringda bir gap bormi, oyimni darrov boshqacha qilib qo‘ydi-ya.

Komil. Shu doridan tez-tez berib tur.

Farmon. Senlarga gap topildi-ya. Men yaxshiga yaxshi, yomonga yomonman. Otaginang rahmatlik ham ertalab menga egilib salom berardilar.

Komil. Dadam bechoraga ham ko‘p qiyin bo‘lgan ekan-da.

Farmon. Bo‘pti, gapni cho‘zma. Choylaringni ichib bo‘lgan bo‘lsalaring, ishlaringga jo‘nalaring. (Kampir dasturxonga fotiha o‘qiydi. Hammalari o‘rinlaridan turadilar. Kampir ichkariga kirib keta boshlaydi. Avval Mahkam, undan keyin O‘rinboy, keyin ketma-ket boshqalari yo‘tala boshlaydilar.) Ha, nima bo‘ldi, ko‘ksov bo‘lib qoldilaringmi? Muncha yo‘talasizlar?

Ma‘mur. 100 gramm shamol cho‘ntakni bu yog‘idan kirib 50 gramm bo‘lib chiqib ketyapti-ku, mulla jiringdan...

Farmon. E, ha, hozir.

Kirib ketadi. Xotinlar ham kiyingani ketadilar.

Farmon bibi chiqadi. Hamyonini ochib chorpoya suyanchig'iga pul terib chiqadi. Yettita bir so'mlik, yettita ellik tiyinlik qo'yadi.

Mahkam. Hech bir so'mdan oshmas ekan-da.

Farmon. Voy, senga yana hisoblab beraymi? Besh tiyin avtobusda borishingga, besh tiyin kelishingga, ellik tiyin obedga. O'ttiz tiyin sigaretaga. Bir tiyin gugurtga. To'qqiz tiyin unchamuncha xarajatlaringga. Senlarga ham ellik tiyin kamlik qilyaptimi?

Kelinlar chiqib ellik tiyindan olib sumkalariga sola boshlaydilar. Etagi tizzasidan yuqori, yoqasi dekolte ko'ylak kiygan **Nigora** chiqadi. Hamma hang-mang bo'lib qarab qoladi.

Farmon. Voy sharmanda. Voy beyuz. Bu qanaqasi? (O'g'illariga.) Qochlaring. Indamay qarab turgani uyalmaysanmi? (O'zi ham yuzini to'sadi.) Kir uyga, kir deyapman!

Nigora. Nima gunoh qildim, oyijon?

Farmon. Oyi dema-e, yuzsiz.

Hakim. Hamma yoshlar ham shu-da, oyi.

Farmon. Sen aralashma. Sen doktorman deb xotinlarni yechintirib, ko'kragiga qulog'ingni tutib, beting qotib ketgan. Oppoq bilagidan ushlab tomir ko'raverib eting o'lib qolgan.

Nigora. Gunohim nima axir?

Farmon. Shir yalang'och chiqa qolgin edi. Kiyim kiymay yalang'och yura qolgin.

Sotti. Hozirgi yoshlarda uyat bormi, oyijon.

Farmon (To'xtaga). Ermisan, nimasan? Xotining akalaring oldida yalang'och yursa ham eting jimirlamaydi-ya. Aslida sen o'zingni xudo urgan. Opkir uyga. Etagi uzunroq ko'ylak kiydir. Ko'kragi o'lgurga ham bir nima yopib qo'y.

To'xta. Xo'p, xo'p, oyijon, hozir. (Nigoraga). Uyga kira qoling. Boshqa ko'ylak kiyib oling.

Nigora (ovozini boricha). Voy, men qanaqa uyga kelin bo'lib tushdim. O'n sakkizinchi asrga qaytib ketdim-ku.

Hakim. Kelin hujumga o'tdi.

Nigora. Bu qaysi xonlik zamoni? Qaysi feodalning uyi?

Asqar. Yomon bo'ldi. Kelin siyosiy tomondan olyapti.

Nigora. Gorkomga boraman. Arz qilaman. Toshkentdek shahri azimda bir feodal oila bor, tekshirib chora ko'ringlar deyman.

Asqar. Bizga gap tegmasa go'rga edi.

Nigora. Ular quloq solmasa televizorga borib, miniatyurachilarga iltimos qilaman, basharaglarni ko'rsataman.

Farmon. E, hoy tirrancha, meni hech kim, hech narsa qilolmaydi. Men pensionerman.

Nigora. Bo'lmasa, sotsial ta'minot ministriligiga borib arz qilaman.

Farmon. Bor, undan kattasiga bormaysanmi. Bor-e...

Nigora. Pensiyangizni to'xtatirib qo'yaman.

O'rinboy. Obbo, kelini tushmagur, yomon joydan ushladi.

Mahkam. Pul masalasi oyim uchun jiddiy masala. Qani, bu yog'i qanday ko'charkin.

Farmon (gap topolmay qiynalib turadi. Zo'rma-zo'raki kuladi). Sizlar nima qilib tomoshabin bo'lib turibsizlar? Ishingizga jo'namaysizlarmi?

Asqar. Mashina kelsin.

Farmon. E, mashinang o'lsin. Muncha imillaydi? (Nigoraga.) Voy, aylanay, mendan xafa bo'ldingmi? Qo'y, xafa bo'lma. Qani, yur-chi, ikkalamiz ichkariga kirib bir murosaga kelib olaylik. (Sottiga.) Sen yur! (To'xtaga.) Sen qol!

Komil. Oyim taslim bo'lyapti.

Asqar. Bu bir taktika. Oyim arslonga o'xshab ish tutadilar. Bir qadam orqaga chekinib turib, sakrab hamla qiladilar.

Lutfi (Sottiga). Kirmaysizmi? Oyimni soyalari bo'lib yurardingiz-ku!

Bo'ston. Shu desangiz... Bu yerda nima gaplar bo'lishini bilib turishlari kerak-ku.

Muhayyo. Shpionlik qilmasalar turolmaydilar.

Sotti, Hazillaring o'lsin. (Chiqib ketadi.)

O'rinboy. To'xtanglar! (Mahkamga.) Men senga kimman?

Mahkam. Akam bo'lasiz, akam.

O'rinboy (Komilga). Men senga kim bo'laman? Sendan so'rayapman?

Komil (zo'rga). Akam bo'lasiz.

O'rinboy (Ma'murga). Senga-chi, senga kim bo'laman?

Ma'mur. Akajonim bo'lasiz, akajonim.

O'rinboy. Senga-chi Asqar? Nega indamaysan? Og'zingga talqon solib olganmisan? Gapir.

Asqar (zoʻrga). Akam boʻlasiz.

Oʻrinboy (jonlanib). Bu boshqa gap. Raz men senlarga aka boʻlganimdan keyin, oʻlasanlarmi meni aytganimni qilsalaring. Ertaga shanba, indinga yakshanba, oyim ikki kun koʻchaga chiqazmaydi. Harakatlaringni qilib qoʻysalaring-chi.

Mahkam. Toʻgʻri, bu bir, ikki kun diqqatvozlik, bu ikki, anovi oʻlgurdan bir shisha eplash kerak, bu uch.

Komil. E, qoʻysalaring-chi. Yoshlaring bir joyga borib qoldi. Shuncha ichdilaring, shoxlaring chiqdimi?

Oʻrinboy. Sen iloji boricha jim tur.

Asqar. Komil toʻgʻri aytadi. Oʻsha oʻlgurni ichmasalaring biror narsa boʻlib qolasizlarmi?

Toʻxta. Nima keragi bor? Oyim bilib qolsalar, xafa qiladilar.

Hakim. Toʻgʻri, sira iloji yoʻq. Oyim eshikdan obisk qilib kiritadilar.

Maʼmur. Agar mana bu akalarimiz xoʻp desa olib kelishni ilojini qilamiz.

Oʻrinboy (Komilga). Bir shishagina olib kelaylik. Agar joning chiqib ketsayam. Faqat bir shisha.

Komil. Uf... xoʻp. Bu eng oxirgisi boʻlsin.

Maʼmur. Iye, shuncha odamga bir shisha nima boʻladi? Yana tagʻin ikki kun-a. (Asqarga). Siz ham bir shishaga rozi boʻling. Bir shisha, xolos.

Asqar. Voy-boʻ, e, xoʻp-ey.

Maʼmur. Ana, ikki shisha boʻldi. Endi olib kelishni yoʻlini qilish kerak. Aka, qari bilganni pari bilmas deyishadi. Siz yuz gramm maslahat bering.

Mahkam. Oʻrinboy aka, sizni qorningiz bot-bot ogʻrib turadi. Ishdan qaytayotganingizda yoʻlda grelkaga bir shishani solib qorningizga bosingizu voy-voylab kiring, bu bir. Oʻzimiz suyak uyga olib kirib yotqizib qoʻyamiz, bu ikki.

Oʻrinboy. Ha, uka, bu masalada sen akademiksana. Lekin grelkani qayerdan olaman?

Maʼmur. Oʻzim topib beraman. Oʻrdadagi apteka oldida uchrashamiz. Bittasi boʻldi, endi ikkinchisini qanday qilib olib kelamiz, yana oʻylang.

Mahkam. Hakim, sen doktorsan. Bir shisha aroqni olib, qogʻozini koʻchirib tashla-da, lotincha bir balo deb yozib yopishtirib qoʻy. Manavi sumkangda kelsa oyim bilmaydilar. Koʻrsalar ham dori deb oʻylaydilar.

Oʻrinboy. Bu masalada ustasi farangsan-da.

Ma'mur. Obbo siz-ey. Doim shunaqa suv qo'shilmagan gaplarni topasiz.

Mahkam. Ha, endi, akasi... Ko'pni ko'rganmiz-da. Zarur bo'lgan paytda xotiniga chap berib, arokdan klizma qilganlarni ham ko'rganmiz.

Ma'mur. Shunisi yaxshi ekan. Zakuska kerak emas.

Kelinlar. Biz tayyor.

O'g'illar. Qani ketdik.

Oldinma-ketin chiqib ketishadi.

Farmon (ichkaridan). Nega ko'nmas ekansan? Ko'nasan. Men seni o'g'ri bo'l deyayotganim yo'q. Shuncha kelinlarim senga o'xshagan odam. Hammasi aytganimni qiladi.

Nigora. Men ko'nmayman. Siz axir zamonamizdan ikki yuz yil orqada qolib ketgansiz-ku.

Farmon. E, menga artistlik qilma. (Sottiga.) Bu kelin osonlikcha bo'yin egadiganga o'xshamaydi. Qilt etgan tovushi, g'iring degan gapi menga yetib tursin. Tushundingmi?

Sotti. Xo'p bo'ladi, oyijon. Ko'zim durbin, kulog'im mikrafon. (O'pishayotgan Nigora bilan To'xtani ko'rib qoladi). Voy sharmandalar, kuppa-kunduzi-ya. Voy ersiramay o'lgur-ey.

Farmon. Nima balo deb javrayapsan?

Sotti. Bu yoqqa qarang, bu yoqqa!

Farmon (ularni ko'rib yuzini to'sadi). Hayo degan narsa yo'q bu benomuslarda. Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib bir marta ham kunduzi o'pmagandi. Bolalar uxlagandan keyin chiroqni o'chirib qo'yib, keyin o'pardilar.

Sotti. Hozirgilar unaqa emas. Duch kelgan joyda o'pishaveradi.

Farmon. Mening uyimda bunaqasi ketmaydi. Ko'rsatib qo'yaman.

Nigora bilan To'xtani quvib ketadi.

Parda tushadi.

Usta Boqi. Kampir hozir dazmoldek qizib turibdi. Yaqiniga borib bo'lmaydi. Yaxshisi kampir hovridan tushguncha jindekkina o'z holiga qo'yaylik.

Chiroq o'chadi.

IKKINCHI PARDA

Sahna oldidagi voqea.

Usta Boqi. Tamom. Kampirning zakazidan qutuldim. Sal kam bir qop eski-tuski. Kampiri tushmagur to mana men qoqqan nag'al qolguncha yamataveradi. (Devordagi mixga ilingan

kitobchani olib, tizzasiga qo'yadi.) Endi preyskurant bo'yicha qilingan ishlarga baho qo'yamiz. Demak, hisob-kitob. Sakson tiyin, oltmish tiyin. Bir so'm sakson, bir so'm o'n, yetmish...

Zamonaviy kalta yubka kiygan **Nigora** kiradi. **Usta Boqi** unga hayron qarab turadi.

Marshal kampir uni qandoq qilib shu ahvolda ko'chaga chiqazdi ekan-a?

Nigora. Usta amaki, oyim hali kelganlari yo'qmi?

Usta Boqi. Marshal ertalab chiqib ketganicha hali qaytgani yo'q.

Nigora. Xayriyat-e. Ko'chaga chiqqanimni ayamga aytib qo'yamaysizmi?

Usta Boqi. Xotirjam bo'laver, qizim, Usta amaking xoinlik qilmaydi.

Nigora. Rahmat sizga. (Sumkasidan bir gazeta olib unga uzatadi). To'rtinchi sahifasidagi felʼbetonni yaxshilab o'qib oling. Oyim kelganda o'qib berasiz.

Nigora yugurib parda orqasiga kirib ketadi.

Usta Boqi. Nega? O, bechora bola. Bu kampir hali seni ne ko'ylarga solarkin? (Gazetani o'qiydi). «Keyingi paytlarda... (Qadam tovushlarini eshitib orqassha qaraydi).

Oldinda **Farmon bibi**, orqasida boshiga katta tugun ko'targan Sottixon kiradi.

Farmon. Tinchgina o'tiribsanmi, Boqi?

Usta Boqi. Tinchlik. Chegarada hech qanday favqulodda hodisa ro'y bergani yo'q.

Farmon. Biznikiga hech kim kelgani yo'qmi?

Usta Boqi. Yo'g'-e.

Farmon. Hech kim chiqqani hammi? Bizning zakaz bo'ldimi?

Usta Boqi. Bo'ldi, gatop.

Kampir qopdagi remont qilingan poyafzallarni ko'zdan kschirib, tagidagi narxlarga norozi qaraydi.

Farmon. Jami qancha bo'pti?

Usta Boqi. O'n sakkiz so'm.

Farmon. Bu ustaxona hukumatnikimi, o'zingiznikimi?

Usta Boqi. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha-shahar boshqarmasining filiali. Tushundingizmi?

Farmon. Xo'p anoyi mijoz topibsan-da, a? Bekor aytibsan. (Uning oldiga to'rtta bir so'mlik tashlaydi.) Shu bo'ladi.

Usta Boqi. Qolganini yonimdan to'laymanmi? Cho'zib qo'ying, onajon. Bu hukumatning puli. Tiyniga hiyonat qilib bo'lmaydi. (**Farmon** yana besh so'm tashlaydi.)

Farmon. Shu yetadi. Qani, Sottixon, o'rgilay ko'taring.

Usta Boqi. Hoy, hazillashmang.

Farmon. Ko'p xira bo'lma. (Uni turtib chiqib ketadi.)

Usta Boqi. Xayriyat-e, bu gal hisob-kitob to'ppa-to'g'ri bo'ldi. Yarmini berishini bilaman-da, shuning uchun ikki barobar qilib aytgandim. Agar to'qqiz so'm desam albatta to'rt yarim so'm berardi. Bu kampir millioner. Bugun oila a'zolari maosh oladigan kun. Ko'raylik-chi, nima bo'larkin? Hoy, kim bor? Chegarani och!

Yana o'sha hovli. Kech payti, **Nigora** chiqadi. Uning egnida ertalab kampir kiydirib qo'ygan uzun ko'ylak. Etagi yerga sudralib kelyapti.

Farmon. Ha, ko'nmas ekansan, muloyim bo'lib qopsan-ku. (Nigora unga yaqin kelgach). Qalay, qizim, tinch o'tiribsanmi? Men yo'g'imda hech kim so'ramadimi? Telefon ham qilmadimi?

Nigora. Hech kim kelgani yo'q.

Farmon. Hoy Sotti, kirim-chiqim daftarlaringni olib chiq!

Sotti (stolcha ko'tarib chitsadi. Unda schyot va bir necha qalin daftarlar bor). Mana, tayyorman, oyijon.

Farmon. Boshladik.

Farmon bibi kelini Sotti bilan hisob-kitob qilish uchun tayyor o'tirishipti. O'g'li Asqar bilan kelini Lutfinisa o'z uylari tomon o'ta boshlaydilar.

Farmon. Qayoqqa? Maoshni tashlab ketinglar. (Sottiga). Sottinisa, «Kirim daftari»ni oching.

Sotti. Hammasi tayyor. Boshladik.

Asqar. Buni qarang-a, sal bo'lmasa esimdan chiqay deпти. Assalomu alaykum, hozir-hozir.

Farmon. Bo'la qol, polkovnik, pul olyapsanmi yo qo'ltig'ingni qashlayapsanmi?

Asqar. Mana, mana, oyijon.

Farmon (pulni olib erinmay sanaydi. Cho'tga tosh tashlaydi). Yozib qo'ying, Sottinisa. Qani, beriroq kel, polkovnik. Engash: engash deyapman. (Asqarning qo'yin cho'ntagiga qo'l titsib ikkita o'n so'mlik oladi.) Bu nima?

Asqar. Iya, qolib ketibdi-ku. Buni qarang-a.

Farmon. Bo'ldi, ketaver, polkovnik. Sottinisa, manavu yigirmani ham yoz!

Lutfi. Mana, oyijon.

Farmon (pulni sanab cho't tashlaydi). Cho'g'i o'lgur pas-ku. Besh so'mi qani? Sumkangni qara!

Lutfi. Mana, oyijon, o'zingiz bergan 50 tiyin qoldi. E-ha, smena injenerimizning tug'ilgan kuniga kollektiv sovg'a olmoqchi. Mendan ham besh so'm ushlab qolishdi.

Farmon. Tug'ilmay o'lsin, tug'ilmaygina o'lsin. Manavuni, 20 so'mni qizingga jo'nat. Moskva degan shaharda o'qisa-yu, holidan xabar olmasalaring. Avji imtihon paytida bolaginam birovga zor bo'lib qolmasin. Bilib qo'y, qiz bolaning zoriqishi yomon yo'lga yurishi. Pochtadan jo'natib kvitansiyasini o'zimga opkelib ko'rsatasan.

Lutfi. Rahmat oyijon.

Farmon. Shoshma. O'tgan oy 25 so'm jo'natganman. Mana yana 10 so'm. O'ttiz so'm bo'ldi. Sottiniso, «chiqim daftari»ga 30 so'm xarjni ham yozib qo'ying. O'zingga nima kerak?

Lutfi. O'g'lingizga bitta kastyum olsak.

Farmon. Hukumat melisalarga tekinga yaltiroq tugmali kastyum-shim beradi. Boshqa gaping yo'qmi?

Lutfi. Axir to'y-hashamlarga militsiya formasida boradilarmi?

Farmon. Nnma, borib bo'lmaydimi? Or qiladimi? Kimsan polkovnik. Uchraganki militsiya zoti bo'lsa, hammasi yog'ochdek tik kotib, chestъ beradi. O'zingga nima kerak?

Lutfi. Hech narsa kerakmas.

Sotti. Sleduyushiy.

Mahkam bilan Bo'ston kiradi. Ular kampirga salom berib o'z uylari tomon keta boshladilar. Kampir ularni to'xtashga undab imo qiladi. Ikkovlari nima gapligini darrov payqab shoshib cho'ntak kavlay boshlaydilar.

Farmon. Juftakni urib qochib qolmoqchimidilaring?

Mahkam. Oz bo'lmasa esdan chiqay degan ekan-da. Hozir, hozir boplaymiz.

Farmon. Hammang ham shunaqasanlar. Maosh olganda eslaring kirdi-chiqdi bo'lib qoladi.

Mahkam (yonidan hamyonini olib ichidagi pullarni, hatto tanga-chaqalarini ham onasining oldidagi dasturxonga to'kadi). Bo'ldimi? Qutuldimmi?

Farmon. Yo'q, hali bo'lgani yo'q. Nega oqsayapsan? Oyog'ing og'riyaptimi? Qani, o'sha og'rigan oyog'ingni tuflisini yechgin-chi.

Mahkam. Iye, iye, qo'ying-e.

Farmon. Yech deyapman.

Mahkam. Oyi, qiziqmisiz? Kelinlarim oldida mulzam qilmang.

Farmon. Gapni aylantirma, yech.

Mahkam. Xo‘p bo‘ladi, mana.

Farmon. Yo‘q, o‘ng oyog‘ingnikini yech.

Mahkam. Xo‘p.

Farmon. Nima, o‘ng bilan chapni farqiga bormay qoldingmi? (Mahkam o‘ng oyog‘idan tuflini yechadi. Kampir tuflini ichiga qo‘lini tiqib 25 so‘mlikni topadi.) Bu nima?

Mahkam (o‘zini go‘llikka solib). Iya, qiziq bo‘ldi-ku? Yo tavba! Buni bu yoqqa kim tiqib qo‘yipti? Yo tavba! Men buxgalterman-a.

Farmon. Men pulni hididan bilaman. Bilib qo‘y, pulni yutvorsang ham topaman. Ko‘zlarim rengen bo‘lib ketgan. Bor, ketaver. (Mahkam asta keta boshlaydi.) Sotti, 25 so‘mni ham yoz!

Bo‘ston (sumkasidan pul olib uzatadi). Mana, shu desangiz, oyijon.

Farmon. Shu desangiz demay gapir. Hammasi shumi?

Bo‘ston. Oyijon.

Sotti kampirning qulog‘iga shivirlaydi.

Farmon. Nega ko‘p?

Bo‘ston. Yana aliment yuboriptilar. Ammo bu pulga, shu desangiz... bolamning o‘ziga velosiped olib bersam degandim.

Farmon. Sotti, pulni menga ber. Ellik so‘m ekan-a. Pochtadan o‘ziga qaytarib yubor. Men bunaqa puldan hazar qilaman. Bolani o‘zim boqqanman. Bu yog‘iga ham qurbim keladi. Velosipedni o‘zim olib beraman. (Pulni Bo‘stonga beradi.) Pochtadan jo‘natib kvitansiyasini o‘zimga ko‘rsatasan. (Sottiga). O‘sha eski eri o‘lgurning ishxonasiga mening nomimdan xat yozib ber. Ikkinchi pul yuborma, deb yoz. Yuborsa partkomga yozib sharmandasini chiqazaman. O‘zingga nima kerak?

Bo‘ston. Shu desangiz...

Farmon. Shu desangiz demay gapir!

Bo‘ston. Xo‘p bo‘ladi, oyijon. Shu desangiz... ishxonamiz yonidagi do‘konga yaponcha jemper kepti. Shundan bittagina olsam. Shu desangiz... iltimos, o‘shandan bittasini olib bering. Jon oyijon, iltimos.

Farmon. Tavba, yaponchasini kiygilari kepti. O‘zimizniki teshib chiqadimi? Bozorda ivirsib yuradigan qayoqdagi qalang‘i-qasang‘i xotinlarning egnida yaponcha jemper. O‘shalarning tengi bo‘ldingmi? Odamlarga hayronman, xo‘rozqandni ham chet elniki bo‘lsa yalayman, deydi. Jempering hali yap-yangi, Sottinisa, sen mashinadan benzin quyib, jemperini yuvib ber. Besh-o‘n

kun hidi kelsa ham o'zi o'lgur top-toza bo'ladi.

Bo'ston. Shu desangiz... xo'p bo'ladi, xo'p...

Farmon. O'taver... bor!

Sotti. Voy, sleduyushiy.

Muhayyo pildirab uyi tomon keta boshlaydi.

Farmon. Hoy, hoy, g'ildirak. Qayokqa?

Muhayyo eshitmagan bo'lib unga qaramaydi.

Farmon. Hoy g'ildirak, hoy mul'tfil'm! Sizga aytyapman. Quloqni tom bosganmi?

Muhayyo (noiloj to'xtaydi). Nima deysiz, oyijon?

Farmon. Bu yoqqa kelng, koqindiq. Bo'ylaringizdan o'rgilay, yaqinroq keling. Karmonni oching, girgitton. Nima bo'lsa hammasini soching, qoqindiq.

Muhayyo (sumkasini uning oldiga qo'yadi). Mana, sumkaniyam ola qoling.

Farmon (ichidagi pullarni olib, sumkaning o'zini surib qo'yadi). Bu yog'i o'zingizga buyursin. Sizga nima kerak, o'rgilay?

Muhayyo. Haligi... voy... orqa tomonidan tugma qadaydigan narsadan...

Farmon. Nima balo ekan? (Sotti **Farmon bibining** qulog'iga shivirlaydi.)

Sotti. O'lsin, lefchik-da!

Farmon. Yoz. Otini aytmay, narxini yozsang, o'zim tushunaman. Bo'ldimi?

Muhayyo. Importniysidan bo'lsa.

Farmon. Voy, importniysi kerakmi? Chiti ham bo'laveradi. Teshib chiqmaydi.

Ko'chadan **O'rinboy** voy-voylab kiradi.

Farmon. Ha, nima balo bo'ldi?

O'rinboy. Qornim, qornim burab og'riyapti.

Farmon. Voy, men o'lmasam. Biron dori-pori qildingmi?

O'rinboy (qorniga bosgan grelkani ko'rsatib.) Hozir o'tib ketadi. Yo'lda aptekadan grelka oldimu choyxonadan qaynoq suv quydirib qornimga bosib kelyapman.

Farmon. Sovib qolgandir. Menga ber, to'kib tashlab qaynoq suv quydirib beray.

O‘rinboy. Judayam kaynog‘i bo‘lmaydi. Hozir rosa tobiga kelgan payti. Menga tegmanglar.

Farmon. Yana o‘zing bilasan. O‘zingdan o‘tganini o‘zing bilasan, bolam.

O‘rinboy. Oyi, oyi, pulimni olinglar. Iltimos, pulni olinglar.

Pulni berib, inqillaganicha uyiga kirib ketadi.

Farmon. Sottiniso, buni ham yozing. Bolam bechora shu qorin og‘rng‘idan sira qutulmadi-da. Yana pul ketqazib, grelka sotib olipti-ya. Uyga kelganda-ku, butilkaga issiq suv quyib berardik. (Ma‘murga qarab.) Sen nega tirjayasan? Bor, akangga qara, yonida o‘tir!

Ma‘mur. Hozir, oyijon.

Farmon. O‘rgilay, Sottinso, «kirim daftari»ni yoping. Endi «chiqim daftari»ni oching.

Sotti. Mana, tayyorman, oyi. Iye, sleduyushiy.

Bashorat. Mana, oyijon.

Farmon (Bashoratga). Kam-ko‘stingni ayt. Nima kerak?

Bashorat. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, degandek...

Farmon (gapini bo‘lib). Maqol qo‘shmay gapir. Maqol ham o‘lsin, bo‘lar-bo‘lmasga suqulmay.

Bashorat. Maqol so‘z ko‘rki, o‘zingizdan qolar gap yo‘q. Do‘st boshga, dushman oyoqqa qaraydi, degandek... Tuflimning rangi o‘chib, tumshug‘i yalpayib ketibdi.

Farmon. Usta **Boqi** o‘lgurga to‘g‘rilatib bersam bo‘lmaydimi?

Bashorat. Eskini yamasang esing ketadi, degandek... Yetti marta tagiga charm qoqib bergan.

Farmon (Sottiga). Yoz. Tufli deb yoz. Yana nima kerak?

Bashorat. Yegan og‘iz uyalar, «Qudachilik — ming yilchilik», o‘zingiz bilasiz, bittayu-bitta qizim. Ko‘zimning oqu qorasi, haligi qudalarimni bir chaqirsam degandim.

Farmon. Quda, quda. Qudalaringni tinch qo‘y. Bunaqada boshingga chiqarib yuborasan. Ular xo‘p ziyofatimizni yeyishgan. Sarpolarni to‘qqiz-to‘qqiz qilib kiyishgan. Qiz uzatdingmi, endi jim o‘tir... Bo‘ldi, ketaver.

Bashorat. «Yuzga aytganni zahri yo‘q», «Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim», qo‘ying, oyi. Ziqnaligingiz jonimga tegdi. Ro‘zg‘orimni bo‘lak qilib bering yo meni javobimni bering.

Farmon. Nima?

Bashorat. Ketaman.

Farmon. Qayoqqa?

Bashorat. Oyimnikiga.

Farmon. Yoshing ellikdan oshib qolgan bo'lsa, oying necha yoshdaligini o'ziam bilmasa. Senga ko'zi uchib turgandir. Borsang tanirmikan?

Bashorat. Nega tanimas ekanlar?

Farmon. Ko'zi ko'rmay qolganiga o'n yetti yil bo'lgan.

Bashorat. O'zimni ko'rmasalar, ovozimdan taniydilar.

Farmon. Qulog'ini tom bosib qolganiga yigirma yilcha bo'lib qolgan. Qulog'ini ostida zambarak otsang ham eti seskanmaydi.

Bashorat. Oyim ko'rmasalar ham, ovozimni eshitmasalar ham hidimdan biladilar.

Farmon. Senda hid qoptimi?

Bashorat. «Ichingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga» — yaxshimanmi, yomonmanmi — oyimni farzandiman. Oyim mendan tonmaydilar. «Ko'ng'iz bolasini oppog'im deyar ekan, tipratikon yumshog'im deyar ekan», «Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga».

Farmon. «Ko'p gap eshakka yuk».

Sotti. Sleduyushiy.

Hakim kiradi.

Farmon. Yaxshi kelding, bolam. Akangga dori-pori qilib ber.

Hakim akasining uyi tomon yuradi.

To'xta. Avval men bilan raschyot qilib ket. Xotining qani?

Xakim. Mana, hu ana...

Farmon. Bo'pti, ketaver.

Mehri kiradi, pulni beradi.

Sotti. Sleduyushiy.

Farmon (Mehriga). Senga nima kerak?

Mehri. Har bir meditsina personali akademik Ivan Pavlov nazariyasiga binoan, shaxsiy gigiyenani o'ziga shartli refleks qilib olishi kerak.

Farmon. Gapni g'ijimlamay gapir. Muddaongni ayt.

Mehri. Meditsina hamshiralari manikyur qilib yurishlari shart...

Farmon. Tirnoq bo'yaydiganmi? Xina qo'ya qolsang bo'lmaydimi?

Mehri. Xina, bu xina akademik Ivan Pavlov hayitda...

Farmon (Sottiga). Xinani hayitda qo'yarkan. Xo'p, mayli, harna bo'lsa ham do'xtir degan oti bor. Kimsan **Farmon bibining** kelini, degan oti bor. Necha pul turadi?

Sotti. Yetti so'm oltmish tiyin.

Farmon. Yetti so'm yoz. Oltmish tiyini o'zing topasan. Oltita ovsiningdan 10 tiyindan olsang, oltmish tiyin bo'ladi. Ular ham foydalanishadi. Bilib qo'y, bptta o'zingga emas. Bo'ldi, ketaver.

O'g'illar u yoqdan bu yoqqa zakuska ko'tarib o'ta boshlaydilar.

Nima balo. Bu yoqqa serqatnov bo'lib qoldilaring?

Asqar. Akamdan xabar olyapmiz.

Farmon. Akangni tinch qo'yinglar. Kasal odamni notinch qilmanglar. Birpas joni orom olsun. Xo'sh, (Nigoraga.) bunga hech narsa kerakmas. Kelinlik sarpolari yap-yangi turipti. (Sottiga.) O'zingga nima kerak? Senga nima ham kerak bo'lardi. Hamma vaqt uydasan. Tamom, daftarni yop.

Komil kirib, indamay pul berib chiqib ketadi.

Sotti. Shu o'g'lingiz juda boshqacha-da. O'zi pulini olib kelib beradi-ya.

Farmon. Ha, nimasini aytasan? Qani endi, elektrdan, gazdan, telefondan, vodoprovoddan qancha qarzimiz bor. Opchiq qog'ozini.

Sotti. Hisoblab qo'yanman. Hammasi 43 so'm.

Farmon. 43 so'm? Voy-bo'... Hoy, bunaqada tilladan tog'ing bo'lsa ham, yemirilib ketadi-ku. Bitta chiroqni yoqqanda, bittasini o'chirish kerak. Schyotchik o'lgur g'ir-g'ir qilib pulni so'rib ketaveradi. Bo'ldingmi, Sotti? Hammasi necha pul bo'pti?

Sotti. Bo'ldim. 925 so'mu 74 tiyin.

Farmon. Bo'pti, bor endi, uydagilarni opchiq. (Sotti pijamalarni opchiqadi.) Mulla akalaringni chaqir.

Sotti. Mulla akalaru!..

O'g'illar uylaridan chiqishadi. Sotti o'g'illarga bir xil pijamalarni tarqata boshlaydi.

Farmon. Uyda kiyishga. O'rinboyginam, tuzuk bo'lib qoldingmi?

O'rinboy. Oyijon, bu modadan qolgan-ku. Iye, inkubatordan chiqqanday bo'lib ketdik-ku.

Hakim. Bol'nitsa desak ham...

Farmon. Ko‘p vaqillamalaring. Qani, uyingga bor hammang.

O‘g‘illar. Rahmat, oyijon.

Ketishadi.

Farmon. Kelinlaru... Chiq hammang.

Kelinlar chiqib kelishadi. Sotti ularga xam bir xil xalat tarqatadi.

Farmon. Kir qilmay, hadeganda kir mashinasiga solavermasdan kiyinglar. Kiypm deganni dazmol to‘zitadi. Hadeb dazmol bosavermanglar. Xo‘pmi? Muborak bo‘lsin.

Kelinlar. Rahmat, oyijon.

Farmon. Qani, uylaringga boringlar. (Ketishadi.) Sottiniso, qani «kirim daftari»ni yopib, «chiqim daftari»ni oching-chi.

Sotti. Xo‘p.

Bir qo‘lida «VEF» radiosi, bir qo‘lida gazeta bilan **Usta Boqi** kiradi. Radioda manqa ashula g‘irillab eshitilib turipti. Derazadan Nigora ularga qarab turadi.

Farmon. Tag‘in qanaqa shum xabar topib kelding? Tinchlikmi?

Usta Boqi. Endi shunaqa bo‘p qopti. Xafa bo‘lmaysiz-da.

Farmon. Nima bo‘pti?

Usta Boqi. Gazetada jindak turtib o‘tishihti.

Farmon. Nima bo‘pti?

Usta Boqi. (gazetani ko‘rsatib) Jindek turtib...

Farmon. Kimni?

Usta Boqi. Siznp.

Farmon. Meni? O‘qi, o‘qi-chi!

Usta Boqi. (o‘qiydi). «Keyingi paytlarda qaynonalar bilan kelinlar o‘rtasida jiddiy konfliktlar sodir bo‘lmoqda...»

Farmon. Sekinroq o‘qisang-chi. Kar emasman, eshitaman.

Usta Boqi. «O‘tmish sarqiti bo‘lgan bu yaramas odat xanuzgacha baxtiyor oilalarimizga zahar solib keladi».

Farmon. Turgan joyidan o‘qi.

Usta Boqi. «Toshkentlik qaynonalar...» Mana eshitdingpzi? «Toshkentlik qaynonalar, Hojinisaxon, Oyshaxon, Sultonxon aya va boshqalar tomonidan...» Eshitdingizmi? Va boshqalar tomonidan... kelinlarga boy-feodallarcha muomala qilinayotganini biz alohida ta'kidlab o'tamiz. Ushbu felʼeton yuzasidan o'z fikr va mulohazalaringizni yozib yuborishingizni so'raymiz». Tamom.

Farmon. Meni otim chiqmadi-ku? Meni otim yo'q. Meni otim yo'q.

Usta Boqi. Chiqdi-ku.

Farmon. Qani?

Usta Boqi. «...va boshqalar» degani siz deganida.

Farmon (jahll bilan sapchib o'rnidan turib ketadi). Seni bu yoqqa kim chaqirdi? Xotim-xalaj bor uyga indamay bostirib kiraverasanmi?

Usta Boqi. Ko'p o'tdag'aylamang. Men sizni ogohlantirgani kelgandim. Yaxshilik qilmoqchi edim. Spz esa, yaxshilikni bilmadingiz. Gazetada «ushbu felʼeton yuzasidan o'z fikr va mulohazalaringizni yozib yuborishingizni so'raymiz» deyilgan. Men ham fikr va mulohazalarimni yozib yuborsam, sizniyam familiyaningizni felʼetonga aniq yoziladi.

Chiqib ketadi.

Farmon. Hoy, Boqijon, to'xta! Men tushunmapman. Kelinim somsa yopyapti, issiqqina ikkitasini yeb ket. Choy ham tayyor. Boqi, to'xta. (Boqi quloq solmay ketgach.) Voy, endi nima qildim? Bu meni gazetaga felʼeton qildirib, sharmanda qilmasa go'rga edi-ya. (Eshik taqillaydi.) Qara, Sotti, kim kelyapti?

Sotti chiqib ketadi. Bir ozdan keyin bo'yniga magnitafon osgan ra'dioboxni boshlab kiradi.

Muxbir. (indamay atrofni aylanib, o'ziga kerakli ob'ektni qidira boshlaydi.) Salom, o'rtoq Boboyeva!

Farmon. (ogohlantirib). Meni o'g'lim melisa.

Muxbir. A? Yaxshi.

Sotti. Meni erim institutda domla.

Muxbir ob'ekt qidirishda davom etadi.

Farmon (xavotirlanib). Hoy, kim bu? Nega so'ramasdan eshikni ochasan?

Sotti. O'zingiz och dedingiz-ku.

Farmon. Men och desam, so'ramay-surishtirmay ochaverasanmi?

Sotti. Qayoqdan bilay?

Farmon. Hoy to‘xtasang-chi, kimsan o‘zing?

Sotti. «To‘xta» degandan keyin to‘xtang-da!

Muxbir. Menmi? Men rejissyorman, radiodan...

Farmon. Haligi qo‘lini mana bunaqa qiladiganmi?

Muxbir. Yo‘q, u dirijyor. Rejissyor bu... muxbir-da. Mana dokumentim.

Sotti. Ha-ha, rejissyor ekan.

Farmon. Rejissyor.

Sotti. Oyi, sizni ovozingizni yozgani kepti.

Farmon. A? Shundaymi? Men ashula aytishni bilmapman-ku.

Muxbir. Lutfi Boboyeva sizni kelingiz bo‘ladimi?

Farmon. Sotti. Lutfi o‘lgur meni sotipti.

Sotti. E, yo‘g‘-e, sotsa men bilardim. Sotgani yo‘q.

Farmon. Kelinim Lutfi Boboyevaning eri polkovnik. U meni eng yaxshi ko‘rgan kelinlarimdan biri.

Muxbir. Menga shu kishi haqida reportaj yozishni topshirishgan edi. «Yulduz» firmasiga borib sex boshliqlar bilan gaplashdim. Ularning fikrlarini ham yozib oldim. Endi uyda — oila sharoitida qanday yashayotganlarini yozib olmoqchi edim. Shuning uchun sizning kelinlaringiz to‘g‘risida aytadigan iliq gaplaringiz kerak. Siz aytib turasiz, men yozib olaman.

Sotti. Ana, oyi, ovozingizni radioga yozib ketar ekanlar.

Farmon. Iya, shundaymi? Hoy, Sottiniso, dasturxon yoz. Tezda choy-poy olib kel. Bo‘lmasa, o‘g‘lim, men ayta, siz yozing. Kelinginam biram mo‘min, biram qobil. Hamma ishni o‘zi qiladi. Pazandaligini aytaysizmi?

Muxbir. Hozir, oyijon. Bilasizmi, menga fon kerak edi-da.

Farmon. «Pon?» Yo‘q, bizda «pon» yo‘q.

Muxbir. Fon, fon.

Farmon. «Pon»ing nimasi?

Muxbir. Yaxshisi, kelinlaringizni chaqiring, oyijon.

Farmon. Kelinlarni nima qilasan? Ulardayam «pon» yo‘q.

Muxbir. Men ularnn fon qilaman.

Farmon. Kelinlaru... Chiq hammang. (Kelinlar chiqishadi.) Manavu mulla akalaring sizlarni «pon» kplarmish. Radiodan kepti. Rejissyor.

Kelinlar. «Pon?»

Muxbir. (kelinlarga yaqin borib). Bilasizlarmi, opajonlar, fon, bu...

Farmon. Hoy, rejissyor. Ularga yaqin bormay bu yoqdan turib gapir.

Muxbir. Xo‘p, xo‘p.

Farmon. O‘t bu yoqqa! Hoy, senga aytyapman!

Muxbir. Mana o‘tdim. Bilasizmi, opajonlar, menga fon kerak. Ya‘ni ish protsessining ovozi. Ha, aytganday, Lutfixon Boboyeva kim?

Lutfi. Men.

Muxbir. Siz qozon bilan kapkir olib chiqing.

Farmon. Nima balo, ovqat qilmoqchimisan?

Muxbir. Yo‘q, menga ovozi kerak.

Farmon. Bo‘pti, bor, olib chiq.

Lutfi qozon bilan kapkir olib chikadi.

Muxbir. Bu yoqqa olib keling! (Lutfiga.) Faraz qilingki, siz osh qilyapsiz. «Hoy ovsin, to‘g‘ralgan sabzini olib kelinglar», «xo‘p bo‘ladi». «Hoy ovsin, guruchni yuvib keling», deysiz yana. Sizlar esa «hozir» deysizlar. Xullas, siz, o‘rtoq Lutfi Boboyeva, judayam xushmuomalalik bilan kapkirni qozonga urib, ovqat qilyapsiz. Tushunarlimi? Men qo‘limni tushirishim bilan boshlaysiz. Xo‘sh, xo‘sh, endi tak... kechirasiz, kelinlaringiz orasida mayin kuladigani bormi?

Farmon. Ha, bor. Mana, Sotti juda mayin, juda chiroyli kuladi.

Muxbir. Siz bu tomonga o‘ting. Demak, sizga vazifa bunday. Hovlidagi kelinlarni xursandchiligini, sizning kulgingiz orqali berishimiz kerak. Shunday xushchaqchaq kulingki, radio tinglovchilarimiz, «ettita ovsinning ahilligini qaranglar», deb taajjublanib, havas qilsinlar. Kulgingiz tabiiy chiqsin, yurakdan berilib kuling. Xo‘sh, siz, onajon, «radio mikrofonni Farmon bibining muhtasham hovlisi o‘rtasiga o‘rnatilgan» deganimdan keyin, sizga mikrofonni tutaman. «Hi», deb gapimni tasdiqlaysiz. (Choy ho‘plab.) Demak, boshladik. To‘xtang, to‘xtang, men o‘zim qo‘limni tushirib ishora qilaman.

«Qadrli radio tinglovchilar, «Yulduz» firmasining ilg‘or tikuvchisi Lutfixon Boboyevaga bag‘ishlangan eshittirishimizni boshlaymiz. Biz radio tinglovchilardan qaynona bilan kelinlar ahil yashamayotganligi haqida ko‘plab xatlar olamiz. Shu xatlarga javoban biz mikrofonimizni yetti kelin bilan ahil yashayotgan oila — Farmon bibining muhtasham hovlisi o‘rtasiga o‘rnatganmiz». (Qo‘lini tushiradi.)

Farmon. Hi...

Muxbir. Yomon chiqsa, qirqib tashlaymiz. «Yetti qavat ko'rpacha ustida nuroniy bir onaxonimiz o'tiribdilar. Bu kishi yetti o'g'il, yetti kelinning onasi. Qirq bir nevaraning buvisi. Shu xursandchilikdan foydalanib, Boboyevalar bilan tanishtirib o'tmoqchiman. Lutfixon Boboyeva oilada pazanda, xushmuomala, qo'llari gul kelinlardan biri. Hozir Lutfixon aya hovlida osh qilyaptilar. (Qo'lini tushirib, imlaydi.) Mana, o'ng tomonimizda esa, oltita kelin bir-biri bilan inoq bo'lib ro'zg'or ishi bilan shug'ullanyapti. Biri sabzi to'g'ragan, biri hovliga suv sepgan, biri o'sma siqqan, biri erini shimiga dazmol bosgan, biri... Xullas, bu oilada qaynona bilan kelinlarni oralaridan qil o'tmaydi. Bu hovlida doim osoyishtalik hukm suradi. Mana, baxtiyor kelinlarning kulgisini bir eshiting-a. (Qo'li bilan imo qildi.)

Sotti yoqimsiz kuladi.

Muxbir. Stop! Stop! (Sotti to'xtamaydi.) Stop deyapman. (**Farmonga.**) Ayajon, to'xtating!

Farmon. Hoy, Sotti, to'xta, tag'in nima deysan?

Muxbir. Bo'lmadi. Be«fon» yozamiz.

Farmon. Yo'q, «fon» bilan yozmasang bo'lmaydi. «Fon» bilan yozasan. (Muhayyoga.) Hoy, sen ham kul!

Muxbir. Yo'q, yo'q, oyijon, kerakmas. Rejissyor sizmi, menmi?

Farmon. Bu uyda men rejissyor. (Mehriga.) Sen ham o't! Uchaloving yaxshilab kul. (Kelinlar zo'rma-zo'raki kuladilar. Muxbir «stop», «stop» deganicha ularga murojaat qiladi. Axiri ularni to'xtatadi.) Yana nima deysan?

Muxbir. Ne udovletvoryayet.

Farmon. Nima?

Muxbir. Qanoatlantirmaydi. «Be«fon» yozsak, zo'r chiqadi.

Farmon. Yaxshi chiqadimi ishqilib? Bo'pti, senlar boraver. Bu meni ovozimni yozarkan. Xo'sh, bo'lmasa, men gapiraman. Meni erim rahmatlikni Azim sher deyishardi. Hamma bedanaga ishqivoz bo'lsa, u kishi fonusga ishqiboz edilar. Doim fonus ko'tarib yurardilar.

Muxbir. To'xtang. Eringizni nima aloqasi bor? Lutfi Boboyeva haqida gapiring.

Farmon. Lutfi Boboyeva mening eng yaxshi ko'rgan kelinim bo'ladi. Unga o'zim tarbiya berganman. Mo'min, qobil bola. Uy ishlarini o'ynab-kulib bajaradi. Hurmatimni qiladi. Pazandaligini aytmay qo'ya qolay. Lag'monni sochning tolasidek ingichka cho'zadi, chuchvarani danakdek tugadi. Yopgan nonlari lolaga o'xshab qizaradi. Ham ishda, ha.m ro'zg'orda ilg'or bo'lgan sevikln kelinim bilan faxrlanaman. Men umuman er-xotinning ishiga aralashmayman. Olgan maoshi bilan ishim yo'q. Kam-ko'stiga yaratsin, deb o'zlariga qo'yib beraman.

Muxbir o'rnidan turib, narsalarini yig'ishtirib keta boshlaydi.

Farmon. Hoy, hoy, yozib bo‘ldingmi? Meni ovozimnp yozganingga radio pul to‘laydimi? (Muxbir boshini irg‘aydi). Meni familiyamni bnlasan-a? Boboyeva bo‘laman. Adresimni bilasan. Pulni albatta yubor. Men pensionerman. Esingdan chiqmasin.

Muxbir chiqib ketadi. Eshik taraqlab ochiladi, hovliqib **Usta Boqi** kiradi.

Farmon. Yana qaiqa shum xabar olib kelding?

Usta Boqi. Ma‘muringiz yana to‘yga boripti. Eshityapsizmi? Mahkam qassob to‘y qilyapti. Ma‘mur o‘rtaga tushib olib, rubob bilan rosa ashulani olyapti. Eshiting, quloq soling-a. Do‘ppisiga rosa pul qistirishipty. Ikki chakkasp pulga to‘lib ketdi.

Farmon (sapchib o‘rnidan turib ketadi. Sottiga buyuradi). Yur. (Usta Boqiga.) Sen ham yur!

Uchovlari shoshib chiqib ketishadi. Bir ozdan keyin ko‘cha tomondan ularning ovozi eshitaladi.

Sotti. Taksi!

Farmon. Hoy, taksi!

Usta Boqi. To‘xtadi. Yuguring!

Kelinlar ayvon oldiga yugurib chiqishadi. Nngora ularning ahvoliga kuladi.

Kelinlar. Chaqirdilarmi?

Nigora. Hech kpm chaqirgann yo‘q. (Yana kuladi.)

Bashorat. «Menam edim seningdek, sen ham bo‘darsan meningdek». Kulmang, o‘rgilay, kulmang.

Nigora. Kulayotganim yo‘q. Beri kelinglar. O‘tiringlar, opalar. Ahvolingizni ko‘rib, achinib ketyapman.

Bashorat. Kelganihpzga endi o‘n kuncha bo‘ldi. Hech gapdai xabaringiz yo‘q. Bu uydagi kelinlar tuxum bosib, jo‘ja ochishdan boshqa hamma ishni qilishadi.

Nigora. Nahotki, sizlar shunga chidab yuribsizlar?

Bashorat. Ilojimiz qancha? Qaynonangiz bir puflasa, shamol, to‘polon bo‘lib ketadi. Uxlaganda ham ikki ko‘zini ochib yotadi. Biror yoqqa ketsa, Sottixon degan shpionini postga tashlab ketadi.

Nigora. Shu ahvolga chidab yuraverasizlarmi? Bo‘lmasam bir xotirjam gaplashar ekanmiz-da. Masalan, men bu ahvolda, erksiz quldek yashashga aslo rozi emasman. Nahotki yetti kishi, bir kishiga bas kelolmaymiz. O‘ylab ko‘ring, mening tarafimga o‘tsangiz, hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib kurashsak, bu uydagi tartib-intizom albatta o‘zimiz xohlagancha bo‘ladi.

Eshik taraqlab ochiladi. **Farmon bibi Ma‘mur** ning qo‘lidan sudrab kiradi.

Farmon. Mana, ko‘ringlar bu tasqarani. Voy, sen kimga o‘xshading? Otang mo‘min, qobilgina odam edi. Sabr-qanoatli edi. Bitta akang buxgalter, bittasi tergovchi, bittasi polkovnik, bittasi

doktor, bittasi ekonomist, nimangga yetkazolmayapsan? Bizni el-yurt oldida sharmandamizni chiqarding-ku, yaramas. (Musht o'q talib kela boshlaydi. Asqar uning yo'lini to'sadi). Qoch, sen nari tur. O'ldiraman bu artistni.

Asqar. Yo'q, bu artist emas. Bu — artistlarga isnod keltirib yurgan otarchi. Urgan bilan bu yaramas otarchini tuzatib bo'lmaydi. Yaxshisi 15 sutkaga qamab qo'yish kerak.

Ma'mur. Ashula aytganni qamash kerak, degan qonun yo'q. Ashula aytganni qamashsa, bittayam ashulachi qolmas edi.

Komil. Hukumat qamamasa, o'zim yerto'laga qamab qo'yaman.

Ma'mur. Yerto'la zax, ovozim o'tirib qoladi.

Lutfi (tamosha zalini ko'rsatib). Oyi, qarang, shuncha odam qarab turibdi-ya!

Farmon (zalga qarab). Sharmanda bo'ldim. Uyga kiringlar! Bu yaramas bilan ichkarida gaplashaman. Darvozani bekit! Bekit! Bekit, deya pman!

Parda.

UCHINCHI PARDA

Parda oldidagi voqea.

Usta Boqi allaqanday qo'shiqni xirgoyi qilib tufli yamayapti. **Farmon bibi** choynak-pisla ko'tarib kiradi. U sal xomushroq.

Usta Boqi. Keling, general? (unga taburetkaga qo'yib beradi.) Tinch-omonmisiz? Kelinlar tinchmi? Nevaralardan xabar bormi? Sal xomushroq ko'rinasiz?

Farmon. So'rama, ustam. Tushlarim alag'da-chalag'da bo'lyapti. Otaginang har kuni tushimga kiradi.

Usta Boqi. Tushga nimalar kirmaydi, deysiz. Kecha mening ham tushimga Azim amakim kriptilar. Negadir xafaroq ko'rindilar. Gap so'rasam yuzlarini teskari o'girib oldilar.

Farmon. Iya, sening ham tushingga kirdilarmi? Bunda bir gap bor. Cholim bechoraga bu dunyodagi ishlardan birontasi ma'qul bo'lmay arvohi chirqillab qolganga o'xshaydi. Sizga nima bo'ldi, desam indamaydi. Hoy, sizga nima bo'ldi, desam yana indamaydi. Oxiri etagiga yopishib olganimdan keyin, aytadigan gapini aytdi.

Usta Boqi. Nima dedilar?

Farmon. Kelinlaringni nega qiynaysan? Ularni o'z holiga qo'y, deydi.

Usta Boqi. Iya, do'ppini olib qo'yib o'ylaydigan gap aytibdilar-ku.

Farmon (choy quyib ustaga uzatadi). Juda yuragim siqilib ketdi. Sen bilan birpas gaplashib, chigilimni yozay dedim. Har qalay sen cholimni qadrdoni eding. Ovozginasini eshitgansan.

Usta Boqi (choy ho‘plab). Agar Azim otam «kelinlaringni tinch qo‘y» degan bo‘lsalar, bunda bir gap bor. Menga qarang, qariganingizda shular bilan adi-badi aytishib sizga nima zarur. Keling, o‘z hollariga qo‘yvoring. Bilganlarini qilishsin.

Farmon. Shundoq deysan, Boqijon, bu lapashanglar ro‘zg‘or tutishni eplayolisharmidi. Axir yetti oila yettiga bo‘linib ketsa, bir-biridan mehr qochadi. Bir-biriga begona bo‘lib ketishadi.

Usta Boqi. Men sizga aytsam, General, yaqindagi tishlashadi, uzoqdagi kishnashadi, bildingizmi? Bir-birppp sog‘inib, qadr-qimmatli bo‘lishadi.

Farmon. Shundoq deysanu, Boqijon, bularning boshini bir qilgunimcha naq o‘lib bo‘lganman-a. Shuncha yil yiqqan-terganlarpmni sovurib yuborishadi.

Usta Boqi. Old kelinigingizning yetti bolasi bor. Kenjatoyingizdan boshqa hammasi bir uy bolaning ota-onasi. Ro‘zg‘orni shundog‘am eplashinki. (Shirin o‘y surib.) Bir tasavvur qilib ko‘ring. Yetti kelin yetti qozonda ovqat qildi. Siz ayvonda, u yonboshingizda, bu yonboshpngizda bolish. Bir chekkadan kelinlar ovqat opkelishadi. Biri chuchvara, biri manti, biri kabob, biri somsa, biri lag‘mon, biri palov, yana biri jo‘jxo‘rozning sho‘rvasini ko‘tarib keladi. Siz hammasini jindek-jindek tatib ko‘rib oxiri og‘zingizga yoqqanini olib qolasiz. Kelinlar ishdan kelganda sizga biri ro‘mol, biri ko‘ylak...biri paypoq, biri jersi pal‘to, biri kremplen ko‘ylak... Ochig‘ini aytsam, oqposhshoning onasi ham munaqa rohatni ko‘rmagan.

Farmon (U ham xayolga beralib). Oh-oh, shundoq bo‘lsa koshkiydi. Ro‘zg‘ori bo‘lak bo‘lgandan keyin mehri qochib, qayda ko‘rdim qora eshagim, deb qolasmikin.

Usta Boqi. Yo‘q, yo‘q, bolalaringiz bunaqa emas. Sizning tarbiyangizdan chnqqan bolalarning hammasida sifat belgisi bor.

Farmon. Bu gapni qo‘ya tur. Amaking tushimga har kirganda fonusimni ehtiyot qil, mendan qolgan bu meros fonusni to‘ng‘ichim O‘rinboyginamga ber, deyaveradi. Bu nima degani ekan?

Usta Boqi. Bunda katta gap bor. (Kuladi.) Og‘aginamni bitta sirlarini ochib qo‘ysam meni arvoh urasmikin?

Farmon. O‘zi nima edi-yu, arvohi nima bo‘ladi. Aytaver.

Usta Boqi. Otamning fonuslari sirli fonus edi. Menga ayting-chi, ota o‘sha fonuslarini biron marta yoqqanlarini ko‘rganmisiz?

Farmon. Yo‘g‘-e. Qirq yil birga umr ko‘rib biron marta fonus yoqqanini ko‘rmaganman. Ammo bir minut yonidan qo‘ymasdi. Kunduzlari ham fonus o‘lgurni ko‘tarib yurardi. Kechasi boshiga qo‘yib yotardi. Bir marta fonusiga kerosin kuyganimda, mendan so‘ramay nega yog‘ quyasan, deb rosa qiyomat qilgandi. Jahli chiqib fonus piligini sug‘urib tashlab, ichini chayqab boshqatdan yog‘ quydigani ko‘chaga chiqib ketgandi.

Usta Boqi. Ha, balli. Otam rahmatlik fonusning ichiga kerosin quymasdilar. Aroq quyardilar. Ko‘chalarda xoliroq burchaklarda to‘xtab fonus piligini miq-miq qilib so‘rardilar. Kechalari bosh ko‘tarib, bir-ikki pilik so‘rib qo‘yardilar.

Farmon. Voy, qurib ketsin. Nega og‘zingizdan qo‘lansa hid keladi, desam jigarim kasal derdi.

Gap bu yiqda ekan-da.

Usta Boqi. O'lganni orqasidan yomonlab bo'lmaydi. Tushga kirganning gapidan chiqib bo'lmaydi. Otam nima degan bo'lsalar shuni qiling. Kelinlarni ozod qiling, fonusni O'rinboyga bering. Shunda tushingizga kirmay qo'yadilar.

Farmon. Tirigida durustroq gap og'zidan chiqmagan cholimdan o'lganda chiqadimi? Hay, men ketay, kelinlardan xabar olay, men yo'g'imda sulaymon o'lib, devlar qutulgan bo'lmasin.

Usta Boqi. Har qalay arvoq arvoq-da. Kechalari bezovta qilmasin. Bir o'ylab ko'ring.

Farmon hardamxayol, parishon bir alpozda chiqib ketadi.

Usta Boqi. Kampirning yuragiga kutqu solib qo'ydim. Uyga kirib rosa o'ylaydi. Gapim tomir-tomirigacha bordi. Endi kenja kelinni pishitib qo'yish kerak. Sirayam bo'sh kelmasin. Kampir hozir ellik protsent yumshadi. Yana bir harakat qilsam shalvirab kelinlarining oyog'i tagiga tushadi. Qani, bir qaray-chi, yana jazavasi tutib qolmadimikin. Hoy, kim bor, chegarani ochinglar! Och!

Asta parda ochila boshlaydi.

Saxnada Sotti bilan **Farmon bibi.** Telefon jiringlaydi. Sotti telefonga yuguradi, trubkani olib gaplasha boshlaydi.

Farmon. Kim ekan bemahalda telefon qoqadigan?

Sotti. Katta qudangiz, «shu desangiz»ni onasi.

Farmon. (trubkani olib). Labbay? Voy qudaginamdan o'rgilay, eson-omon yuribsizmi? Ha, xudoga shukur. «Shu desangiz»ni kamroq gapiring, miyam achib ketdi. Oqtoshga borib keldim. Nevaralaringiz chopqillab yurishipti. Xo'p, o'rgilay, xo'p. «Shu desangiz» unaqa jim bo'lib ketmang. Xo'p, xo'p, albatta boraman. Qizingizga ham aytib qo'yaman. (Trubkani qo'yadi.) «Shu desangiz»ni kichkina singlisinn bir joyga fotiha qilishibdi. To'yga qarashib yubor demoqchi-da. Dardi bo'lmasa telefon qilarmidi? Hozir borib, qizini terisini kapron paypoqdek shilib olaman. Telefon qil deb, oyisiga o'zi aytgan. (Darvoza qo'ng'irog'i chalinadi.) Qara-chi, Sotti, kim kelibdi? (O'zi uyga kirib ketadi.)

Nihoyatda yasangan o'rta yashar bir **xotin** tugun ko'tarib kiradi.

Sotti. Kelsinlar.

Xotin. Farmon bibining uylari shumi?

Sotti. Ha, shu.

Xotin. Adashmagan ekanman. O'zlari bormilar?

Sotti. Hozir chaqiraman. Oyi, oyi, mehmon keldi.

Farmon. Kim ekan? (Chiqadi. Notanish xotinni ko'rib, hayron qarab qoladi.) Keling, o'rgilay. (U bilan ko'rishadi.) Sotti, dasturxon yoz!

Sotti ayvonga ko'rpacha solib, dasturxon yozadi. Xotin ikki tugunni ayvon labiga qo'yib o'tiradi. Xotin dasturxonga fотиha o'qiydi. Sotti samovar keltiradi. Hol-ahvol so'rashadi.

Farmon. Aybga buyurmaysizu, sizni tanimayroq turibman.

Xotin. Ehtimol tanimassiz, sizning ta'rifingizni ko'p eshitganman, ko'pdan beri bir duongizni olay deb, orzu qilardim.

Farmon. Qadamlaringizga hasanot. Xush kelibsiz.

Xotin. Meni ham o'g'il-qizlarim bor. Ular ham sizning bolalaringizga o'xshab, martabalikkina bo'lsa deb niyat qilganman. (Tugunni yechib, har xil sovg'a-salomlarni Farmon bibining oldiga qo'ya boshlaydi.)

Farmon. Nima qilyapsiz? Qo'ying, ayb bo'ladi.

Xotin. Voy nega ayb bo'lar ekan? Xudoga shukur, toparmon-tutarmon o'g'lim bor.

Farmon. O'g'lingiz nima ish qiladi?

Xotin. Bazaga mudir. Sizga nima kerak bo'lsa, menga ayting. Gilam kerakmi, garnitur kerakmi, paxtagulli choynak-piyola kerakmi, hammasi bor.

Farmon. Hech narsa kerakmas.

Xotin. Mabodo kerak bo'lib qolsa deyman-da.

Farmon (shubhalanib). Bu xotinning ichida bir dardi bor. Bashorat kelinim aytganday: «Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur». (Xotinga.) Ishqilib o'g'lingiz tinch-omon yuribdimi?

Xotin. Xo'jalik ishidagi odamda tinchlik bo'larmidi? O'zi yemay, yeganlarni ko'rolmaydiganlar ko'p.

Farmon (o'zicha). Endi daromadini boshladi. Qani, avjini ham eshitay-chi.

Xotin. Yaqinda qiz chiqardim. Shuni gap-so'z qilishibdi. O'g'limning ustidan u yoqqa yozishibdi, bu yoqqa yozishibdi, yashshamagurlar. Chaquvdan bo'lib, qamalib qoldi.

Farmon. Aybi yo'q bo'lsa, hukumat adolat qilib qo'yib yuboradi.

Xotin. Endi shundoq deysizu, onajon, harakat qilib qolgan yaxshi-da. Bir o'g'lingizning bojasi prokuror, bir o'g'lingizni tergovchi-militsiya deb eshitgan edim.

Farmon (ensasi qotib). Ha, shunaqaroq.

Xotin. Sizdek xotinning farzandi ona gapini oladi. Bir gaplashib shu ishni bosdi-bosdi qilib yuborsangiz, qanaqa bo'larkin? Qiyomatli opa-singil tutinib ketardik.

Farmon. Nimalar deyapsiz?

Xotin (o'zicha). Qiyomatli opa-singil bo'lib ketamiz, deganim yoqmadi. Puldan cho'z, deyolmay

turibdi. (Farmonbibiga) Oʻrtaga tushing. Har qancha xarj boʻlsa, mana men turibman. Oʻgʻlimni turmadan chiqazsalar hech narsamni ayamayman. Ochiqchasiga gapirganimga xafa boʻlmaysiz.

Farmon. E, gap bu yoqda deng. Agar shu ishingizni toʻgʻrilab bersak, qancha pul bermoqchisiz?

Xotin. Besh ming. (Choy hoʻplayotgan Sotti qalqib ketadi. Uni koʻrgan xotin, jonlanib.) Oʻgʻlim chiqqandan keyin, yana 10 ming beraman. (Bu gal Sotti qiyqirib yuboradi.)

Farmon (avval Sottiga bir xoʻmrayib qaraydi, keyin oʻzini goʻllikka solib). Oʻgʻillarim koʻnarmikan? Ularni oʻzlari bilan gaplashish kerak. Sotti, hoy Sotti. (Sottini turtib oʻziga keltiradi.) Bor, mulla akalaringni chaqir.

Xotin. Onasiz axir, oʻgʻillaringizni koʻndiring. Bir ogʻiz gapga 15 ming olsangiz yomonmi?

Farmon. Xoʻp, koʻndirishga harakat qilib koʻraman.

Ichkaridan oʻgʻillari chiqishadi.

Farmon. Mana shular mening oʻgʻillarim

Oʻgʻillar. Assalomu alaykum!

Farmon. Hammasi meni hurmat qilishadi. Hozir soʻrayman. Bolajonlarim!

Oʻgʻillar. (qoʻllarini koʻksiga qoʻyib). Labbay, oyijon?

Farmon. Bolalarim, sizlarga harom tomoq yedirganmanmi?

Oʻgʻillar. Nima deyapsiz, oyijon?

Farmon. Shoshmanglar, sizlarga oʻgʻirlik qilgin, deb oʻrgatganmanmi?

Oʻgʻillar (qatʻiy). Yoʻq.

Farmon. Meni bir gapimni ikki qilganmisizlar?

Oʻgʻillar. Yoʻq.

Farmon. Men oʻrtaga tushsam, pora olasizlarmi?

Asqar. Siz oʻrtaga tushmaysiz.

Farmon. Bordi-yu, oʻrtaga tushsam-chi?

Komil. Biz sizni izzat-hurmat qilamiz. Hamma aytgan gapingizni bajarganmiz. Ammo bu iltimosingizni oʻlsak ham bajarmaymiz.

Farmon. Bolajonlarim!

Oʻgʻillar. Labbay?

Farmon. Rahmat sizlarga! Rahmat. Endi eshitinglar. Manavi xotinning o'g'ri, muttaham o'g'lini qamoqdan chiqarishimiz kerak ekan. Buning evaziga bu xotin bizga 15 ming so'm berar ekan. 15 ming so'm-a...

Asqar (telefon trubkasini olib). Ruxsat eting, oyi...

Farmon. Qo'y, bolam, qo'y. Endi sizlarga ruxsat. Boringlar! (O'g'illari chiqib ketgach.) Endi, mehmon, bizni kechirasiz. Sizni iltimosingizni bajarolmaymiz. Boshqa iltimos bo'lganda mayli edi. Meni Bashorat kelinim aytganday: «Nima eksangiz, shuni o'rasiz». Endi boring. Sovg'angizni ham olib keting.

Xotin (og'ir ahvolda qolib). Meni kechiringlar...

Ketadi.

Farmon. Voy buni qara-ya. Eshikdan halimday muloyim bo'lib kirib kelishidan bir balosi bor-ov, deb o'ylovdim-a. Bu yer yutkur ispiqulon meni nima deb o'ylayapti o'zi? Men u o'ylagan xotinlardan emasman-a! Hoy, Sotti, bo'l tezroq. Kiyinib chiq. Qudamnikiga kech qolamiz.

Sotti. Hozir, oyijon, hozir.

Ichkaridan olti kelin chiqadi.

Nigora. Rozi bo'ladilar, ko'ndiramiz.

Lutfi. Hammamiz iltimos qilsak, albatta ko'nadilar.

Bashorat. «Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar».

Muhayyo. Bordi-yu, urishib bersalar-chi?

Mehri. E, ko'p injiqlik qilmang. Bo'lmasa, planimizni buzib qo'yasiz.

Kelinlar (Bo'stonga). Qo'rqmang, ayting, aytavering.

Bo'ston. Shu desangiz... oyijon... Men ham siz bilan borsam degandpm. Agar rozi bo'lsangiz, darrov kiyinib chiqardim. Shu desangiz...

Kelinlar. Xo'p deya qoling, oyijon... Axir singillarini to'ylari-ya... Iltimos sizdan...

Farmon. Senlar jim tur. (Bo'stonga.) Sizga nima bor, o'rgilay? Erga tegayotgan sizmi, singlingizmi? To'y maslahatinn sizsiz, o'zimiz pishitib kelamiz.

Bo'ston. Oyijon, shu desangiz... Men oyimning bosh bolasiman-a. Bormasam xafa bo'ladilar.

Farmon. Shu desangiz... bo'lmasa siz boring, men qolay. Bo'ldi, ko'p ming'irlayverma. Bormaysan, gap tamom!

Sotti. Tayyorman, oyijon. Kalitni bering.

Farmon (kalitni beradi). Uf, nima balo surtding? Sasib ketibsan-ku?

Sotti. Tugmasini bossa, povillab otiladigan atirdan sepaman deb, adashib pashsha o'ldiradigan «Aerozol» o'lgurni sepib yuboribman.

Farmon. Uf, nari tur-e! Mashinani oynasini ochib qo'y. Hoy kelinlar, men ustilaringdan qulflab ketaman. Erlaring daydib samovar-pamovarga chiqib ketmasin. Urishmay, talashmay o'tiringlar. Bugun otdix. Hech qayoqqa chiqmaysizlar.

Kelinlar. Mayli, oyijon, mayli. Mashina oynasini yopib o'tiring, bo'lmasa shamollab qolasiz.

— Yaxshi borib keling.

— Sottixon, qudaxolamga ayting, oyimga yaxna choy qilib bersinlar.

— Tinch o'tiramiz.

— Mashnnani sekinroq yurgizing.

Farmon (o'zicha). Yo tavba, bularga bir narsa bo'lganmi?

Chiqib ketadi.

Bo'ston. Erga tekkuncha qora yerga tegsam bo'lmasmidi?

Bashorat. Qo'ying, yig'lamang, o'zi shundog'am yuragimiz siqilib turibdi.

Muhayyo. Bir qorindan talashib tushgan singillari to'y bo'laman deb tursa-yu, borolmasalar-a. Bu qanday gap bo'ldi?

Nigora. Bu uy emas, turma.

Mehri. Kelinglar, bir hasratlashaylik.

Bashorat. Hasratga balo bormi? Hasrat qilaverib, qilaverib betimga ajin tushib ketgan. O'rta Osiyoning xaritasiga o'xshayman. «Oyni etak bilan yopib bo'larmidi», o'rgilay. Menga qarang, Nigora, ko'zg'olonni shu bugunoq boshlaymiz.

Nigora. Bo'pti, hoziroq boshlaymiz. Demak, birinchi vazifa eslaringizdami?

Kelinlar. Ha. Avval erkaklarni o'z tomonimizga og'dirib olamiz. Keyin ular bilan maslahatlashib ish tutamiz. Hozir hovlida «biz bu uydan ketamiz» deb bakiramiz. Tushunarlimi? Qani, boshladik.

Kelinlar. Biz bu uydan ketamiz...

Mehri, Muhayyo va Bo'ston joylaridan qimirlamay turadilar.

Nigora. Sizlarga nima bo'ldi?

Muhayyo. Qandoq bo'larkin-a?!

Mehri. Asab sistemamga ta'sir qilmasmikin?

Bashorat. E, lanj bo'lmay keting. Kemaga tushganning joni bir.

Muhayyo. Oyim bizni yeb qo‘ymasmikinlar?

Nigora. Qo‘rqmang, kurash qurbonsiz bo‘lmas. Boshladik.

Olti kelin bab-barobar, «bu uydan ketamiz!» deb qichkira boshlaydilar. **To‘xta** yugurib chiqadi.

To‘xta. Xoy, sizlarga nima bo‘ldi?

Nigora. Siz nari turing. Aralashmang!

Kelinlar. Bo‘ling, ovsin, chaqqon, chaqqon qimirlang.

— Mashnna chaqirdingizmi?

— Men tayyorman.

Kelinlar uylaridan yuklarini ko‘tarib chiqishadi. Ularning shovqinidan erlari hayron bo‘lib kirishadi.

O‘g‘illar. Ha?

Nigora. Biz bu uyda, bunaqa sharoitda yashayolmaymiz. Hammamiz ketamiz.

O‘g‘illar. Qayoqqa?

Kelinlar. Mikrorayonga.

Mehri. U yerdagi yangi uylar akademik Ivan Pavlov nazariyasiga mos. Hamma tomondan sanitariya qoidalariga rioya qilingan. Oshxonalarining devori oq chinnidan. Issiq suv bir yoqdan, sovuq suv bir yoqdan shildirab oqib turadi.

— Pollari parket.

— Xonalarini shamollatadigan ventilyatsiyasi bor.

— Vannaxonasi poshsholarning saroyiga o‘xshaydi.

— Kir yuvganda mag‘zava tortadigan kanalizatsiyasini aytmaysizmi?

Nigora. Ana shunaqa ajoyib uylarga ketamiz.

Ma‘mur. Bo‘pti. (Muhayyoga.) Avval ikkovimiz alohida gaplashib repetitsiya qilib olaylik.

Ikkovi chikib ketadi.

Hakim. Har bir meditsina personali diagnozni bemor oldida qo‘ymay, alohida xonada konsilium qiladi. Yuring.

Xotinini opkirib ketadi.

Asqar. Jonidan, siz mashhur tikuvchisiz. Kiyim deganni alohida xonada primerka qilinadi. Yuring, o‘sha yerda gaplaringizni bir primerka qilib olamiz.

Lutfi bilan chiqib ketadi.

Mahkam. Biz moliya xodimlari hisobdan adashib ketmaslik uchun alohida xonada hisob-kitob qilamiz. Yuring, qiladigan ishimizni cho‘tga solib ko‘ray.

Bo'ston ni opchiqib ketadi.

Komil. Bizning xotin hozir yo'q. Malikai Dilorom kelguncha manavu romanni oxirlatib qo'yaman. (Chiqib ketadi.)

O'rinboy. (Bashoratga). Siz bular ichida eng kattasisiz. Har bir gapni o'lchab gapirishingiz kerak. Uning ustiga atel'emodni eng zo'r bichiqchisisiz. Orqangizdan akademiklar, ministrlar, xalq artistlarining xotiplari ergashib yuradi. Har bir gapni andozaga solib gapirishingiz kerak. Yuring, gapingizni andozaga solamiz.

Ikkovi chiqib ketishadi.

To'xta. Endi npma bo'ladi?

Nigora. Bpttasi ham va'dasida turmadi-ya!

Kulis ortidan kelinlarning baqirgani, yig'isi eshitiladi. Hamma o'g'illar uylaridan dodlab chiqishadi.

Hakim. E, oyim bilan ochiqchasiga gaplashishimiz kerak. Bo'lmasa, xotinlarimizdan ajralib qolamiz.

Nigora. Mulla akalar, men oyimni juda yaxshi ko'rib qoldim. U kishi juda ajoyib odam ekanlar. Hech kim o'z aybini bilmaydi, deganlaridek, oyimlar o'z ayblarini o'zlari bilmayaptilar. Axir, o'zinglar o'ylab ko'ringlar. Mehmonga borolmasak, mehmon chaqirolmasak, xohlagan kiyimpimizni kiya olmasak, ko'nglimiz tusagan ovqatni pishirib yeya olmasak. Kinoteatrlarga borish u yoqda turspn, uyimizdagi televizorni faqat «Otalar so'zi, aqlning ko'zi» bo'lganidagina ko'rsak. Men bu uyga yangi kelgan odamman. Leknn ahvollaringni ko'rib bunaqa yashab bo'lmasliginp bilib turibman. Sizlarning beparvoliklaringiz g'ashimni keltiryapti.

Mahkam. Kenja kelinning ta'nalari to'ppa-to'g'ri, bu bir, yangi kelgan odam ahvolimiznn darrov biladi, bu ikki. O'zimiz sezmaymiz, o'rganib ketganmiz, bu uch. Uyat, uyat, bu to'rt.

Ma'mur. Biron jo'yali maslahat bering, ko'pni ko'rgan odamsiz, aka.

Mahkam. Men nima deyman, bu bir, mana, domla ganirsin, bojasi prokuror, zakon biladi, bu ikki.

Komil. Men bojam bilan oyimni yo'lga solish uchun dunyodagi jami yuridik qonunlarning hamma moddalarini qo'llab ko'rganmiz. Ish chiqmagan. Manavi tergovchi bir npma desin. Bunaqa ishlarning ko'pini hal qilgan.

Asqar. Biz onajonimizni juda yaxshi ko'ramiz. Keksa odam, dillari og'rimasin, deb qattiq gapirmaymiz. Uyimizning ahvolini qarang, kelin, bu uyni buzish mumkin emasmish. Oyimni tarbiyalash u yoqda tursin, hatto mana bu uyni buzib, o'rniga yangisini qurolmaymiz. Bu uyga hammamizning knndik qonimiz to'kilgan emish. Uyimizni devorlarida dadamiz rahmatlikning panjalarini izi qolganmish. Oyimizdan bekitgan pulga yangi uyni loyihasini chizdirib qo'yganmiz. Tayyor bo'lganiga bir hafta bo'ldi. Shu hakda oyim bilan ochiqchasiga gaplashmoqchi bo'lgandim, foydasi bo'lmadi. Endi o'zlaring bilganlaringni qilinglar.

Nigora. Sizlar hurmat qilamiz deb, qul bo‘lib yuribsizlar-ku. Asqar aka, bu militsiya polkovnigining gapi emas. Siz qanchalab jinoyatchilarni to‘g‘ri yo‘lga solib yuborgansiz. Oyimga nima bo‘pti? Tuzatish mumkin.

Asqar. Qo‘lingizdan kelsa, marhamat, tuzating.

Nigora. Menga qo‘yib bersanglar, ertagayoq oyimni boshqacha qilib qo‘yardim.

Hakim. Siz bu ishni qilsangiz yarashadi. Hali oyim bo‘yningizga minganlaricha yo‘q. Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo‘lib qolasiz.

Ma‘mur. E, bo‘lmagan gapni qo‘yinglar. Konkret gaplardan gapiringlar. Aka, aka, sizning kallangiz Gosplandek aniq ishlaydi. Bir ishlating. Mana bundoq qilib barmog‘ingizni peshonangizga tirab, bir o‘ylang. Jami suv qo‘shilmagan gaplar sizdan chiqadi.

Mahkam. Hammamiz bir mulohaza qilib olaylnk. Demak, oyim erkimizni qo‘limizdan olib qo‘yganlar. Demak, biz erkimizni qo‘lga olish uchun kurashishimiz kerak. Ana, endi maqsadimiz aniq bo‘ldi. Har sohani o‘z ministrligi bor. Oyimga o‘xshagan kampirlarning ministrligi qayerda? Yo‘q.

Hamma. To‘g‘ri, yo‘q.

Mahkam. To‘g‘ri, yo‘q. Demak, oynmlarning ustlaridan hech qayerga shikoyat qilib bo‘lmaydi. Kiyim g‘ijim bo‘lsa, dazmollaymiz. Uyimiz buzilsa, remont qilamiz, oyimlarni dazmol qilib bo‘lmasa, remont qilib bo‘lmasa, rahmatlik dadamiz Azim sherni chaqirib, «bu kampingizni tarbiya qilib bering», deyolmasak. Demak, biz faqatgina u kishining onglariga ta‘sir qilib, qayta tarbiyalashimiz kerak.

Hamma. Vo...

O‘rinboy. Shoshma, shoshma, o‘ylab-o‘ylab shu gapni topdingmi? Oyim hozir necha yoshga kirdilar?

Hamma. 75 ga.

O‘rinboy. Ha, balli, 75 yoshga kirgan bo‘lsalar, u kishini tarbiyalash uchun yana 25 yil vaqt kerak. Ana unda nima bo‘ladi? Ana unda 100 ga kiradilar. O‘ylab-o‘ylab topgan gapini qarang-a. Baribir hech ish chnqmaydi. Tarqalinglar. (Hamma u yoqdan bu yoqqa o‘ylanib yuradi.)

Nigora. (birdan). Topdim!

Hamma. A? Nima?

Nigora. Shoshmanglar, bu nihoyatda maxfiy bo‘lishi kerak. Yuringlar, ichkarida gaplashamiz.

Chiroq o‘chib bir oz pauzadan ksyin yonadi. **Farmon** bilan **Sotti** qudasinikidan kelyapti.

Farmon. Voy-voy, mahallasining bolalarini shumligi, mashinamga mix bilan chizib qo‘yadi, deb o‘tirgandek bo‘lmadim.

Parda orqasidan **kelinlar** chiqa boshlaydilar.

Kelinlar. Assalomu alaykum, yaxshi borib keldingizmi?

— Charchamadingizmi?

— Hammasi tinchmi?

Bo'ston. Qalay shu desangiz, to'y maslahati bittimi?

Farmon. E, shu desangiz... demay gapirsangiz-chi. Shu desangizni oyingizdan eshitaverib boshim og'rib kelyapman. Onangni to'yga tayyorgarligi yo'q ekan. Nimangiz bor desam, nuqul 4 ta patnis bilan o'nta piyolasini ko'rsatadi. Oyingni oldidan shu desangiz... besh yuz so'mga tushib kelyapman. «To'yni restoranda qilaman, hamma narsa tap-tayyor bo'ladi, ortiqcha tashvish qilib yuramanmi?» deydi. Qurg'urni gapida jon bor. Haqiqatan ham to'y qilaman deb, oyog'i kuygan tovuqdek pitillab, kuydi-pishdi bo'lib yurgandan ko'ra, restoranda qilib qo'ya qolgan yaxshi. Shuncha azobni nima keragi bor. Jonini huzurini biladi qudam.

Sotti. Pishiq-da o'lgur, pishiq.

Kelinlar. Rahmat sizga, oyijon, rahmat.

Usta Boqi. Odamlaru odamlar, bog'da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar. Bugun mahallamiz klubida «Kelinlar qo'zg'oloni» degan ajoyib tomosha ko'rsatiladi.

Kelinlar. Voy, oyijon, biz ham boraylik.

— Iltimos sizdan, jon oyi.

Farmon. Jim bo'linglar. Klubda senlarga pishirib qo'yibdimi? Bugun televizorda «Otalar so'zi, aqlning ko'zi» bo'ladi. O'shani ko'rasizlar. Yur hammang!

Boqi. ...«Kelinlar qo'zg'oloni» degan ajoyib tomosha ko'rsatiladi.

Kelinlar. Joy oyijon, xo'p deya qoling.

Farmon. Hoy, Boqi, bileti qimmatmi?

Usta Boqi. Sizga baribir emasmi? Yo tomoshaga bormoqchimisiz?

Farmon. Ha.

Usta Boqi. Unday bo'lsa, sizlarga tekin.

Kelinlar. Ana, tekin ekan. Tekin... xo'p deya qoling.

Farmon. Bo'pti, yuringlar.

Dekoratsiyalar o'rtasida yana xuddi shunday kichik dekoratsiya, olti o'g'il xotinlari rolida, Maqkam **Farmon bibi** rolida chiqadi. **Farmon bibi** va kelinlari sahna chetidagi stullarda o'tirishibdi.

Usta Boqi. Ho, artistlar, tayyormisiz? Qani, boshladik.

Parda ochiladi. Sahnada **Farmon bibi**ning kiyimini kiyib olgan Mahkam turibdi.

Farmon. Ha.

Usta Boqi. Unday bo'lsa, sizlarga tekin.

Kelinlar. Ana, tekin ekan. Tekin... xo'p deya qoling.

Farmon. Bo'pti, yuringlar.

Dekoratsiyalar o'rtasida yana xuddi shunday kichik dekoratsiya, olti o'g'il xotinlari rolida, Maqkam **Farmon bibi** rolida chiqadi. **Farmon bibi** va kelinlari sahna chetidagi stullarda o'tirishibdi.

Usta Boqi. Ho, artistlar, tayyormisiz? Qani, boshladik.

Parda ochiladi. Sahnada **Farmon bibi**ning kiyimini kiyib olgan Mahkam turibdi.

Mahkam. Kelinlaru...

Kelinlar. Huv... (Zaldan.)

Farmon. E, senlar jim o'tiringlar. (Zaldan.)

Mahkam. Hoy, kelinposhsho, bo'ling tezroq, «Kirim», «chiqim» daftarini olib chiqing.

Komil. Tayyorman, oyi.

Mahkam. Qani endi hisobla-chi, vodoprovodga, svetga, telefonga, gazga qancha to'lashimiz kerak ekan?

Komil. Hammasini hisoblab qo'yanman.

Sotti. Men bilaman, 43 so'm. (Zaldan.)

Komil. O'zim ham bilaman, 43 so'mu oo tiyin.

Mahkam. Voy-bo', 43 so'm. Hoy, bunaqada tilladan tog'ing bo'lsa ham yemirilib ketadi-ku. Bitta svetni yoqqanda, ikkinchisini o'chirish kerak-da. Schyotchik o'lgur g'ir-g'ir qilib, pulni so'rib ketaveradi-ku. Tayyormisiz, kelin?

Komil. Tayyorman, boshladik.

Asqar (kiradi). Salom oyijon. Mana. (pul beradi.)

Mahkam. Cho'g'i pas-ku? Besh so'mi qani?

Asqar. Smena injenerimizni tug'ilgan kuniga kollektivimiz sovg'a tayyorlayotgan edi. Mendan ham besh so'm olib qolishdi.

Mahkam. Tug'ilmay o'lsin, tug'ilmaygina o'lsin. Lekin baribir meni hisobimda yana o'n yetti

soʻm yetmay turibdi.

Komil. Mana mundoq qiling, topasiz.

Mahkam. Qani, mening oldimga keling-chi, kelinposhsha. (Asqar yaqinlashadi.) Bismillohi rahmonu rahim. (Koʻkragiga qoʻl tiqadi.) Hech narsa yoʻq ekan.

Komil. Voy ado boʻlsin.

Farmon. (zaldan). Voy, bu meni koʻrsatyapti!

Kelinlar. Yoʻq, oyijon, axir bu spektakl-ku.

Toʻxta (kalta yubka va maykada). Oyijon, bir shaharga tushib kelsam degandim.

Mahkam. Voy, oʻzim aylanay. Boʻylaringizga qoqindiq. (Roldaligi esiga tushib.) Iye, voy sharmanda, voy beyuz!

Toʻxta. Voy, oyijon, gunohim nima?

Mahkam. Shiryalangʻoch yura qolgin edi. Qipyalangʻoch yura qolgin edi.

Toʻxta. Bu uy emas, turma. Ha, turma.

Chiqib ketadi.

Mahkam (Asqarga). Nima kamchiliklaring bor? Nima deysan?

Asqar. Oyijon, uyimizni ahvoliga karab boʻlmaydi. Oʻgʻillaringiz sizdan yashirgan pullariga yangi uyni loyahasini tayyorlab qoʻyishgan. Ana shu yangi uyni qursak yaxshi boʻladi.

Mahkam. Bekor aytibsan. Bu uyga bolalarimni kindik qoni toʻkilgan. Bu uyning devorlarida cholgʻinamning panjasining izlari turibdi. Bu uyda 41 ta nevaram tugʻildi. Bu uyni buzmaymiz, hech qayoqqa ketmaymiz.

Asqar. Qoʻying, oyi, bu uyda men ortiq turolmayman. Ketaman.

Mahkam. Voy ado boʻling siz. Qayoqqa ketasiz?

Asqar. Oyimnikiga.

Mahkam. Boring, ketsangiz ketavering.

Asqar. Xudo olsin bu uyingizni. Yelkamning chuquri koʻrsin.

Ketadi.

Komil. Voy savil-ey. Sleduyushiy!

Farmon. Meni koʻrsatyapti. Hoy! (Oʻrnidan turib ketadi, kelinlar chuvillashib joyiga oʻtqazib qoʻyishadi.)

Ma'mur. (pildirab kiradi). Assalomu alaykum.

Mahkam. G'ildirak, hoy g'ildirak.

Ma'mur (yurishda davom etib). Assalomu alaykum.

Mahkam. Hoy, g'ildirak, sizga aytyapman. Quloqni tom bosganmi?

Ma'mur. Voy memimi?

Mahkam. Ha, siz, akasi jonidan. E, oyisi jonidan. Voy, o'zim o'rgilay sizdan. Bo'yaringizga bo'ytumor.

Ma'mur (uyalib). Voy, qo'ying, oyi.

Mahkam. Qani girgitton, sumkangizni ko'p g'ijimlamay oching-chi, ichidagilarni mana bu yerga soching-chi.

Ma'mur. Voy, sumkamniyam ola qoling, oynjon.

Mahkam. O'zim aylanay. (Kamil Ma'murning sumkasidan pul oladi.) Mana sumkangiz. Sizga nima kerak?

Ma'mur. Mengami? Haligi...

Mahkam. Tuflimi? Ichko'ylakmi?

Ma'mur. Ishxonamizda putyovka berayotgan ekan. O'g'lingiz bilan bir Kavkaz tomonlarni aylanib kelsak.

Mahkam. Voy, Kavkazda nima qilasiz? Pishirib qo'yibdimi? Mana, televizorda har haftada ikki marta «Olamga sayohat» degan eshittirish beradi. O'shani ko'rib, uyda ko'milib o'tiravering. Haligi, ilonlar deysizmi, fillar deysizmi, ayiqlar deysizmi, maza qilib ko'rib o'tirasiz. Kavkazga borguncha tug'ing. Hoy, menga qarang, nimaga tug'maysiz? O'g'lim bechora ikkita bola bilan o'tib keta beradimi?

Ma'mur. Voy, shunga shunchami, aka? Iye, oyi. Yuz grammlik gap ekan-ku. Tug'ardimu figuram buzilib qolishidan qo'rqaman.

Mahkam. (Kamilga). Hoy kelin, «kirim» daftariga yozib qo'ying. Bu kelinim shu bugundan boshlab to'qqiz oy, to'kqiz hafta, go'qqiz kun, to'qqnz soatdan keyin tug'ishi kerak.

Ma'mur. Ziqnaligingiz qolmadi-qolmadi-da. Jonimga tegib ketdi. Ketaman.

Mahkam. Qayoqqa?

Ma'mur. Oyimnikiga.

Mahkam. Voy, undan nariga o'tib keting.

Komil. Navbat kimniki?

O‘rinboy kiradi, pul beradi.

Mahkam. Kam-ko‘stingni ayt, nima kerak?

O‘rinboy. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak degandak...

Mahkam. (gapini bo‘lib). Maqol qo‘shmay gapir. Maqol ham o‘lsin, bo‘lar-bo‘lmasga suqilmay.

O‘rinboy. Maqol so‘z ko‘rki. «Bor tovog‘im, kel tovog‘im» deganlaridek, qudalarimni bir chaqirsam degan edim.

Mahkam. Quda, quda, qudalaringni tinch qo‘y. Qiz uzatdingmi, endi jim o‘tir.

O‘rinboy. Ziqnaligingiz jonimga tegdi. Ketaman.

Mahkam. Qayoqqa?

O‘rinboy. Oyimnikiga.

Mahkam. Yoshing 50 dan oshib qolgan bo‘lsa, oying necha yoshligini o‘ziyam bilmasa. Senga ko‘zi uchib turgandir. Borsang tanirmikan?

O‘rinboy. Taniydilarmi, tanimaydilarmi, eshitadilarmi, eshitmaydilarmi, hidimdan biladilar.

Mahkam. Senda hid nima qiladi?

O‘rinboy. O‘zimni hidim bor-ku.

Mahkam. Naftalin hidi.

O‘rinboy. Qarimanmi-qurimanmi, oyimni qiziman. Mendan tonmaydi. Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga. Qurib ketsin, shu uyingiz.

Komil. Yana kim bor?

Hakim. (pul beradi). Assalomu alaykum.

Mahkam. Senga nima kerak?

Hakim. Akademik Ivan Pavlov nazariyasiga binoan har kuu kaloriyasiz suyuq ovqat ichavermasdan vitaminli, kaloriyali ovqat yeyish kerak. Men qo‘y go‘shti, qo‘y yog‘idan osh yemoqchiman.

Mahkam. Bugun sho‘rva bo‘lyapti. Hammamiz sho‘rva ichamiz. Palovni payshanba kuni yeymiz.

Hakim. Bunaqa qilsangiz ketaman.

Mahkam. Voy, sen o‘lgurdan ham gap chiqadimi? Sendan-a? (Zalda o‘tirgan Nigorani ko‘rsatib.) Voy-dod, manavini kelganiga o‘n kun bo‘lmay, boshqa kelinlarimniyam yo‘ldan uribdi.

O'g'illar tugunlarini ko'tarib chiqishadi.

Mahkam. Kelinlaru...

Kelinlar. (zaldan). Huv...

Farmon. Jim bo'linglar. Bu meni ko'rsatyapti dedim-ku.

Usta Boqi. Yo'q, yo'q, siz emas, o'tiring.

Mahkam. Shartlaringni aytinglar.

O'rinboy. Har bir oila o'ziga o'zi qozon qaynatsin.

Hakim. Har bir oila mehmon chaqirish, mehmonga borish huquqiga ega bo'lsin.

Ma'mur. Har bir oila a'zosi kinoteatrlarga borish, madaniyat o'chog'larida hordiq chiqarish huquqiga ega bo'lsin.

Asqar. Shu paytgacha yig'ilib qolgan oila byudjetidan har bir oilaga yangi uy kurib berilsin.

To'xta. Har kim olgan maoshini o'z ehtiyojiga yarasha sarf qilib, modniy kiyimlarni kiyishga ruxsat etilsin.

Hakim. Oilada shpion shtati qisqartirilsin.

Komil. Yo'q, yo'q, yo'q.

O'rinboy. Agar shartlarimizni bajarmasangiz biz hammamiz ketamiz.

Hamma. Ketamiz!

Mahkam (Farmon bibi ga). Farmonbonu, maslahat ber, nima qilay? Kelinlarim ketib qolsa, o'g'illarim xotinsiz qoladi-ku. Axir 41 ta nevaram bor.

Farmon (kulganicha). Hoy kampir, seni miyangda eski zamonni achigan-bijigan qiliqlari qolib ketgan. Shunday yaxshi kelinlaringni qiynab qo'yibsang-ku. Ularni shartini bajarib, erklarini o'z qo'llariga ber!

Mahkam. Shartlaringizga ko'ndim. Hammalaringiz erkinsizlar.

Kichik parda yopiladi.

Farmon (kulib). Buni rejissyori kim?

Boqi. Rostini aytaymi?

Farmon. Aytaver.

Boqi. Kenja kelingiz Nigoraxon.

Farmon. Rahmat sizlarga. Juda maza qilib tomosha qildim. Kenjatoyim To‘xtavoydan ko‘nglim notinch edi. O‘lib ketsam bu bo‘shashganning holi nima kechadi, derdim. Baxtiga sen uchrading. Endi ko‘nglim tinch.

O‘g‘illar. Nima gap, oyijon? (Parda orqasidan chiqib.)

Farmon. O‘zlaringni bilmaslikka solmanglar. Sizlarga rahmat, bu...

Hamma. Bir...

Farmon. Salomat bo‘linglar... bu...

Hamma. Ikki...

Mahkam. Siz ham salomat bo‘ling, yuzga kiring...

Hamma. Bu uch.

Farmon. (zalga qarab). Ana ko‘rdinglarmi, ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi.

Usta Boqi. Buning hammasi hazil. Lekin hazilda ham, ozgina chini bo‘ladi. Aktyorlarimiz oshirib yuborgan bo‘lsalar, kechirasizlar.

Farmon. Shu paytgacha bular meni childirmamga o‘ynab kelishdi. Endi men bularning childirmasiga o‘ynayman. Qani, chalinglar!

GAP (HIKOYA)

Said Ahmad

Hamma gap gapda.

Soliya amma qorani oq deb ishontira oladi. Oqni qora qilib ko‘rsatish unga bir qultum suvni yutgandek gap.

Kelinini yomonlaganda:

— Ha, ishlab nima topardi. Yarim oylik moyanasiga sakkizta dirdov qo‘y ham kelmaydi.

O‘g‘lini maqtaganda:

— Yarim oylik moyanasiga sakkizta bo‘rdoqi tovuq keladi.

Kuyovini maqtaganda:

— Kuyovimning ichganidan bo‘shagan shishalariga ikki oila bemalol ro‘zg‘or tebratsa bo‘ladi.

Akasini maqtaganda:

— Ishqilib topib kelmasa hamki, erkaklik uyning fayzi boshqacha bo‘ladi-da.

Qudasini yomonlaganda:

— Biram bachkana, biram bachkana, kalavotda yotishiga balo bormi?

Qizini maqtaganda:

— Shu kenja qizim ham opalariga o'xshab nozikkina chiqdi. Yursa hovli to'lib ketadi. Avtomobili yo'q odam ostonamga sovchi yuborib, ovora bo'lmay qo'yaqol-sin.

O'zini gapirganda:

— Yoshligimdayam shunaqa kelishimlikkina edim, uncha chiroylik emasdim-ku, lekin istaram o'lgur issiq.

Xullas, kim qanaqaligini bilmoqchi bo'lsa Soliya ammani oyna qilib qarasin. O'zini «tochniy» ko'radi.

Adresi: Ko'kcha, Qatiq bozori.

PAYPOQ (HIKOYA)

Said Ahmad

Orifjon shu trestga ishga o'tgandan beri xotinidan tinmay gap eshitadi. Trest boshlig'i serulfat odam ekan. Har kuni ishdan keyin Orifjonni mashinaga o'tqazib, shahardan tashqariga opchiqib ketadi. Soya-salqin choyxonalarda oshxo'rlik qilishib, qosh qorayganda javob beradi.

Albatta, bu xil o'tirishlarda hadeb boshliqqa sarf qildiraverish insofdan emas. Xotinining kunlik beradigan obed puli o'zidan ortmaydi, tekin yeyaverishga Orifjonning yuzi chidamaydi.

Orifjon xotiniga bildirmay yordam kassasidan uncha-muncha pul oladigan bo'ldi. Ikki marta maosh ustidan avans ham oldi. Har kuni, o'ldim deganda, o'n besh so'm sarf bo'laversa, pul chidaydimi?

Boshliq-ku, Orifjonni unchalik xarj qilishga qo'ymaydi. Ora-sira uyiga chaqirib ziyofat ham qilib qo'yadi. Shundoq bo'lgandan keyin Orifjon ham uni uyiga chaqirmasa, uyat bo'ladi-da!

Boshliq birinchi kelganda juda mamnun bo'lib ketdi. Bir haftagacha: «Bay-bay-bay-, kelinning mantisi, hali ham mazasi og'zimda turibdi-ya» deb, tamshanib yurdi.

U hadeb shundoq deb turganda Orifjon indamasa odamgarchilikka kirmaydi, albatta:

– Yana tashkil qilamiz, – devordi.

Shu gapni deyishga dedi-ku, qandoq qilib xotiniga aytishini bilmay, bir-ikki kun chaynalib yurdi. Oxiri xotini ochilib-sochilib turganda aytdi. Xotinining tepa sochi tikka bo'lib ketdi.

– Qandoq sulloh odam u? Yeydiganini yeb ketdi! Yana nima deydi?

Orifjon xotinini bosib qo'ydi:

– Undoq dema, xotin! Xo'jayin narsa. Aytganini qilmasak bo'lmaydi. Yaqinda maoshi ikki baravar ko'p ishga o'tkazmoqchi. Sen mantini boplayvergin, buyogiga xudo xohlasa oshig'imiz olchi bo'lib ketadi.

Xotini undoq desa, mundoq dedi, mundoq desa, undoq dedi, xullas, bir gal mantiga ko'ndirdi. Ammo bitta shart bilan. Ziyofat xarjini Orifjonning o'zi topib kelishi kerak. Ro'zg'orga ajratilgan mablag'ga tegish yo'q.

Obbo! Yordam kassasidan qarz bo'lsa, moyana ustidan ikki marta avans olgan bo'lsa, bu yog'ini qaydan topadi?

Orifjon o'ylab-o'ylab, birovdan qarz ko'taradigan bo'ldi. O'tgan moyanadan o'n to'rt so'm, yordam kassasidan olgan puldan sakkiz so'm, avans puldan yetti so'mi bor. Hammasi bo'lib yigirma to'qqiz so'mni paypog'iga yashirib qo'yan. Toilega Orifjonning oyog'i andek islanib turadi. Ikki kun paypog'ini yangilamasa, uyga pashsha to'lib ketadi.

Ana, shuning uchun ham er-xotin kir yuvish ishlarini o'zlari bo'lib olishgan. Orifjon paypoqni o'zi yuvadi, boshqa kirlar xotinining bo'ynida. Paypoqqa xotin qo'l urmaydi. Pul yashirishga paypoqdan yaxshi joy yo'q.

Orifjon xotindan yashirib, paypoqda saqlab yurgan pullarini shu ziyofatga ishlatmoqchi edi, yangi gap chiqib qoldi. Yigirma oltinchi kuni boshliqning tug'ilgan kuni emish. Idorada hamma uch so'm-uch so'mdan qilib pul yig'ishyapti. Soat taqdim qilishar emish. Orifjondan pul olishmadi.

– Siz boshliqqa qadrdon odamsiz, o'zingiz kattaroq sovg'a qilasiz.

Endi nima bo'ladi? Orifjon paypoqdagi pulga sovg'a oladigan bo'lsa, ziyofat uchun birovdan qarz ko'tarishi kerak. Shunday qildi. Bir oshnasidan ikki hafta muhlat bilan yigirma besh so'm qarz ko'tardi. Ikkita konyakdayoq pulining rangi o'chib ketdi. Shu puldan ham uch so'm qayirib, paypoqqa urdi. Go'sht-yog' ro'zg'ordan chiqdi.

Boshliq yolg'iz kelmadi. Ikki oshnasini ergashtirib keldi. Orifjon bilan bo'lib to'rt kishiga ikkita konyak nima bo'ladi? Jiyanini chiqarib, magazindan yana bir shisha uch yulduzligidan oldirib keldi.

Ammo kelin mantini yana boplabdi. Boshliq har gal mantini og'ziga solayotganda kelinning pazandaligini maqtab, Orifjonning qo'li ochiqligini ta'riflab turdi.

Yarim kechada mehmonlar tarqashdi. Ular ketishayotganda Orifjon eshikkacha kuzatib chiqdi.

– Juda erta ketyapsizlar-da, bir siqimgina osh qilmoqchi edik. Kelingiz oshni qiyvoradi-da.

Boshliq mashinaga o'tirar ekan, samimiy minnatdorchilik bildirdi:

– Oshni kelasi gal yeymiz. Xo'pmi? Xafa bo'lmang, albatta kelamiz.

Orifjon ham o'zini tutolmadi. Boshliq shundoq deb turgandan keyin aniqroq bir gap aytish kerak.

– Bitta osh ekan-ku, kabobiga ham tayyormiz. Ammo qachonligini aytib aniq va'da berib ketasizlar.

Boshliq orqa kabinada o'tirgan oshnalariga qaradi:

– Kelasi oddixga vaqtlaring qalay? Mening vaqtim bor.

Oshnalar, ixtiyor sizda deyishdi. Shundan keyin mashina gurillab jo'nab ketdi. Mashina ketdi-yu, shu ketishida yana bitta ziyofatning va'dasini ham olib ketdi. Orifjon peshanasiga bittani urdi.

– Laqma bo'lmay o'! U gapirganda sen tinch tursang o'larmiding? Bu yog'ini xotinga qandoq tushuntirasan?!

U o'ziga, hay mayli, kelasi oddixgacha nima gapu nima so'z, bu yog'i keyin ma'lum bo'ladi, deb uyga kirib ketdi.

Mehmon kelgan uy, albatta, ivirsimay iloji yo'q. Hovlining hamma yog'ida papiros qoldiqlari, qog'oz parchalari. U yoqda kir sochiq, bu yoqda yuviqsiz idish-tovoq. Orifjon o'zini mastlikka solib, darrov yota qoldi. Ertalab ishga ketayotganida karavotning tagiga qarasa, xotini yangi paypoq qo'yibdi.

– Xotin, paypog'im qani?

– Paygyug'ingiz qursin, bijg'ib ketibdi, otash kurakka qisib, ko'chadagi axlatga opchiqib tashladim.

Orifjonning darmoni qurib, o'zini yostiqqa tashladi. Birdan hovliqib, ich ko'ylakda ko'chaga yugurdi.

Axlat mashinasi endi joyidan qo'zg'algan ekan. Qarasa, qo'shnisi ham ich ko'ylakda mashina ketidan chopib ketyapti. Yetolmadi. Mashinaga yetib bo'ladimi? Orifjon hafsalasi pir bo'lib, ostonaga o'tirib qoldi. Qo'shnisi halloslab qaytib keldi. Orifjon sir boy bermay, bo'shashgancha qo'shnisidan so'radi:

– Nima gap, tong saharlab mashina quzib yuribsiz?

Qo'shni peshanasiga shatillatib bir tushirdi.

– Meni xudo urib qoldi! Birovga aytmangu, paypoqqa ikki yuz ellik yashirgan edim, bolalar axlatga tashlavorishibdi.

Orifjonning ichida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Xayriyat, buniki atigi o'ttiz ikki so'm edi, qo'shnisinikiga urvoq ham bo'lmaydi.

KO‘ZLARINGDA O‘T BOR EDI (HIKOYA)

Said Ahmad

Zinapoyaning boshida oq xalatli ayol ko‘rinishi bilan Mutal shoshib o‘rnidan turadi. Undan biron gap chiqmagandan keyin bo‘shashib yana joyiga o‘tiradi. U shu taxlit uch soatdan beri o‘tiribdi. Shahar allaqachon uxlagan. Ammo bu yerda kirdi-chiqdi. Telefon dam o‘tmay jingillaydi. «Tez yordam» mashinasi tinimsiz kelib-ketib turadi. Rangi bo‘zargan, ko‘zlari besaranjom ayollarni nosilkalarda yuqoriga olib chiqib turishibdi. Kutib turganlarning ko‘zida tashvish bor. Ichkaridan ham quvontiradigan, ham hayajonga soladigan xabarlar chiqadi. Mutal ham o‘z baxtini o‘sha joydan kutib o‘tiribdi.

Zinada keksagina hamshira xotin ko‘rindi. Hamma baravar o‘rnidan turdi. U o‘tirganlar orasidan kimnidir qidirardi. Oxiri, ko‘zi Mutalga tushishi bilan yuzida bir chiroyli tabassum paydo bo‘ldi. — Holva muborak bo‘lsin, inim. Xotining to‘tidek qiz tug‘di.

Mutalning yuragi qinidan chiqib ketayozdi. U rost aytyaptimi? Axir Mutal qirq olti yillik umrining yigirma sakkiz yilini shunday qutlug‘ xabar eshitish orzusida kechirdi. Nihoyat, nihoyat niyatiga yetdi. Hamshira xotin aldamayotganmikin? Rostmikin? Tushimmi, o‘ngimmi? Yo‘g‘-e...

Mutal esankirab qolgan edi. Atrofida nimalar bo‘lyapti, kimlar bor, o‘zi qaerda o‘tiribdi, bilmasdi. O‘zidan-o‘zi dovdirab hovliga chiqib ketganini bilmay qoldi. U tug‘ruqxona darvozasiga yetganidagina, shunday yaxshi xabar olib chiqqan hamshiraga rahmat aytmagani, suyunchi bermaganini bilib qoldi. Shoshib orqasiga qaytdi. Hamshira yo‘q edi. Uning ismini bilmaganidan, hali ko‘p kelaman-ku, ko‘nglidan chiqarib yuboraman, deb o‘ziga taskin berib yo‘liga qaytdi.

Ko‘cha jimjit. Har zamon asfalt yo‘lni yoritib mashinalar o‘tib qoladi. Negadir ular Mutalning oldiga yetay deb qolganda signal berishadi. Ular xuddi uni tabriklayotganga o‘xshashadi. Sonsiz chiroqlar jimirlab ko‘zni qamashtiradi. Daraxt shoxlari shabadada silkinib, yerdagi soyalarini u yoqdan bu yoqqa otib o‘ynashadi. Havo toza, musaffo.

Tramvay-trolleybuslar yotgan. Uy hali uzoq. Mutal ko‘chaning qoq o‘rtasida borardi. Dunyoda hozir undan baxtli odam yo‘q. Ashula aytgisi, uchragan odamga shu topda qiz ko‘rganini birpasda tapirib tashlagisi keladi. Xuddi uning yonginasidan bir yuk mashinasi vag‘illab o‘tib ketdi. Nariroq borib shart to‘xtadi-yu, shofyor kabinadan bosh chiqarib, jahl bilan so‘kindi. Mutal unga parvo qilmadi. Ammo birdan hushyor tortib ketdi. Boyagi quvonchlari qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi, bir zumda yuragini muz bosgandek sovub qoldi.

— Men ham odam bo‘ldimmi? Rostdan ham baxtlimanmi? Shumi baxt?

Bu fikr yashin tezligida kallasini parmalab kirib, mahkam o‘tirib oldi.

Endi Mutal behush qadam tashlardi. Boya yeldek uchib ketayotgan odam, endi shoshilmasdi. Qayoqqa shoshadi, yigirma besh yillik hamrohi, do‘sti, eng aziz kishisi bu xabarni eshitsa nima bo‘ladi? Bu xabar uni qon yig‘latmaydimi? Ilgarilari ham Mutal shu to‘g‘rida o‘ylaganida, yuragi orqaga tortib ketar, o‘yini oxiriga yetkazishdan qo‘rqardi. Bola ko‘rish orzusida yigirma besh yil

orziqib yashagan bo'lsa, bu yog'idagi niyati ro'yobga chiqayotgan uch yilida bu ezgu niyati ko'pincha dahshatli o'ylar bilan aralashib ketardi.

Mutalning hayotidagi bu kattakon voqea E'tiborxonning qulog'iga yetmay qolmaydi. Undan keyin nima bo'ladi? E'tiborxonning holi nima kechadi? Ana shunisi yomon! Uning qiynalganini ko'rish, ko'zida yosh, chehrasida g'am ko'rish Mutalni iztirobga soladi. U, yigirma besh yil E'tiborxonni avaylab keldi.

E'tiborxon Mutalning avvalgi xotini edi. Tug'madi.

Mutalning nazarida dunyoda hech qanday er-xotin ulardek bir-birini sevolmasdi. Bu hurmat, bu muhabbat, bu mehr-oqibat...

Mutalning hali esida, ularning to'yi ming to'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchi yilning avgustida bo'lgan edi. To shu kungacha bir-birlarini sen deyishga tillari bormagan. Hamisha «siz»lab gapirishardi. Qo'ni-qo'shnilar ularning uyidan biron marta qattiq ovoz eshitishmagan. Uylari bo'lsa, hamma vaqt yaraqlardi. Qelgan mehmonlar ularga havas qilib ketishardi-yu, uylariga yetmay, shu bechoralarga xudo bittagina farzand bermadi-da, deb qo'yishardi.

Yillar o'taverdi. Ular hamon bir-birlarining qosh-qovog'iga qarab, kunlarni yillarga ulab yashayverishdi. Mutal qachondir bola ko'rishiga ishonardi. Uning ishonchi E'tiborni qiynardi. Erining siqilayotganini bilib turardi. Ko'chadan bola o'tsa ko'zi o'ynashini, mehmonga borishsa bolalarning o'yiniga qo'shib ketishini E'tibor sezmasmidi, sezardi. Xotinlar ziyrak bo'lishadi, uydagi konfetlarni ko'chadagi bolalarga tashib tamom qilishini bilmaydi, deysizmi? Bilardi.

Urush boshlandi. E'tibor to'rt yil yo'lga ko'z tikib Mutalni kutdn. Keldi. Yana o'sha jim, osuda hayot. Urushdan avval qanaqa yashashgan bo'lsa, undan keyin ham o'zgarishsiz bir xil umr boshlandi. Mutal bolasiz o'tishga rozi edi-ku, ammo E'tiborsiz yashashga rozi bo'lolmasdi. U E'tiborga shunchalar o'rganib qolgan, o'zini hatto E'tiborsiz tasavvur ham qilolmasdi. Ammo E'tibor erining qo'lida bola ko'rishni shunday orzu qilardiki, birgina bola uchun, Mutalning birgina quvonchi uchun jonini ham berishdan qaytmasdi. Qo'lida bola ko'rib o'lsam, to'yimiz bo'lgan yillardagi Mutalning ko'zlarida chaqnagan o'tni yana bir ko'rsam, bu dunyodan bearmon ketardim, deb o'ylardi.

Kunlar, yillar o'taverardi. Er-xotin hamon samimiy, hamon bir-biriga oqibatli. Bir burda non bir-birisiz tomog'idan o'tmaydi, uy hamon ozoda, saranjom, jimjit.

Shu xilda yigirma to'rt yil umr o'tib ketdi. Na bolasizlik, na odamlarning kishi bilmas ilmoqli ta'nalari ularning orasiga sovuqchilik sololmasdi.

Mutal tanish-bilishlar bilan uchrashib qolganda odatdagicha, undan bola-chaqalarning salomatligini so'rashardi. Mutal dovdirab nima deyishini bilmay, tayinsizroq bir gap aytib qutulib ketmoqchi bo'lardi-yu, ammo odatda shu gaplardan keyin keladigan: kattasi nechaga kirdi, degan so'roqdan keyin, qiynalib-qiynalib javob berishga majbur bo'lardi, — Bolamiz yo'q. Shundoq...

So'ragan odamning xijolatligini aytmysizmi.

Mutal tanishlar bilan to'qnash kelishdan bezillab qolgandi.

Bu gaplarni E'tibor sezmasdi, deysizmi, sezardi. Sezardi-yu, ich-ichidan ezilib ketardi. Erining ko'ziga qarolmay, xomush bo'lib qoldi.

Yana bir yil o'tdi. Mutal qariy boshladi. E'tiborning nazarida, ilgari chaqnab turgan ko'zlaridagi o't yo'qolayotganga, o'zi sal narsaga charchab qolayotganga o'xshayverdi. Bir kun Mutal ishdan kelib hovlida gulqaychi bilan olma shoxlarini butab yurganda, E'tibor ayvonda chuchvara tugib o'tirgan edi. Birdan, bexosdan ko'zi erining bo'yniga tushib qoldi. Iyaklarining tagi g'ijimlanib qolgandek ko'rindi. O'rnidan turib, bexos oldiga bordi. Faqat iyagida emas, ko'z chetlarida, peshonasida ham ajin. Birdan E'tiborning yuragini vahm bosib ketdi. Qaribdi, qaribdi. Sochi ikki chakkasidan oqora boshlabdi, qaribdi, qaribdi...

Hali oftob o'chmagan, gullar qiyg'och ochilib turgan iyul kuni ularning yigirma besh yillik ahil umriga yakun yasadi.

E'tiborning niyati buzildi. Ketish kerak, shu qadrdon, dunyodagi yaxshi odamlarning eng yaxshisini tashlab ketish kerak. Qandoq qilib?

Mana shunisi qiyin edi. Shunday ketish kerakki, ko'z yoshi to'kilmasin. Kelgan yig'ini kulgi bilan, xandon kulgi bilan yengish kerak.

E'tibor boshqa yo'l topolmadi. Mutalni baxtli qilishning birdan-bir yo'li shu edi. O'sha kecha E'tibor mijja qoqmadi. Yana boshqa tadbirlar ham qidirib chiqdi. Eng so'nggi tadbir, Mutalning ko'nglini o'zidan sovitish, bezor qilish bo'ldi.

O'shanda dam olish kuni edi. Kechgacha E'tibor bo'lar-bo'lmasga bahona topib, erini qiynayverdi. Qo'pol gapirdi, jig'iga tegdi, ko'ngil qoldiradigan sovuq gaplardan ham toymadi. Mutal og'irlik qilib uning ko'nglini olishga urindi. E'tibor sovimadi. Axir, toqati toq bo'lgan Mutal qizishmay, yotig'i bilan so'radi:

— Sizga nima bo'ldi, E'tibor? Juda qiynavordingiz-ku?!

— Ketaman!

Mutal gangib qoldi. Nima qilishini bilmay, xotining ko'ziga qarab, angraygancha qoldi.

— Ketaman, yashamayman siz bilan.

E'tibor shu gapni aytdi-yu, titrab ketdi, ammo buni eriga sezdirmadi. Ich-ichidan toshib chiqqan xo'rsinishni kuch bilan bosib qaytardi. Angrayib qolgan erining ko'ziga qaramay, uyga kirib ketdi-da, birpasdan keyin chamadon, tuguncha ko'tarib chiqdi.

— E'tibor, ketmang, meni tashlab ketmang, men nima qilaman...

Mutalning ko'zlari xiralashib bir gandarab oldi. Darmonsizlanib ayvonning labiga o'tirib qoldi.

E'tibor yugurib borib qo'ltig'idan ko'targisi, peshonasidan, o'sha sochi oqarib kelayotgan chakkalaridan silagisi, yuzini-yuziga ishqab ovutgisi keldi. Lekin, bunday qilmadi. O'zini tutdi. Yuragi yig'lardi-yu, chidardi. Bu — qahramonlik edi, katta qahramonlik edi. U o'zini hamon dadil tutib, erining oldiga bordi:

— Bilasanmi,— bu erini birinchi marta senlashi edi,— senga xiyonat qildim. Buning uchun o'zimni kechirolmayman. Sen ham kechirmaysan. Xiyonat qilgan xotin erining uyida turishga, u bilan birga yashashga haqsiz. Buning uchun, bilaman, meni kechirolmaysan.

E'tibor bu bahonani beixtiyor topdi. Bu — zo'r bahona. Hech qanday er xiyonat qilgan xotinni kechirolmaydi. Butun umrini bolu pardek pokiza o'tkazgan xotin, xiyonat u yoqda tursin, begona

erkakni xayoliga keltirmagan xotin o‘zini-o‘zi eng pastkashlar qatoriga qo‘yib o‘tiribdi. Nima uchun? Kim uchun? Buni E’tiborning o‘zi bilardi.

E’tibor ostonaga yetib qoldi. O‘girildi:

— Meni kechirolmaysan, kechirolmaysan. Ko‘zingga qarab, shafqatingni kutib yashashga toqatim yo‘q. Kuniga ming martalab o‘zimni qarg‘ab yashashga toqatim yo‘q. Seni harom qilishga haqqim yo‘q. Ketay, ketay...

E’tiborning tovushi bo‘g‘ilib, gapirolmay qoldi shart burildi-yu, chiqdi-ketdi.

Mutal yolg‘iz qoldi. Bir kun kutdi, ikki kun, bir oy, bir yil kutdi, xotinidan darak bo‘lmadi,

Oradan bir yarim yil o‘tib, E’tibordan xat keldi. Xatda u endi sira qaytib kelmasligini, o‘sha yo‘ldan «urgan» kishi bilan qovushmoqchi ekanini aytibdi. Mutal yig‘ladi. Xo‘rligi kelib, o‘tkazgan yigirma besh yillik umriga achinib yig‘ladi. Mutal yolg‘izlikda so‘la boshladi. Ajinlari ko‘paydi, chakkasidagi oq tolalar manglayiga o‘rmalab qoldi. Kuyib-yonib ado bo‘lay dedi. Ko‘pchilik: uylan, yolg‘izlik yomon, deb nasihat qilishdi. Mutal yotib qolay dedi. Oxiri, do‘stlari kichkinagina to‘ycha qilib o‘zi bilan birga ishlaydigan bir qari qizga uylantirib qo‘yishdi. Hamon E’tibordan darak yo‘q. U bevafoining qaerdaligini hech kim bilmasdi.

Mutal tug‘ruqxonadan kelarkan, mana shularni esladi. Esladi-yu, siqilib ketdi.

— Uning bola ko‘rganini E’tibor eshitsa, nima qilarkin? O‘zini-o‘zi bir nima qilib qo‘ymasmikin? Yo sevinarmikin? Sevinmaydi, u xiyonatchi!

Uning ko‘ziga goh tug‘ruqxonada yotgan chaqalog‘i, goh uydan qahru g‘azab bilan chiqib ketayotgan E’tibor ko‘rinardi.

Oradan to‘rt kun o‘tdi. Mutalning xotini bilan qizi hali tug‘ruqxonada. O‘zi bo‘lsa, tinmay uy yig‘ishtiradi, keldi-ketdi uchun tayyorgarlik ko‘radi.

Birdan eshik taqillab qoldi. Pochtachi. Posilka olib kelibdi. Kimdan? Kimdanligi noma‘lum. Mutal shoshilmay yashikni ochdi. Chaqaloqqa ko‘ylak, fartuk, qalpoqcha... Kimdan bu? Mutal yashikning u yoq-bu yog‘ini titkilay boshladi. Xat. Shoshib oldi, shoshib o‘qiy boshladi:

«Hurmatli Mutal aka! Meni kechiring. Eshitdim. Eshitib qay ahvolga tushganimni tushuntirib berolmayman. Mening bittagina niyatim — qo‘lingizda bola ko‘rish edi. Shu niyatimga yetdim. O‘tgan kuni ko‘chada sizni ko‘rib qoldim. Ko‘zlaringizda o‘t yonib turibdi. Bundan yigirma yil avval ko‘zlaringiz shunday edi. Ko‘rib, hayron bo‘ldim. Bilsam, ota bo‘libsiz. Bu qanday baxt, bu qanday baxt! Sevinchdan yuragim yorilay dedi. Yotib uxlolmadim. Tong otguncha ko‘rgan kunlarimizni eslab chiqdim. Qandoq totuv yashadik! Qandoq mehribon edik bir-birimizga! Sizni qanchalik yaxshi ko‘rardim! Qandoq ayardim, shamolni ham ravo ko‘rmasdim. Kechalari sizga baxt, salomatlik tilab chiqardim. Sizdek pok odamga munosib xotin bo‘lish uchun qo‘limdan nima kelsa, vijdonim nimani buyursa — hammasini qildim. Bilsangiz, uydan ketishim, o‘zimga-o‘zim tuhmat qilib, o‘zimni-o‘zim buzuq deb ataganim ham sizga baxt tilashim edi. Endi ochig‘ini aytay, umrimda xiyonat yo‘liga kirmaganman. Agar o‘zimni buzuq demaganimda, siz meni uydan har qandoq qilib ham chiqazmasdingiz. Ketdim, yaxshi bo‘ldi, siz baxt topdingiz, bolalik bo‘ldingiz. Niyatim ham shu edi.

Agar men ketmaganimda sizga bu baxt qayoqda edi? Endi ko‘nglim tinchidi. Niyatimga yetdim. Baxt muborak bo‘lsin!

Yangi kelin paytlarimda yaxshi niyat qilib, bola ko'rsak kiydirarman deb ko'ylakchalar, qalpoqchalar tikkan edim. Ezilasiz deb sizdan yashirib tikkan edim. Menga ona bo'lish nasib bo'lmadi. Iltimos, shularni chaqaloqqa kiydiring.

Shu paytgacha shaharda edim, Yaxshilik xabarini eshitib, tamoman xotirjam bo'ldim. Ertaga butunlay ketaman. Kim biladi, qayta uchrasholamizmi, yo'qmi?

Uydan chiqib ketayotganimda yetkazgan ozorlarim uchun Sizga hamisha ehtirom bilan: E'tibor otli xotin»

Xatga Mutalning ko'z yoshlari to'kildi.

GUL HAQIDA HIKOYALAR

Said Ahmad

BIR TOMCHI SUV

Nigora bir haftagina qishloqqa onasining oldiga borib keladigan bo'lib qoldi. Eri komandirovkada. Uy Olg'iz qoldi. Poezdga chiqib endi chamadonni o'rniga qo'yayotganida birdan bo'shashib ketdi.

Tuvakdagi gulga suv quyish esidan chiqibdi-ku.

Axir, Nigora uni qanday avaylardi. Kun ora suv quyib chamandek ochilib turgan gullarini hidlab, hidlab olardi. Nima bo'ladi endi?

Eri Kozimjon Kislovodskdan atayin samolyotda olib kelgan edi. Ikki yildan beri uni parvarish qilardi. Yozda hovliga opchiqib ekar, kuz keldi deguncha yana tuvakka o'tqazib, uyning kungay tomondagi deraza rahiga qo'yardi. Nima bo'ladi endi?

Bitta gul uchun orqaga qaytsinmi? Qaytardi ham, ammo poezd joyidan qo'zg'alib, shitob bilan oldinga intilib ketyapti.

To qishloqqa yetguncha ham shu gul uning xayolidan ketmadi. Nazarida sarg'ayib so'layotgandek, qurib-qovjiragan barglari deraza oldiga to'kilib yotgandek...

U qishloqning qatqaloq ko'chalaridan ketarkan, biron uyning derazasida gul ko'rdimi, bo'ldi, xayoli yana uyiga uchib borar, qurib qolgan gul oldida ma'yus turgandek bo'lardi.

Nigora qaytayotganda qalin qor tushdi. Po'stiniga o'ranib poezdga chiqdi-yu, vagon oynasidan oppoq dalalarni ma'yus tomosha qilib keldi. Nihoyat uyi ostonasiga ham yetdi. Qanday qilib eshikka kalit solganini, qanday qilib deraza oldiga kelib qolganini o'zi ham bilmasdi.

Tuvakdagi gul hamon yashnab turardi. Uning ko'm-ko'k barglari tagidan yana kurtakchalar bo'rtib qolibdi.

Nigora ochilaman deb, turgan g'unchaga engashib dimog'ini tegizdi. Biram xushbo'y, biram xushbo'y!

U, bir hafta suvsiz qolgan bu gulning avvalgidek yashnab turishiga hayron edi.

Oftob deraza qirovini eritib har kuni bir tomchidan tuvakka sachratganidan Nigora bexabar edi.

Bir tomchi suvda qanchalar qudrat borligini u sira-sira xayoliga keltirolmasdi.

BOBO, BOLA, GUL

Bobo eshigi oldidagi supada soatlab o'tirardi. O'tgan-ketganga choy tutib supachasiga taklif qilardi.

Bu bahor u supa yonboshiga kichkinagina gulzor qildi. Chiroyli jo'yakchalar tortib anvoyi gullar ekdi. Mana, bir tup atirgul g'unchaga ham kirdi. Ayniqsa bitta g'uncha ana ochilaman, mana ochilaman deb turibdi. Cholning ikki ko'zi shu g'unchada.

Tikilgan qozon qaynamas degandek uning ochilishi juda qiyin bo'ldi. Bobo unga tikilaverib ko'zlari toldi.

Bir kun ertalab odati bo'yicha sholchasini sudrab supaga chiqsa biram chiroyli bo'lib ochilibdiki. Chol tishsiz og'zini ochganicha unga tikilib qoldi. Sholchani supaga tashlab gul tepasiga kelib engashdi. Kafti bilan uni beozor ko'tarib huzur qilib hidladi.

Boboning tabiati ravshan bo'lib ketdi, Sholchani supaga xotirjam yozib choy olib chiqqani kirib ketdi. U qaytib qo'lida choynak-piyola bilan chiqqanda gul bandida yo'q edi. U hayron bo'lib u yoq-bu yoqqa qarasa ko'chaning narigi betida bir xotin aravachada o'tirgan ikki yoshlar chamasidagi bolasiga o'sha gulni beryapti.

Boboning g'azabi qaynab ketdi. Bu nimasi, kap-katta odam, birovning gulini uzgani uyalmaydimi? Bu yashnab turgan gul qanchadan-qancha kishilarning bahri-dilini ochardi.

Bola onasining qo'lidan gulni oldi-da, qip-qizil bargchalarini yulaverdi. Birpasda uning oppoq ko'ylaklari, ko'k tovar ko'rpachalari gul yaproqlariga to'ldi.

Bola oppoq qo'lchalari bilan shu yaproqchalarni birma-bir terib tiqmachoqdek tizzalariga sochar, qiyqirardi.

Bobo uning qiyqirishidan, gul barglarini sohib o'ynashidan zavqlanib ketdi. Boyagi jahlidan nom-nishon qolmadi. Qaytib supasiga o'tirdi. Gulning birinchi g'unchasi kuttirib ochiladi. Keyin biri ketidan biri ochilaveradi.

Bobo har gal ertalab chiqqanida gullarining yashnab ochilib turganini ko'rganida negadir o'sha bolani eslaydi. Uning yana kelib gul uzishini, do'mboq qo'llari bilan uni silkitishini istardi.

UNING NAZARIDA

Erta bahorning endigina yerdan qor ketgan kunlari edi.

Shahar o'rtasidagi tug'ruqxona derazasi tagida bir xotin kichkina savatchada gunafsha ko'tarib turibdi. Bir yigitcha derazaga minib olib ko'zi yorigan xotini bilan gaplashyapti.

— Vaqti bo'ldi, hozir olib keladi, ko'rasiz, biram chiroyli, burnilari xuddi chimchilagandek, ko'zlari qop-qora...

Ona bolasini ta'riflashga so'z yetkizolmadi. Ota og'zining tanobi qochib iljayardi. Bolasini tezroq ko'ra qolishga shoshardi.

Nihoyat doya xotin bolasini olib kelib qo'liga berdi. Ona choyshabni yelkasiga tortib uni bag'riga bosdi-da, cho'p-cho'p o'pib oldi.

Bolaning burunlari yalpoq, peshonalari yog' surtgandek, ko'z o'rnida ikkita chiziq edi. Umuman bola yangi tug'ilganda shunaqa bo'ladi.

— Muni qarang, chiroyliligini qarang...

Ota derazadan sug'urilib tushib boyagi xotindan bir dasta binafsha oldi-da, xotiniga uzatdi. Xotin baxtiyor ko'zlarini unga mehr bilan tikib hidladi. Keyin binafsha dastasini bolaning dimog'iga tutdi. Bola g'ashi kelgandek lablarini qimtib qo'ydi. U shunday qilganda og'zi bir tarafga qiyshayib ketdi, ancha vaqtgacha urinib yig'ishtirib ololmadi.

— Voy, buni qarang, bilyapti, hidlashini qarang, voy tavba.

Bola hidlash u yoqda tursin, nima bo'layotganini ham bilmasdi.

— Mushtdakkina bola bahor kelganini bilyapti-ya, binafsha hidlayapti-ya...

Mana shu voqeaga sakkiz yil bo'lgan. O'sha bola bir chiroyli, bir kelishgan qiz bo'lgan. Har bahor kelganda binafsha ko'rsa onaning bahri-dili ochilib ketadi.

— Voy tavba, mushtdek vaqtida binafshani bilganini qarang, hali ko'zini ochmagandayoq binafsha hidlagan-a...

Bu voqea endi ona xotirasida bir umr qoldi, deyavering.

ABADIY GUL

Avtobus cho'l o'rtasida to'xtab, suv almashtirib olishi kerak. Bu yerda hech kim yashamaydi. Yo'lovchi mashinalarning suv almashishiga atayin quduq qilingan. Quduqdan ikki metrcha narida bir tup atirgul ochilib turibdi. Uning yonidagi taxtachada shunday yozuv bor:

«Yo'lovchi, quduqdan suv olib ichganingda shu gul tagiga bir piyola suv quy!»

Avtobus kelishi bilan yo'lovchilar o'zlarini quduqqa urishadi. Chelakda suv tortib birov stakan botiradi, birov piyola botiradi. Besabrroqlari chelakni ko'tarib chetidan simirishadi.

To mashina motori soviguncha u yoq-bu yoqqa qarab cho'lni tomosha qilishadi va albatta gulga ko'zlari tushadi. Shunda taxtachadagi yozuvni ham o'qishadi. Birin-ketin piyolada suv oborib gul tagiga quya boshlashadi. Qarabsizki, hademay gul tagidagi chuqurcha suvga to'ladi.

Avtobus yana yoʻlga chiqadi. Kimsasiz choʻl oʻrtasida shu fayzsiz yerlarga jilva berib birgina gul qoladi. Yana avtobus koʻrinadi, kechga borib yana...

Choʻlning olovdek oftobi uning bargini qurit olmaydi. Tomirlariga jon berib turgan tuproqning namini havoga uchirolmaydi.

Chunki bu yerdan kuniga uch marta odam oʻtadi, uch marta shu gulga suv beradi.

Bu — abadiy soʻlmas gul.